

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

HALIMA XUDOYBERDIYEVA



Kitob quyidagi ko'rsatilgan muddatda topshirilishi shart

Oldingi foydalanishlar miqdori_____	

ılova

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

HALIMA XUDOYBERDIYEVA

29

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT – 2022

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5
H 22

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton — hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, *G‘ayrat* Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Farog‘at Xudoyqulova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8569-6-7

©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

TUYG‘ULAR QASIRG‘ASI

Halima Xudoyberdiyeva — o‘zbek she’riyatiga qasirg‘ali tuyg‘ular, ruhiy po‘rtanalarning betakror tasvirini olib kirgan shoira. U bitganlarida hamisha chin ko‘ngil holatlarini tasvirlagan esa-da, hech qachon faqat o‘z ko‘ngli bilan andarmon bo‘lib qolgan emas. Chunki uning yuragi mudom Haq va haqiqat bilan uyg‘unlikda urardi. Shoiraning she’rlari silliq va bir tekis emas. Zero, muvozanatdan chiqqan bezovta yurakning mahsuli bo‘lmish bitiklarga silliqlik begona bo‘lishi tabiiy. Po‘rtanali yirik tuyg‘ular o‘zining tabiatiga yarasha ifoda tarzini taqozo etadi. Halimaxonim ko‘p asrlik tajribaga ega o‘zbek she’riyatidan ana shu qirrador sezimlarni boricha tasvirlay olishi bilan o‘z o‘rnini topdi. Shoiraning quyidagi iqrori she’riy mahobat emas, balki haqiqiy holatning poetik izhoridir:

Yashayapman, bilmay qay rangda sukut,
Betoqat toqatga to‘ldir jomimni.
O‘lsam ham... qachondir o‘ldiradi o‘t,
Hayajon oladi jonimni...

Odatiy qarashlarga sig‘maydigan parodoksal mantiq g‘ayritabiiy ifodani taqozo qiladi. Sukut neligin bilmaydigan bezovta va betoqatlik yuragini tark etmasligini istagan shoira ana shu doimiy betoqatlikka toqat qilishga yaraydigan qudrat berishni so‘raydi. Xotirjamlik emas, balki uzluksiz bezovtalik, o‘tli hayajon umrlik yo‘ldoshi bo‘lishini istagan ijodkor shu yo‘lda jon berishga-da tayyor. Ayni shu jihat uning she’rlariga otashin harorat bag‘ishlaydi. Yurakdan chiqqani sabab muallif tuyg‘ulari o‘qirmanlar yuragiga yetib boradi.

“Da’vat” she’rida yozganidek, shoira odamiylik, vatan, millat yo‘lida o‘zidan kecha biladi. Shu bois: ***Kunduz yurib yozdim, tun***

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 29935

turib yozdim, Yozganda ko'ksimga tig' urib yozdim. Dardlarimga siyoh kor qilmay qolgach, Qalamni qonimga botirib yozdim", — deya oladi. Yurak qoniga botirib yozilgani uchun uning bitganlari kishini befarq qoldirmaydi, muvozanatdan chiqarib, hayajonga tushiradi. Ana shu hayajon vositasida o'qirman ko'nglini poklashga xizmat qiladi.

Halimaxonim eskirmas tuyg'ular to'g'risida eskirmaydigan yo'sinda yoza biladigan shoira edi. Uning "Begim, sizni tabiat..." she'rida sevgida o'rtanayotgan qalbning quyunday tug'yonli holati aks ettirilgan. Ishqqa asir bo'lgan insonning nozikdan nozik sezimlarini anglamoq uchun o'qirman so'zlarning ma'nosini tushunishdan tashqari, ularning o'ziga xos musiqasini ham tuyishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa, nafaqat so'zlar, balki imolarni ham ilg'ash kerak. She'rning dastlabki baytida lirik qahramon uchun suyuklisi dunyodagi eng raso, eng go'zal, eng oqil odam bo'lib ko'rinishi aks etgan. Shu bois ***"Nogohon berib qo'yib, bu husnni, kamolni, O'zi ham rashk, hasadga to'lib-to'lib yaratgan"*** misralaridagi shakkoklikni ham bir qadar tushunish mumkin bo'ladi. ***"Qiya tushgan nigohni armonga yo'ymagaysiz"*** satrida o'ktam yigitga ko'ngil qo'ygan tortinchoq o'zbek qizi ruhiy holati aniq ifodasini topgan. Bu va bundan keyin keladigan uch misrada oshiq qiz qalbining nozik tebranishlari tengsiz darajada go'zal tasvir etilgan.

She'rning qahramoni o'z suygulisini ehtirom bilan "begim" deb atashi asarga o'zgacha bir tarovat bag'ishlaydi. Bu so'zni qo'llash natijasida she'rda chuqur samimiylik paydo bo'ladi. She'rdagi: ***"Siz xuddiki Farhodsiz, Shirin qaydadir, begim? Orzularim dilda-yu, nolam naydadir, begim. Siz desam, bar tutqazmay, sochilgan o'ylarimday, Bu tong qora sochlarim mayda-maydadir, begim"*** satrlaridagi go'zal va anduhli tashbihlar vositasida ifodalanayotgan ruhiy holatni anglab yetish she'rxonni intellektual-hissiy jihatdan yuksaltiradi. Ma'shuqaning yorga yoqish uchun sochini atay mayda-mayda o'rishining yigit haqida o'ylaganda etagini tutqazmay, har tomonga sochilib ketadigan xayollarga muvoziy berilishi shoiraning tasvir mahorati qanchalar balandligini ko'rsatuvchi dalildir. Bu shunchaki

chiroyli o'xshatish emas, balki suygan inson ruhiyatining she'riy manzarasidir.

She'rni tuygan o'qirman shoiraning ishq iztiroblariga ko'milib, yorning beparvoliklaridan azob tortayotgan jabrdiydagina emas, balki qat'iy qarashlarga ega, tanlagan yo'li sari hech narsadan tap tortmay bora oladigan Oybarchinsifat qiz ekanini ham bilib oladi. Shunda baland kishilarga xos yuksak tuyg'ular va ularga loyiq bo'lish uchun talab etiladigan fidoyilikning bahosi anglanarli bo'ladi. She'rdan hijron tufayli qilingan alamangiz nola emas, balki yorga erishish yoki unga erishishdan ham ko'ra uning ko'ziga qanday odamni boy berganini ko'rsatib qo'yishga qat'iy intilish ifodalangan satrlar o'zbek qizi ko'nglida kechgan tuyg'ular to'fonini aks ettirishi jihatidan beqiyosdir. Yoridan kecholmagan qahramonning: ***"O'z qonim bilan o'zim alvonlanib boraman"*** tarzidagi iqrori zamiridagi ulkan insoniy dard va g'ururni tuymoq uchun uning holatiga tushmoq kerak bo'ladi.

Halimaxonim she'rlarida hamisha qasirg'ali ruhiy tug'yonlar aks etadi. Uning bitiklarida mutlaqo bir-birini inkor etadigan tuyg'ular yonma-yon tasvirlanaveradi. Bu hol shoira she'rlariga betakrorlik baxsh etadi. Shoiraning she'rdagi: ***"Sizni obdan muzlatgach, o'zim qaytarman, chunki Bungacha yo'q sadoqat, bundan so'ng ham bo'lur kam. O'zga tortmam, cheksam ham shuncha jabr-u jafoni, O'zgaga ham bermasman, sizdek bir bevafoni!"*** satrlaridagi hadsiz fikriy qudrat, cheksiz ma'no ko'lami, ruhiy ziddiyat paradoksalligi singari jihatlar bu she'rni jahon poeziyasining durdonalari qatoriga kiritadi. Bu satrlarda, umuman, ayol, xususan, er bermoqni jon bermoq, deb hisoblaydigan o'zbek ayolining hech qanday formal mantiqlarga sig'maydigan tutumlari yorqin aks etgan.

Ushbu she'r sevgi haqida yig'lab, o'rtanib bitilgani bilan ajralib turadi. Unda ifoda etilgan tuyg'ularning yirikligi, sezimlarning pokiza va balandligi kishini hayratga soladi. Ko'ngil maylining qudrati begona ayol og'ushidagi yor oldiga qoqilgan mix ustidan tinimsiz borib-kelaverib, yo'lakni qip-qizil qoniga belagan ayol holati tasvirlangan o'rinlarda avj nuqtaga ko'tarilgan. Nozik va ta'sirchan ma'shuqaning himoyasiz qalbi, ammo undan kech-

gan suyuklisini jazolashga o‘zida kuch topa olishi tasviri odam tuyg‘ulari, ayol sezimlarining nechog‘lik murakkabligi haqida qanoat paydo qiladi. She’rda himoyasiz, ammo mag‘rur yurakning titroqlari aks etgan.

“Shunchaki” she’ri shoiraning programm asarlari sirasiga kiradi. Shunchaki yashash, sevish, sevilish, kulish, yig‘lash — shunchaki odamlarning yumushi. She’r kishida shunchaki odam bo‘lib qolishdan qo‘rqish tuyg‘usini hosil qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. She’rning: “***Men shunchaki o‘ylagim kelmas, Xayol sharob misol qilsin sarxush, mast***” shaklidagi dastlabki qo‘shmisrasini teran his qilgan o‘qirmangina butun asarni anglay biladi. Odatda, o‘y kishining ixtiyoridan tashqarida, shunchaki suriladi. Shoira esa, hatto xayolni ham shunchaki surmoqchi emas. U o‘ylarining mast qilar darajada yuksak va g‘aroyib bo‘lishini istaydi. O‘z o‘ylariga-da yo‘nalish bera olgan shoiraning: “***Men shunchaki kuylagim kelmas, Ovoz pardalarim chidab bersa bas***” misralari zamiridagi mazmun she’rxonga tushunarli bo‘ladi. Darhaqiqat, shoira yurakdan chiqaribgina kuylay oladi. Uning yonib turgan yuragi na’ra tortishni taqozo etadi. Shu sababdan ham shoira ovoz pardalaridan xavotirga tushadi. She’rdagi “***Shunchaki sevilmoq — baxti qoralik, To‘la tole uchun bu kemtik, bu kam. Mening qalbim shunday sevgiga molik, Bir charsillab yonay, so‘ngra so‘nsam ham***” tarzidagi iqror she’rxon tuyg‘ularining nozik, teran va yuksak bo‘lishiga xizmat qiladi. She’rning har bir so‘ziga jiddiy e’tibor qilgan odamgina bu misralar zamiridagi qo‘rg‘oshinday salmoqdor ma’no va quyunday charx urguvchi tuyg‘ular shiddatini payqay oladi.

Halima Xudoyberdiyeva chin inson o‘zi qo‘l urgan har bir yumushni astoydil, yurakdan bajarishi kerakligini “***Tarjima qilib yoz sim sadolarin***” shaklidagi da’vat zamiriga mahorat bilan joylagan. Shoiraning chinakam kulgi va astoydil yig‘i borasidagi baland talablari hamda favqulodda tashbihlari odamning ma’naviy tozarishiga xizmat qiladi. Bu she’rda chin insonlikning bahosi qanchalar balandligi, unga qo‘yiladigan talablar nechog‘lik og‘irligi aks etgan. She’rning birinchi bandidagi obrazli ifodalar uning so‘nggi bandida kuchaytirilgan holda takrorlangani asarga alohida joziba

baxsh etgan. Inson tuyg‘ularining butunligi haqida bitilgan she’rning “***Shunchaki yozmoq — bu shoirga o‘lim***” shaklidagi qanoat bilan tugallanishi shoira Halima Xudoyberdiyeva ijodining yo‘nalishini anglatishi bilan ahamiyatlidir.

Halima Xudoyberdiyeva shoirlikni imtiyozli hunar emas, balki achchiq qismat, deb biladi. Shu sabab poetik iste’dod berilgan shaxs xalq uni ko‘tarish u yoqda tursin, ko‘ksidan itarganida ham xalq deya hayqira olgandagina shoir sanalishini qayd etadi. Chin shoirning taqdiri yorug‘, yo‘li tekis bo‘lmaydi. Chunki u — yomonlikka qarshi ezgulik tomon bo‘lib kurashishga mahkum. Zero, shunday qilgan taqdirdagina shoir bo‘la oladi. Shunchaki ko‘ngil istagi uchun qofiyali tizmalar bitgan kimsa shoir hisoblanmaydi. Iste’dodining qudrati ila zar-u zo‘rlarni to‘zitadigan, to‘sin-to‘rlarni uzadigan, mangu oromgoh bo‘lmish sokin go‘rlarnida chayqaltira biladigan shaxsgina shoir sanaladi:

Nafaqat
Zar, zo‘rlarni,
Uzsang to‘sin, to‘rlarni,
Chayqaltirsang go‘rlarni,
Go‘rdayam hayqirolsang,
Demakki, sen shoirsan.

Halimaxonim — tom ma’noda milliy shoira. Uning she’riyatidagi milliylik mahalliy unsurlar, ekzotik lavhalar tasvirida emas, balki tomirlarda oqib yotgan o‘zbek qonida, olamni o‘zbekning ko‘zi bilan ko‘rishda, o‘zbekona sezimlarda ta’sirlanishda va o‘zbekning aqli bilan izohlashda namoyon bo‘ladi. Shoira bitiklarida sirtida jilmayib turgan, ammo ko‘ngil olamida tuyg‘ular to‘foni qo‘payotgan o‘zbek ayoli ruhiyati butun murakkabligi bilan aks etadi.

Chin she’r hamisha ham ayriliqdan tug‘iladi. Lekin ayriliqning cheksizligi va shunga muvofiq sog‘inch-u iztirobning adoqsiz tovlanishlari mutanosib darajada aks etgan she’r alohida bir hodisadir. Mangu hasratning bunday ifodasini bitish har qanday shoirga ham nasib etavermaydi. “Yo‘ldadirman” she’ri kechagina bag‘rida

bo‘lgan oshig‘idan ayrilgani tufayli kuyib-yonayotgan ma’shuqaning yolqinli nolalari ham, ertangi visoldan umidvor bo‘y qizning o‘tkinchi anduhi ham emas. U hech qachon bo‘lmagan visolning hijronlari, hech qachon uchrashilmagan oshiqdan ayriliqning iztiroblari og‘ushida bir umr armon bilan yashayotgan chigal taqdirli ko‘ngilning munojotidir.

She’rning birinchi bandida yordan ayri, ammo unga astoydil intilgan va uning visoliga yetishishiga aslo shubhalanmaydigan ma’shuqaning umidbaxsh ruhiy holati aks etadi:

Siz kutasiz. Menam boraman,
Uchib boradurman xuddi o‘q.
Faqat, oldin xat yuboraman,
O‘sha xatni... yozganimcha yo‘q.

Bu satrlarda yor huzuriga o‘qdek uchib borishga tayyor, lekin bunga qulay ruhiy sharoit kelishini poylayotgan, hali bu kutish qanchaga cho‘zilishini tasavvur ham qilmayotgan bo‘y qizning nekbin kechinmalari aks etadi. Bu satlarga umidsizlik tuyg‘usi begona. Bor-yo‘q muammo qizning oshig‘i sari shunchaki boraqolmay, qadrini bilgan kishi sifatida oldin xat jo‘natib, so‘ng yo‘lga chiqmoqchiligi va o‘sha xatni yozishga hozircha ulgurmaganida, xolos. She’rning ifodasidan bu xatning yozilishiga zarracha ham shubha yo‘qligi anglashilib turadi. Gap faqat mavriddagina qolgan. O‘qirman ham taqdirlarni birlashtirguvchi bu xatning, albatta, yozilishiga ishonadi. Unda: “Ha endi qiz vaqt topib va g‘ururini yengib xatni yozsa masala hal bo‘lsa kerak”, — deganday taskin bo‘ladi. Negaki, she’rda aks etgan ranglar yorqin, tuyg‘ular tip-tiniq, ayriliq xataridan biror belgi yo‘q.

Har qanday ayriliq uchrashuvdan, har qanday hijron visoldan boshlangani kabi har qanday ayriliq ham insonni uchrashuv tomon, har qanchaki hijron ham visol sari yetaklaydi. Biz hayot va inson tuyg‘ularining inja aksi bo‘lmish she’riyatda ham tasvir nishabi, albatta, shu tomonga burilishiga ko‘nikkanmiz. Ammo Halima Xudoyberdiyevaning bu she’rda aks etgan fikri miqyosi, tuyg‘ulari ko‘lami odatdagi tasavvurlar qolipiga tushmaydi. Unda

sevgi sabab umrini intihosi yo‘q ayriliqda o‘tkazayotganiga qaramay, yorqin umidlar og‘ushidagi ayolning inja va tushuniksiz sezimlari ifodalangan:

Ko‘ngil ichga to‘kib borini,
Bir yil, o‘n yil o‘tdi. Bu ko‘pmi?
Ayriliqning alafzorini
Birgalikda o‘ramiz, xo‘pmi?!

Bu misralar o‘qirmanni bir qadar hushyor torttiradi. Negaki, ulardan ma’shuqa o‘z ko‘nglidagi tuyg‘ularini tashga chiqarmay, ya’ni oshiqqa bildirmay, “***ichga to‘kib, bir yil, o‘n yil***”ni o‘tkazib qo‘ygani va bundan deyarli malollanmayotgani anglashiladi. Bamaylixotirlik va xavotir aralash: “***Bu ko‘pmi?***” — deb berilgan so‘roq she’rxonga hayotini sevgiga bag‘ishlagan lirik qahramon uchun ayriliqdagi yillarning miqdori mutlaqo ahamiyatsiz ekanini tuydirganday bo‘ladi. Ayni vaqtda “***Ayriliqning alafzorini Birgalikda o‘ramiz, xo‘pmi?!***” misralarida aks etgan intiqlik, qat’iyat va ishonch o‘qirmanda umid uyg‘otib, kayfiyatini ko‘taradi. Zero, ma’shuqaning oshiqni ayriliq alafzorini birgalikda o‘rishga chorlovi visolni va’da qilganday bo‘ladi.

She’rning keyingi bandlarida chin sevgi ayriliqda kechishi kerak deb hisoblaydigan so‘fiyning tuyg‘ulari aks etadi. O‘qirmanga ma’shuqa uchun tan yaqinligidan ko‘ra, ayriliq otashida jizg‘anak qilayotgan sevgining o‘zi muhimday, u hijronni visol hisoblaydiganday tuyuladi:

Yigirma yil, o‘ttiz yil o‘tdi,
Ko‘zingizga malol inmasmi?
O‘ttiz yillab g‘ovlagan o‘tni
O‘rar chog‘i chalg‘i sinmasmi?

Chin sevgi uchun ayriliq malol emas, sevguvchiga shu muqaddas tuyg‘uning borligi muhim. Shu bois “***Yigirma yil, o‘ttiz yil***”ni hijronda o‘tkazgan ma’shuqa ozorlanmaydi. Yorni ayagani sabab undan: “***Ko‘zingizga malol inmasmi?***” — deb ko‘ngil so‘raydi.

U visoldan voz kechishni o‘ylamaydi ham, ammo o‘ttiz yillab yurilmagan ishq yo‘llarida g‘ovlagan ayriliq o‘tlarini o‘rish chog‘ida sevgi chalg‘isi sinib qolishidan cho‘chiydi. She’rning shu o‘rinlari o‘quvchini sergaklantiradi.

Shoira she’rda har bir so‘zni bilib, o‘rni bilan ularga o‘zi istagan ma’noni yuklab qo‘llaydi. Agar she’rning ikkinchi bandida uchrashuv yo‘llarini “alaf” bosganligi aytilgan bo‘lsa, keyingi bandda “o‘t” g‘ovlagani tasvirlanadi. Shu tariqa aslida ikki tilda bir ma’noni ifodalovchi ikki so‘z ikki o‘rinda ikki xil ma’nonigina emas, balki ikki ma’noning ikki darajasini ham ifodalashga xizmat qiladi. She’r matnida “alaf”ga qaraganda “o‘t”ning darajasi ko‘p bor ortiqligi zimdan ta’kidlanadi.

Chin sevgida atayinlik yo‘q. Birovni rejaga muvofiq sevib bo‘lmaganidek, kimgadir mo‘ljal bilan sevilish ham mumkin emas. Sevgining ilohiy tuyg‘uligi ham shunda. Sevgida aslo zafar bo‘lmaydi. Sevish mangu mag‘lublikdir. Visol ishqni halok qiladi. Shuning uchun ham sevgida visol emas, sevgining o‘zi marra hisoblanadi. Chin sevgi oshiq uchun sababi yo‘q, oqibati esa mutlaqo muhim bo‘lmagan ham inoyat va ham jazodir.

Sevgida zamon va makon tushunchalari o‘zgacha ma’no kasb etadi. Ayriliqning miqyosiga qarab makon va zamon yo kichrayadi yoki ulkanlashadi. Shu bois ma’shuqaning quyidagi izhorida mahobat yo‘q:

Qirq yil o‘tdi. Men tez boraman,
Ranjimangiz: guvoh yer-u ko‘k.
Faqat... oldin xat yuboraman,
Xatni... hali yozolganim yo‘q.

Ma’shuqa qirq yildan beri hamon harorati pasaymagan tuyg‘u va amalga oshmagan istakning chinligiga yer-u ko‘kni tanig‘ qiladi. Uning uchun qancha vaqt o‘tganligi muhim emas. Tuyg‘uning o‘zi qimmatli.

Hamisha o‘zgalar oldidagi majburiyatlar yuki ostida yashaydigan o‘zbek ayoli hech qachon faqat o‘ziga, ko‘ngliga tegishli bo‘lolmaydi. Istaganida istaganini qilolmaydi. Ehtimol, shu holat

sabab u borishdan oldin oshiqqa xat yuborishi kerakdir. Ammo bu xatni hamon yozolgani yo‘q. Bu maktubning yozilishiga uning ayolligi, o‘zbekligi, andishali ekani, tirikligi va tirikchiligi muayyan izga tushib qolgani kabi turfa moneliklar ko‘p...

Shoira she’rda so‘zni bilib-bilibgina emas, tuyib-tuyib va kuyib-kuyib ham qo‘llaydi. Shuning uchun ham bitta holat she’rning ilkinchi bandida “***O‘sha xatni... yozganimcha yo‘q***” tarzida ifodalansa, beshinchi bandda: “***Xatni... hali yozolganim yo‘q***” shaklida tasvir etiladi. Bir nechagina tovush o‘zgargan oldingi va keyingi iqrorda aks etgan ruhiyat bir-biridan osmon bilan yercha farq qiladi. Birinchisida xatni haligacha yozmagan, lekin istagan vaqtida uni yoza oladigan o‘ktam qizning o‘ziga ishonchi aks etsa, keyingisida umrining ma’nosi bo‘lmish xatni hamon yozolmagan chorasiz ayolning anduhi, tushkun kayfiyati ifoda etilgan.

She’r umuman ayriliqning tasviriga emas, balki aynan o‘zbek ayoli kechirayotgan hijronni ifodalagani sabab qadrlidir. Buyuk ko‘ngil egasi bo‘lmish ayol qirq va undan ko‘p yillar oldingi sevgisini unutolmaydi. Ayni vaqtda, u adoqsiz burchlar og‘ushidagi inson sifatida ko‘ngli tilaganini qila olmaydi ham:

“Uchib boradurman xuddi o‘q”
Bu holatni qanday sharhlayman.
Borgan sari o‘rmonzor quyuq,
Men kuyinib chalg‘i charxlayman.

Qirq yildan buyon “***Uchib boradurman xuddi o‘q***”, — deya jahd qilayotgan va ko‘ngilning chin istagi sari biror qadam ham qo‘yolmaydigan ayolning qonsiz fojiasi ifodasi so‘nggi bandda haddi a’losiga chiqadi. Visolning yo‘lini bosgan bir zamongi “alaf”lar, “o‘t”ga aylangandi, endilikda ular quyuq o‘rmonzorga do‘nib bormoqda. Lekin sevgan ko‘ngilni umid tark etmaydi. Shu bois ma’shuqa hamon “***kuyinib chalg‘i charxlash***” bilan band. U sevgi chalg‘isi bilan ayriliq o‘rmonini o‘rib bo‘larmikin degan fikrni xayoliga ham keltirmaydi. Suygan-u suyilgan, visol imkonsiz bo‘lsa-da, umididan ayrilmagan insonning bu qadar chigal, zalvor-

li tuyg‘ulari aks etgan she’r nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki ochun she’riyatida ham unchalar ko‘p bo‘lmasa kerak.

She’rning: “***Siz kutasiz. Menam boraman***” tarzidagi umidbaxsh yo‘sinda tugashi uning ta’sir qudratini yanada oshirgan. She’r aynan shu misra bilan boshlangan edi. Demak, tortilgan shuncha azoblar ham, visoldan umidning yo‘qligi ham ma’shuqaning tuyg‘ularini o‘zgartira olmadi. Zero, chin sevgiga zavol yo‘q. Shunday chigal, qildan nozik, chaqmoqdan qudratli sezimlarni tuygan va tuydirgan shoiraning jizg‘anak qalbi va tengsiz poetik mahorati kishi ko‘nglini tozartiradi. Uni turmushning tuban tashvishlaridan yuksaltiradi. She’rda suyukliga yetishishga intilish umid uyg‘otishi, visoldan umid qilishning o‘ziyoq lazzat ekani tengsiz va betakror bir mahorat bilan aks ettirilgan.

Shoira she’rda lirik qahramon tuyg‘ularining rangi, tovushi, ta’mi, zalvorinigina emas, balki ularning darajasini ham ko‘z bilan ko‘rib, quloq bilan tinglab, qo‘l bilan tutsa bo‘ladigan darajada moddiylashtira olganki, bu sifatlar asarning umrzoqligini ta’minlagan. Shu tariqa ulkan shoiraning parda ortidagi eng nafis tuyg‘ulari o‘qirmanning ko‘ngil mulkiga aylangan.

Kitobdagi ko‘plab bitiklarda achchiq qismatning odamni sinovlarga duch etishi, ilojsiz va himoyasiz ko‘ngil egasini o‘z ixtiyoriga zid ishlar qildirishi, necha ko‘ngillarni vayron, qancha umrlarni kemtik, ne bir taqdirlarni zavolli aylashi dard bilan aks ettirilgan: “***Taqdir ulaganda umrlar zanjirin Nogohda ro‘para bo‘ldik ikkimiz. Tushunmay yashirin qalblarning sirin, Hissiz yo‘l boshidan birga tushdik biz. Buni tilim bilan olmasam ham tan — Bilasan, yuragim begona edi. ...Bilasan, yo‘q edi dilimga hokim, Uni o‘zga birov etmagandi jalb. Mag‘rur, qushday erkin edim va lekin, Shuningdek, senga ham berolmadim qalb***”. Bu o‘ychil satrlar kishi ruhiyatini junjiktiradi. Negaki, ularda o‘zini olam sarvariman deb yurgan odamning qanchalar ojizligi, o‘zga u yoqda tursin, hatto o‘z yuragiga ham xo‘jayinlik qilolmasligi aks etadi. Odatiy tasavvurga ko‘ra qo‘shog‘iga ko‘ngilsizlik birovga ko‘ngil berganlik tufayli deb tushuniladi. She’r qahramonining holati bu jo‘n standart tasavvurga sig‘maydi: yuragida birov bo‘lgani uchun yonidagiga ko‘ngilsiz emas, balki qalbini hech kim egallamagan bo‘lsa-da, yuragida unga joy yo‘q. Hayotning murakkabligi, ko‘ngil deb atalmish koinotdagi yo‘llarning chigalligi shu jo‘ngina, ammo betakror tasvirlarda butun ko‘lami bilan aks etadi. Bu satrlarda holatning qonsiz fojiasi, ko‘ngliga emas, qismatga qarshi borishga jur’at qilib, jur’atidan o‘zi qo‘rqib turgan o‘zbek qizining murakkab holati tasvirlanadi:

Dil qushimni erkin uchirdim —
Shunday istak bor edi menda...
Ufq qizarib yonayotgan dam —
Men tark etdim issiq quchog‘ing,
Ortiq endi ayblama sen ham!
Tuzing haqqi. Meni kechirgil.

Ma’lumki, yurakka yo‘l faqat yurak orqali o‘tadi. Shoira samimiy bo‘lgani, tuyg‘ularini pardozlamagani, bejab soxtalashtirmagani uchun o‘qirman ko‘ngliga kirib boradi. Kitobga kirgan she’rlarida shoir donolik qilib birovga yo‘l ko‘rsatmaydi, aksincha, o‘zi yo‘l topolmay, qiynalayotganini ochiq aytadi. Balki, she’rning ta’sirchanligini ta’minlagan omil mana shu ochiqliqdadir. Ko‘ngil ko‘ngilni aldamagani bois ko‘ngildan chiqqan chin tuyg‘ular ikkinchi bir ko‘ngildan oson joy topadi.

Halima Xudoyberdiyeva o‘zining yarim asrdan oshiqroq davom etgan ijodiy umri mobaynida o‘zbek o‘qirmanlarini qasirg‘ali odamiy tuyg‘ular, pokiza ruhiy tovlanishlar bilan oshno qildi. Bitganlari orqali muxlislari ko‘nglini tozartirishga, ma’naviy dunyosini ezgulashtirishga intilgan shoira bugungi o‘zbekning ruhiyat olami shakllanishida salmoqli o‘rin tutib keldi. Ishonamanki, uning she’riyati millatning keyingi avlodi ma’naviyatining ham tozarishiga xizmat qiladi.

Qozoqboy Yo‘ldosh,
pedagogika fanlari doktori, professor

SHUNCHAKI...

Men shunchaki o‘ylagim kelmas,
Xayol — sharob misol qilsin sarxush, mast.
Men shunchaki kuylagim kelmas,
Ovoz pardalarim chidab bersa bas.

Qo‘lingga tusharkan jajji chaqaloq,
Shunchaki sevmoqda qanday lazzat bor?!
Kerak chinqirtirib o‘pib, tishlamoq,
Biz ham go‘daklikda topganmiz ozor.

Shunchaki sevilmoq — baxti qoralik,
To‘la tole uchun bu kemtik, bu kam.
Mening qalbim shunday sevgiga molik,
Bir charsillab yonay,
so‘ngra so‘nsam ham.

Ohangga shunchaki solmasdan quloq,
Tarjima qilib yoz sim sadolarin.
Axir, buloqmasmish tog‘dagi buloq,
Ko‘z yoshlarimish u ishq gadolarin.

Shunchaki kulmoq ham istehzodek gap,
Birdan qah-qah uray,
cho‘chib ketsinlar.
Boshlariga osmon tushganday qulab,
G‘aflat bandalari yoqa tutsinlar.

Shunchaki yig‘lash ham yarashmas bizga,
Uni eplar faqat yuragi toshlar.
Shunday yig‘lay, hojat qolmasdan so‘zga,
Qurg‘oq ko‘zlardan ham quyilsin yoshlar.

Shunchaki yozmoqqa ko‘ngil to‘lmaydi,
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo‘lim.
Shunchaki yozmoqqa chidab bo‘lmaydi,
Shunchaki yozmoq, bu — shoirga o‘lim.

1971-yil 20-oktabr

2 - 22-312

DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI ARM
№ 29935

* * *

...ga

Taqdir ulaganda umrlar zanjirin
Nogohda ro‘para bo‘ldik ikkimiz.
Tushunmay yashirin qalblarning sirin,
Hissiz, yo‘l boshidan birga tushdik biz.
Buni tilim bilan olmasam ham tan —
Bilasan, yuragim begona edi.
Ularni men bu tun quyosh botganda,
Esdalik daftarga yozyapman endi.
Ko‘zimni chirt yumib seni eslasam,
Qiynaydi o‘tmishning o‘kinchi, dardi.
Beixtiyor qalqir ko‘zlarimda nam.
O‘ylayman “sevardi, sevsam bo‘lardi”.
Bilasan, yo‘q edi dilimga hokim,
Uni o‘zga birov etmagandi jalb.
Mag‘rur, qushday erkin edim va lekin,
Shuningdek, senga ham berolmadim qalb.
Tushday o‘tib ketdi bugun hammasi,
Yurakni foydasiz o‘rtamoq nechun?!
O‘tdi, ammo dilda qoldi chamasi
Azobi, o‘zim rad qilganim uchun.
Bu chigal xatoni tuzatolmayman,
Tunday yuragimni ochaman tunga.
Endi-ku senga qo‘l uzatolmayman,
Xayrlasholmayman ham mangu-manguga.
Nurli tong oqarar, tun bo‘lar oxir,
Senga tilaklarim shu tong kabi oq.
Qiziq, goh baxting ham men uchun og‘ir,
Baxtsizliging esa yana og‘irroq!

* * *

Senga barcha otilgan toshlar,
Ta’nalarga men o‘zim sabab.
Men sabab sen to‘kkansan yoshlar,
G‘am o‘tida bo‘lgansan kabob.
O‘g‘irladim oroming yillab,
Toshqin yurak sen kelganda jim.
Yurdim senga o‘zga taxt tilab,
O‘zim senga begona edim.
Ko‘z yoshlaring xuni bo‘ynimda,
Otma, tegar qarg‘ishing toshi.
Biz taqdirning sho‘x o‘yinida,
O‘ynay-o‘ynay ketdik adashib.
Turmush bog‘i bo‘lmasdan gullab,
Yog‘di unga qayta-qayta qor.
Barchasiga kibor qalb sabab
Barchasiga o‘zim gunohkor.
Umr, balki, shodumon o‘tar,
Balki... ko‘rgum boshda borini.
Biroq,
Sen qarg‘ama, qarg‘ishing tutar,
Ko‘z yoshlaring sababkorini!

* * *

O‘chgan o‘tni yondirma qayta,
Yomon, yomon uning yonishi.
U qizishib, gurlagan paytda,
Mushkul uni o‘chirmoq ishi.
Iltimosim, qayta yozma xat,
O‘ynatmasin yurakni nido.
Biz bir fursat bo‘lganmiz ulfat
Va manguga aytganmiz vido.
Aybdor senmi yo men gunohkor,
Surishtirmoq paytimas, do‘stim,
Yoz-u, bizning dilga cho‘kkan qor,
Dil qorini kim ko‘ribdi, kim?!
Ko‘nikkanman endi bariga,
Endi men shod qo‘shiq aytaman.
E’tiqodim zanjirlariga,
Zarb tekkizma, endi qaytadan.
Kech gullagan ekinlar sovuq
Izg‘irinda bo‘ladir nobud.
Qayta yoqma sen ham o‘tni, yo‘q,
Kul qiladir bizlarni u o‘t.

* * *

Sochlarimga nigoh solmay o‘t,
Nigohingdan o‘yga tolgayman.
Sen tasodif boqarsan yigit,
Men sochim-la bog‘lab olgayman.

Tasodifdir va balki, havas,
Jilmayish — u boshing saragi.
Ammo bilmaysanki, shu nafas
Qo‘lginamga tushar yuraging.

Men g‘ijimlab o‘ynarman yomon,
Yondirmasa, qilmas bo‘lsa xun.
Mudroq hislar topmasdan omon,
Changalimda so‘nadir bir kun.

Sochlarimga nigoh solmay o‘t...

BIR SEN EMAS...

Bir sen emas, yo bir men emas,
Ishq mayini ichmoqni havas
Qilgan. Ichib o‘lgan sho‘x-u mast,
So‘ng taxiri chiqqach, degan “bas”.
Bir sen emas, yo bir men emas.
Suyumlidir qizlar baribir —
Tosh qalblarni yoqqan. Iydirgan
Garchand ko‘pni suygan, suydirgan
Kimlarnidir dog‘da kuydirgan —
Suyumlidir qizlar baribir,
Yigitda ham emas hamma ayb,
Sho‘x nigohlar tuzoq solgan dam,
Sirli baxtdan ko‘zda shavq-u nam,
Payti kelib, bu baxt bo‘lsa kam,
Yigitda ham emas hamma ayb.

Ishq haqida oh-voh qilma, bas,
Sevgan bir sen, yo bir men emas...

QALBINGGA CHORLAYSAN

Sen meni qalbingga chorlaysan,
Kelishib olaylik.
Ko‘p xushro‘y ko‘rinar qalbingdagi bog‘,
Unda umid yanglig‘ yonar bir chiroq.
Miltillagan chiroq nurlariga
Jim tikilaman, huzur qilaman.
Omonat bo‘lmasin, ishqilib, u chiroq,
Sinamoq uchunmi yoki hazillashib...
Yo titroq shu’ladan kelgandami g‘ashim,
O‘chirib qo‘ymayin tag‘in uni men,
Bog‘ing xushro‘y, ammo o‘chmasmi ko‘kligi,
Qog‘ozdan emasmi uning daraxtlari.
Nogohda quyunlar yoprilgan vaqtlari
To‘xtata bilmasmi yaproqlar sho‘xligin.
Bog‘ing xushro‘y, ammo bilasan, men unda
Avaylab-avaylab bosmasman qadam.
Saraton ko‘kini kuydirguvchi kunday
Men bog‘ingga kirib borgan dam,
Shamolim bo‘ladi o‘zimga yarasha,
Harorat, quyunim...
Qarichma-qarichlab u bog‘ni kezarman,
Shodumon, kuyunib.
Mehmondek kezmasdan,
Shoxlarni qayirib qoqarman,
Sochilgan olmalar meniki.
Mevaga, chiroqqa ishonch-la boqarman,
Entikib.
O‘shanda chirog‘ing o‘chsa gar,
Alhazar,
Bog‘ingni qilarman men ostin va ustin.
Unda men yig‘lamam, sen ko‘z yosh to‘kkin mo‘l,
Temirga, toshlarga to‘ladir,

Men bosib o‘tgan yo‘l.
Ko‘katlar unmaydir unda so‘ng,
Fig‘onlar tinmaydir unda so‘ng.
Sen meni qalbingga chorlaysan,
Kelishib olaylik.

1972-yil 20-fevral

ENDI U...

Bir o‘tda, bir o‘tda oh yondim.
Va lekin
Hissimni yashirmoq istayman,
Qadrimni oshirmoq istayman.
Qanday baxt, inondim, inondim.
U meni sevadi, oh, ortiq
Izlarim o‘pguday, o‘pguday.
Bir gunoh qilsam bas, men tortiq
Izimdan go‘dakday chopguday.
Chopdi u, kuyladi serjarang
Men loqayd ko‘rsatdim o‘zimni.
Asabi tortildi ko‘p tarang,
Goh yoshlar to‘ldirdi ko‘zini.
“Yigit ham yig‘larmi dunyoda”, —
To‘nimni teskari kiyardim...
Va g‘urur kundan kun ziyoda,
U bo‘lsa kuyardi, kuyardi.
Shu alpoz o‘tarkan kundan kun
U bir kun “bas” dedi bariga.
Endi men kuyarman, oh, dilxun,
U loqayd yuragim zoriga.
Qalqimas ko‘zida, hatto mung,
Bu qanday bedodlik ishqdan so‘ng!

Endi u...
Hissini yashirmoq istaydir,
Qadrini oshirmoq istaydir.

* * *

Qiyofang hamisha bahor yaratar,
O‘zingni ko‘rmasman, balki, bir umr.
Qiyofang ezgudir, oq nur taratar,
Yurak bo‘lganda ham dardlardan ko‘mir.

Tushlarim keltirar, surat, sasingni,
Yana keltirarlar ko‘nglim to‘lmagach.
Tushlarimdan qanday quvayin seni,
O‘ngimda ko‘rmoqqa umid bo‘lmagach...

G‘URUR

Qora sochlarimning to‘lqini,
To‘lg‘ongancha oqar quyiga.
Muhabbatning sirli yolqinin,
Olib kirgan yigit o‘yiga,
Balki, udir...
Ko‘zlarimda yonadi oftob,
Ko‘zlarimda saraton, iyul.
Bir sho‘x nigoh tashlaganim tob,
O‘zga dilda o‘stiraman gul,
Balki, udir...
Qo‘llarimdan goho ter, goho
Kelar emish ko‘klamning hidi,
Qo‘llarimga bermay hech baho
Ko‘zga surtib u o‘pgan edi,
Balki, udir...
O‘sma qo‘ygan qora qoshlarim,
Nim qizil, sho‘x lablarim bilan.
Javdirashim, goh dovdirashim,
Ko‘zda qalqqan yoshlarim bilan
Sevildim birdan.
Uning sochi, oh, uning sochi
Qora, g‘ayir, ham shunday qalin.
Yuragimda bahor gul ochib,
Tortinaman men ko‘z tikkani.
Qalin emish mening ham sochim,
Sochlarimga qo‘li tekkan choq,
Titroq bilan kuzataman jim
U qo‘llarga kirishin titroq...
Bilmay qoldim... qay baxtli kuni
G‘avg‘o soldim uning o‘yiga.
Qora sochlarimning to‘lqini,
To‘lg‘ongancha oqar quyiga...

BIZ OLMAMIZ

Biz olmamiz shoxlardagi, to‘kmasinlar, aytingiz.
Daryo bo‘lar ko‘z yoshimiz, cho‘kmasinlar, aytingiz.
G‘o‘rmiz hali aytingizki, g‘o‘r mevani uzmaylar,
Go‘dakning ham tonggi shirin uyqusini buzmaylar.
Aytingizki yana, bizlar endi qo‘shiq boshladik,
Eshitsinlar, axir, uni quloq berib odamdek.
Qo‘shig‘imiz tinayotgan u qalblarni etar rom,
Esga tushar oydin kecha, oq yuzli qiz, sarxush jom...
Chalg‘ingizni charxlab qo‘ying, bizning qo‘shiq charxlog‘liq·
Bundan so‘nggi hayotimiz o‘sha qo‘shiqqa bog‘liq.
Kuylamoqqa qo‘yib bering, kuylay olmasak jo‘shib,
Urib oling bizlarni ham o‘sha qo‘shiqqa qo‘shib.

Biz olmamiz shoxlardagi, to‘kmasinlar, aytingiz...

OQ OLMALAR PISHGANDA...

(Otam Ummatqul Xudoyberdiyevning yorqin xotirasiga bag‘ishlayman)

Otaginam!
Siz ketdingiz, qoldi ketmon-u paxta,
Paymonangiz shuncha erta to‘lishini bilmabman.
Kuz kelmasdan
Ildiziga bolta tekkan daraxtday
So‘lishini bilmabman.
Esimda bor, sochingizga ilk oq tola tushgan choq
Qayg‘uribman, otam erta qariyaptilar, chog‘i.
Nogoh, sizni yo‘qotdim men, oq, olmalar pishgan choq,
Dildan ketmagay dog‘i.
Oq olmalar pishgan kunlar, bosdi-ku qora g‘amlar,
Topolmadim men otamni — bog‘ aylanib, yosh to‘kib.
Har yilgiday tiklansa-da saf-saf pichan g‘aramlar,
Uni o‘zi tiklolmadi, ketgan bo‘lsa-da ekib.
Tashvishi ko‘p edi hali, pichan pishib dalada,
Shoxlardagi unga mustar oppoq olmalar qoldi.
Otaginam, oq olmani sevardiniz boladay,
Sizga olma terar qo‘lim bu kun termasdan toldi.
Oq soqolli bobolarni tavob qilardim-ku men,
Oqlik ko‘rib izida.
Sizga otam, mo‘ysafidlik umrin tilardim-ku, men,
Tilaklarim to‘zidi.
Bilardingiz uyalibmi, boqolmasdim sizga tik,
To‘yib qaramagandim.
Tirikchilik, kuningizga rizqi to‘kin farzanddek,
Hali yaramagandim.
“Ota meros” uyni qurib, to‘ng‘ich o‘g‘ilni uylab,
Uzatmoqchi edingiz-a endigina oyoqni.
Bugun kezar ekanman men tanho, olmazor bo‘ylab,

Ezilaman ko‘targancha armon degan zil tog‘ni.
Garchand umr so‘ngigacha insonga sermehnat yo‘l,
Bilmadingiz Siz dunyoda bormi uning adog‘i.
Ko‘z oldimdan o‘tayotir u chapdast, sertomir qo‘l
Va kaftlarning o‘chmas muhr, tanga-tanga qadog‘i.
Qoraygan saxiy tuproqning rangi aks etar unda,
Ming kishilik davralarda bo‘lsangiz ham topardim.
O‘sha qo‘lingizdan tanib topar edim, oh, shunda
Go‘dakligim sog‘inchi-yu zori bilan o‘pardim.
Samaningiz turar o‘sha qozig‘ida depsinib,
Akam minib, balki, bir kun sizday chavandoz bo‘lar.
Hayot qiziq, esar ekan so‘ngsiz yillar epkini,
Chavandozlar ketar ekan, chavandozlar tug‘ilar.
Ammo, toylar ot bo‘lguncha yuraklar lat bo‘lar, deb
Onam yo‘qlar yo‘qlovlarda, siz yodiga tushganda.
Yillar osha ukalarim takrorlab yurar mendek:
“Biz otamdan ayrilganmiz oq olmalar pishganda...”

QO‘MSASH...

Yo‘ldan yelib o‘tar uchqur ot,
Bir-bir kechar bolalik yoddan.
Men chavandoz qizini hayot
Juda erta ayirdi otdan.
Va otamdan erta ayirdi,
To‘ymadim mehriga na iloj.
Qayerdaki uloq, ot ko‘rdim,
Tikildim men go‘dak ko‘zim och.
Ko‘k qunduzin qoshga bostirib
Uloqchilar to‘dasiga goh,
Go‘yo otam kelardi kirib
Bir zumgina entikardim, oh,
O‘tlar sachrab tuyoqlaridan
Ko‘kni tutsa ot gijinglashi.
Bir dard sizib ko‘nglim qa’ridan
O‘z otimiz izlardim shoshib.
Yillar bo‘yi izladim, topdim
Va yo‘qotdim o‘sha zahoti.
O‘xshash kimsa ortidan chopdim
Ortga qaytdim o‘ylarga botib.
Tuyulardi bular misli tush,
O‘ngligini angladim keyin.
Ufqlar Siz bo‘lib chorlarmish,
Uchgim keldi goh xuddi quyun
Qo‘msashlardan o‘tlanar bag‘ir,
O‘tganlarning bilgani bilgan.
Men chavandoz qiziman, axir,
Ota, otdan erta ayrilgan...

OTAM, MENING MEHRIBON OTAM

Otam, mening mehribon otam,
Siz solguncha turmushni izga,
Qor yog‘di soch-soqolingizga,
Otam, mening mehribon otam.
Baquvvatsiz ipakday, lekin
Ipakdayin silliq, suluvmas.
Yuragimda toshar g‘ulu, bas,
Qanday bo‘ldi bu yilgi ekin?
Otam, mening mehribon otam.
Urug‘ birday chiqdimi unib,
Yetarlimi bu bahorgi nam.
Avvalgiday ko‘zingiz tinib,
Ketmaydimi tolganingiz dam.
Otam, mening mehribon otam.
Men o‘ylayman yetarlidir pul,
Tushsak bo‘lar kinoga birga.
Siz o‘ylaysiz “Yashamoq mushkul”...
Qo‘llaringiz iyakka tirgak.
Otam, mening mehribon otam.
Do‘stim bilan biz chiqib yo‘lga
Chamanlarni oshyon etamiz.
Siz ketmonni olasiz qo‘lga,
Dala tomon horg‘in ketasiz.
Otam, mening mehribon otam.
Serg‘alayon shaharda yurib,
Men o‘ylayman, bu dunyo bekam.
Qo‘lingizni ketmonsop urib
Siz olasiz birpasgina dam,
Otam, mening mehribon otam.
Uzzukunda kuylab, quvlashib,
Qaytarkanmiz sho‘x hislarga band.
Siz daladan qaytasiz shoshib,

Tirikchilik tashvishi bilan...
“Yemish kerak sigir, buzoqqa,
Bo‘rdoqi qo‘y yemi qolmabdi.
Bu ketishda bormas uzoqqa
Jonivorning tushadi zapti...”
Tirishadi yana peshona,
Yana ko‘zlar o‘ychan tortadi.
Dalda berib o‘sha payt onam,
Ko‘nglingizni sal yoritadi.
“O‘ylayvermay ko‘ngilni yozing,
Farzandimiz tezroq kelsaydi.
Qo‘lga tegsa uning qog‘ozi,
Murtimizni bolta kesmaydi”.
Siz o‘ylaysiz “Ha, tez oylarda
Og‘irimni qiladi yengil”.
Men o‘ylayman “Baxtim qaylarda,
Qayda mening suyukli tengim”.

....Kechiring meni!
Shu yengiltak o‘ylar uchun ham
Otam, mening mehribon otam.

PESHONA

"Yalpi to'yda o'tmaydi umr".
Zulfiya

Havo nam, tarqalib borarkan tuman,
Tonggi quyosh mehrin yerga to'kkan dam.
Ekinzor hokimi, qo'lingda ketmon,
Egat olmoqdasan, sen jonim otam.
Saxiy yer qat-qatin yumshatmoq uchun
Qo'pol, chayir qo'llar bermoqdadir ish.
Dastlab sho'rni yuvding, ha, ketdi ajin
Yerning manglayidan, bu oddiy yumush
Kunlik tirikchilik, sen uchun hech gap.
Mana, qaribsanki sochlaringda oq.
Sen uchun ham qarz-u ham farzday ajab
Ter to'kmoq, bu ko'hna yerni ishlamoq.
Qo'l, chehrang siyoqli shu yerga ega,
Sen ro'zg'or tebratding, beshovqin, sekin.
Bilmayman, necha bor olgansan egat
Va unda necha bor gullagan ekin?
Yashading shunday: goh shod, goh asabiy,
Ha, faqat quvonch-la o'tmaydi umr.
Otam, o'zing olgan egatlar kabi,
Bu kun manglayingda izlar chuqurdir.
Bo'rtib chiqqan chayir qo'ling tomiri,
Keksayyapsan, hamon to'ksang-da, tering.
Quyosh nurin, sening kuching simirib,
Yasharib bormoqda kundan kun yering.
Mana, o'ktam otam, urug' tashlaysan,
Kelgusi hosildan urug' nishona.
Baxtimiz, yer baxti uchun yashaysan,
Ekinzor qiyosin olgan peshona.

DEHQON OTAMSAN

Yurakda bir orzu, istak gurkirar,
Qarshimda yastangan dala, daladir.
Bu dam g'alati his xushnud, mast qilar,
Dilni sho'x tuyg'ular qamrab oladir.
Tanballik uyqusin qamchilab, haydab,
Atrofda bir devkor yurganga o'xshar.
Yuraklar ter bo'lib to'kilgan joyda,
Kuylamoq kerakdir, kuylamoq sho'x-sha'n.
Dehqon otam, sen shu kunga yetguncha,
Yengil yashamabsan, kuymabsan bekor.
Rizq-ro'zning oq tog'in hosil etguncha,
Qora sochlaringga yog'ibdi oq qor.
Uni kurab bo'lmas bahor, yoz chog'i,
Qaytarib ham olmas bergan u hotam.
Sening oq soching — u oq hosil tog'i,
Ko'p yarashgan, ammo zahmatkash otam!
Shodumon bo'lsang ham obdan tolibsan,
Yuzlaring oftobda chatnab, yorilib,
O'zing ham shu yerga o'xshab qolibsan,
Mehring yer mehriga ketmish qorilib.
Kuz kezar sendayin horigan, charchoq,
Senikiday yorqin kuz chehrasi ham.
Seni, kuz sha'nini kuylab xushchaqchaq
Tortiqlaringizni ko'ramiz baham.
Dunyoda yaxshi ko'p, bo'lsin salomat.
Sen esa, sen boshqa...
Bir vaqtda oddiy, ham buyuk odamsan.
Hamma ham nomiga yarasha, albat,
Har qalay, sen mening dehqon otamsan!
Dehqon otamsan...

DAG‘AL QO‘LLAR

Burushiq, qoraygan otamning qo‘li,
Kechmish bir umrni eslayman qarab.
Kaftda shart kesilgan tomirlar yo‘li.
Chandiq bo‘lib bitgan undagi yara.
Shu ozg‘in, ko‘rimsiz, uzun barmoqlar,
Onam sochlarini silagan bir vaqt.
Beo‘xshov titragan uchrashgan choqlar,
Dovdiragan boshga qo‘nganida baxt.
Shu qo‘llar qo‘sh haydab, bug‘doy urug‘in,
“Yaxshilik urug‘i” deb yerga ekkan.
Bu ko‘hna olamga qilich dovrug‘in,
Taratgan ham o‘sha barmoqlar ekan.
Umrida bilmayin nimadir qo‘lqop,
Qahraton ayozlar achchig‘in yutgan.
Elni qiyratganda ochlig-u azob,
Burda nonni bo‘lib, do‘stiga tutgan.
Ba’zan pachaqlangan duch kelib o‘qqa,
Undan oqqan qondan qizargan yo‘llar.
Yovuz raqibini bo‘g‘zidan bo‘g‘gan,
Chayir sirtmoq bo‘lgan ba’zan bu qo‘llar.
Ulardan qon hamda non hidi kelar,
Har qalay, yoqimli ular biz uchun.
Biz uchun zulmatning bag‘rin tilkalab,
Bu g‘adir barmoqlar to‘kdi qon, kuchin.
O‘tga, suvga soldi ularni hayot,
Qo‘llar har mushkulni qila oldi hal.
Ammo...
Ojiz titroq turdi ularda, hayhot,
Onalar tobutin ko‘targan mahal.
Do‘stlarim, qolmaylik armon dog‘ida,
U qo‘llarga hali ko‘magimiz oz.
Yelkamizda turgan tayanch tog‘iday,
Shu dag‘al qo‘llarga qo‘yaylik ixlos.

OQARIB BORMOQDA, ONAM, SOCHLARING...

Oqarib ketibdi, onam, sochlaring
Aytgil, nelar uchun o‘rtading bag‘ir.
Men chiroq bo‘ldim-u, shu’la sochmadim,
Yoningda bo‘lmadim onajon, axir.
Senga chala-chulpa yozganim xatda,
Tubsiz tashvishlarim bo‘ladi to‘liq.
Qizlarning ko‘plari shu xil, odatda,
Neni bo‘rttirarlar, neni qilar yo‘q.
“Dars qiyin, kitobdan ko‘tarmaymiz bosh”,
Xatlarning mazmuni deyarli shunday.
Bu so‘zlarni eslab, tortmaymiz ham g‘ash,
O‘yin-kulgi bilan o‘tgan kun-tunda.
Senga xat yozaman, onajon, tayin:
“Bugun tongga qadar dars qilaman, dars...”
Kechda... bazm shavqidan kechmoqlik qiyin,
Devorlar shovqindan ketib tursa darz.
Xatimni olarkan o‘qib har bora
Deysan: “Bo‘lgandirov uning holi tang,
Qiynalib ketdi-yey, bolam bechora.
Sarg‘ayib, rangida qolmagandir rang”.
Keyin sen ham menga yo‘llaysan maktub.
Paxta baravjligin yozasan avval.
So‘ng “bog‘ hosili ham yildagidan ko‘p”,
Erinmasdan bir-bir sanaysan tugal. —
Pillaga mukofot katta bo‘ldi, — deb
Entikib yozasan, onajon menga.
Ammo uni olding sen qanday qilib,
Bu haqda bir og‘iz jumla yo‘q nega?
Mening ko‘z o‘ngimdan ketmaydi nari
Azobin sezdirmay qilsang ham udda.

Uyqu kuch ko‘rsatib, yarim tunlari
Qalqib ketganlaring so‘ri ustida.
Onam, ey, tabarruk asl mehnati!
Olqishim sengadir, seni quchsin shon.
Borlig‘ing dunyoga armug‘on etib,
Sen ketib borasan qiynagancha jon.
“Tolib qolgandirsan...” — kuyinib, koyib,
Xat yozsam, javobdir shu ikki so‘zing.
“Sof bo‘lsang saqlayman degan Xudoyim,
Qizginam bu omad, omadning o‘zi?”
Sendan yiroqlarda eslayman to‘lib,
Yuragim achishib, bularning barin.
Men uchun ham faxr, ham armon bo‘lib,
Oqarib bormoqda, onam, sochlaring...

* * *

Qizg‘ish yonar ufqning kunguralari,
Qizg‘ish nur ostida olcha gullaydi.
Gulin ko‘zga surtib ketarkan nari,
Onam hosil uchun omad tilaydi.
Men ham bu dam xushbaxt, zavq mayidan mast,
Onam, olcha gulin o‘paman bir-bir.
Ular menga mangu berilgan emas,
Onam ham, olcha ham g‘animat, axir.
Umr ovchisi bir kun o‘q otar loqayd,
Mening ohimga u quloq solmaydi.
Balki, o‘rta yashar bo‘larman u payt
Va balki, og‘zimda tishim qolmaydi.
Bilmayman u qachon, ammo ushbu dam
Meni ko‘kka otar quvonch qo‘llari.
Jondan ortiq menga bu ko‘hna olam,
Oq soch onam, qizg‘ish olcha gullari.

TUSHIMGA KIRIBSAN

Onajon...
Biyron qizcha edim, senga sal o‘xshash,
U vaqtlari tutqich bermasdim senga.
Tengdosh o‘rtoqlarim o‘ylardim yakkash,
Ular kirar edi har vaqt tushimga.
G‘ashimga tegishib, qilib meni xun,
Qo‘shni bolalari sochim tortardi.
Kelar edim loyga botib kechqurun,
Unda har kun senga tashvish ortardi.
Ulg‘aydim, bir qarich sochim bir quloch,
Ko‘zlarim goh suzuk, goho yoshlandi.
Kimlardir tikildi nigohlari och,
Nigohdan tortinish menda boshlandi.
Ta’sir qilmas edi hushyor bo‘l, farq qil
Odamlarni, deb sen qilgan o‘gitlar.
Shovqin, bazmlarga oshiqardi dil,
Tushimga kirardi sho‘xchan yigitlar.
Yillar o‘tdi, kimdir qaddimni bukib,
Hassa tayantirib, belim toldirdi.
Qunduz qoshlarimni rashk bilan to‘kib,
O‘rnida sanoqli tuklar qoldirdi.
Endi...
Endi seni o‘ylayman beun,
Qo‘msab huzuringga chopayotirman.
Onam, sen kiribsan tushimga bu kun,
Tushimda oyog‘ing o‘payotirman.

* * *

Kimdir o‘rmak to‘qir...
Onam o‘rmak to‘qir, betin erta-kech
Qishloq ayollarin udumin qilib.
U ba’zan shiddatli solganda qilich,
Nimjon iplar ketar chirt-chirt uzilib.
Hayot — xuddi o‘rmak, iplar esa — biz,
O‘rmakni to‘qiydi kimdir betinim.
Pishiq yigirilgan bo‘lsak-ku durust,
Xom ipday uzilsak bu og‘ir, inim.

HOVLILAR

Hovlilar atrofiga urmangiz devor,
Ochiq qo‘ying eshik, derazalarni.
Ko‘zlarimiz ko‘rib tursin, atrofda ne bor,
Ko‘rmoq uchun yaratgan, axir, ularni.
Devor urmang, toki o‘z hovlimdan turib,
Sizning hovlingizni ko‘ra olay men,
Xohlagan paytimda kira olay men.
Qo‘ymangiz temirdan darvoza qurib,
Qindan chiqmay qolgan o‘tkir pichoqday,
Uydan chiqmay qolsak zang bosar bizni
Va do‘st-u oshnosiz qolib u choqda,
Suyamiz, yolg‘iz uy va o‘zimizni.
Yo‘q, yo‘q, qaynoq yurak toshar, intilar
Qaygadir, mayli kim ne desa desin.
Qayg‘usin, quvonchin bo‘lishgim kelar,
O‘zimning, sizning, ham uning hovlisin.
Hovlilar! Quyosh nurlariga yo‘g‘rilgan.
O‘choqlarda yongan olov azizmas kimga?
Istaymanki, uyingizda tongda tug‘ilgan
Chaqaloq yig‘isi kelsin mening hovlimga.
Shunda menga tug‘ildi deb singil yo og‘a
Nechuk sizdek xushbaxt bo‘lib suyunmayman men.
Vatan o‘zi bir-ku, axir, shunday bo‘lgach nega
Sizning kulfat, g‘amingizdan kuyinmayman men?!
Onangiz ko‘z yumganida farzandday kuydim,
Siz qabrga qo‘ydingiz singlim jasadin.
Shu chayir, zahmatkash qo‘llarni suydim —
Nahotki, shu qo‘llar devor yasadi?!
Istaysizmi, ne kunlarni ko‘rmas odamzod?
Kun kelib hovlimda bo‘lsa aza, g‘am.
Dilxushlik bazmini siz qilib kushod —
Baxtli yashamoqni o‘sha damlar ham.

Hovlingizda yotsa kimdir jon talashib,
Siz uning og‘ziga suv tomizgan damlar,
Men kuylay beraymi o‘z uyimda qo‘shiq?
Oqibat, oqibat shumi, ey odamlar!
Hovlilar to‘silmasin chetan devor bilan,
Quyosh chiqar yoqqa oching eshik, derazalarni.
Inson — axir, bu qo‘shiqning pardalari baland —
Devorlar ajratmasin ularni!

1970-yil 10-avgust

YURAGIMDA BARGLAR SHIVIRI

O‘z dunyom ichida bog‘larni yaratdim,
So‘lib bitdilar.
Tafakkur kuchidan tog‘larni yaratdim,
Nurab ketdilar.
Bog‘larim o‘rnida xazonlar supurdim,
Barg, xazon.
Tog‘larim o‘rnida tepalar, jim turdim,
Dilda qon.
Kuydim men, ammo kul bo‘lmadim, qaytalab
Tuproqqa to‘kdim men, manglay ter, dil qonim.
Maysa, ko‘k maysalar undi zap,
O, jonim!
Qiynading deysanmi, to‘g‘ri-ku,
O‘ylasang menda ham gunoh yo‘q,
Shu kichik yuragim bo‘lsa quv,
Yashasak beg‘alva, ko‘ngil to‘q.
Begona, tashvish-u jabrga,
Uyquda o‘tsa ham umr bir kun
Ketmoq shart, so‘nggi uy — qabrga.
Shunday, ha, mahkam bo‘l, sen jonim.
Yelkaga
Hali ko‘p yuklarni yuklarmiz,
Ko‘p xazon bog‘larni tiklarmiz,
Ko‘tara olmasmiz yukni goh
Va yoki tuyg‘umda qular tog‘.
Shunda yana yangidan
Tafakkurda tog‘lar yaratishimiz,
So‘lgan bog‘lar o‘rnida, yashil-yashil
Daraxtlari shovullab turgan bog‘lar
Yaratishimiz kerak,
O, mening qattiq jonim!

Ishonamanki,
Sen chidab berasan bu talablarga jim.
Yuragimda barglar shivirlayotganga o‘xshaydi,
Demak,
Yaratilajak bezavol bog‘larimning
Ilk nihollari Kurtak yozayapti,
Bog‘lar gurkirab qad ko‘tarayapti yuragimda,
Barglari yashil-yashil bog‘lar...

1967-yil 3-oktabr

QOR UCHQUNLAYAPTI

Garchand qish, qahraton, ayoz sanchar tig‘,
Qalinlashib borar o‘ngirlarda qor.
Qish nafasi sovuq, ranglari tiniq.
Tiniq ranglar dildan tarqatar g‘ubor.
Yalang‘och bo‘lsa ham daraxtlar bugun,
Kuz yashil libosin olsa ham yechib,
Ertangi kunini kutarlar mamnun,
Ertangi kun bahor, yashil to‘n bichib
Ularni siylaydir...
Hozircha qor yog‘ar, yer oqarmoqda,
Beun qo‘nar yerga qor uchqunlari.
Dilim toshqin hisga to‘lib bormoqda,
Eshitayotirman qor shovqinlarin.
Oq qor uchqunlarin ostida bu dam,
Chavandoz chollarga uloqdir talash.
Go‘dakning oq dilin ko‘ryapman unda,
Ko‘ryapman kulgusin, yig‘i aralash.
Ming yillar oldin ham yog‘gandir bu qor.
Xuddi bugungiday sevganlar uni.
Unda ming yillarning shavq, suroni bor,
Ming yillarning o‘rtar azobi, xupp.
Shundanmi,
Suyukli bo‘lganday, ba’zan xunuk qiz,
Sovuq qahrila-da tortar bizni qor.
U beovoz kuylar, biz-chi tinglaymiz,
Unda ming yillarning zavq-hasrati bor.
Qor uchqunlayapti, yer oqarmoqda,
Do‘stim, qara, bu dam qanday dilbar, sha’n.
Dilim toshqin hisga to‘lib bormoqda,
Men seni qor bilan qutlasam deyman!
Qor uchqunlayapti!

MUQADDAS AYOL

Oshiqlaring poyingga gul otib ham bo‘ldi,
Xilvatlarda labingdan bol totib ham bo‘ldi,
Va bu haqda kimlargadir sotib ham bo‘ldi,
Sen baribir muqaddassan,
Muqaddas ayol!

— “Avval: “Kel-ey, quchog‘imga to‘l, balq”, dedilar,
Unamading, ayol o‘zi ters “xalq”, dedilar.
Icholmagach yuz o‘girib sho‘r, talx, dedilar,
Sen baribir muqaddassan,
Muqaddas Ayol!

Sen daryosan, o‘pganini qirg‘oq yashirar,
Juftim bo‘l, — deb chopganini har toq yashirar,
Jannatim, — deb quvonmasdan qumloq yashirar,
Sen baribir muqaddassan,
Muqaddas Ayol!

Asli bu bor ermaklarning borar yeri Sen,
Rost-u yolg‘on ertaklarning borar yeri Sen,
Asov otday erkaklarning borar yeri Sen,
Sen baribir muqaddassan,
Muqaddas Ayol!

Chorlashganda sen kelsang, goh bekor kelsang-da,
Mast davraga bir sarin yel, bir tor kelsang-da,
Xor kelsang-da, nomardlarga goh xor kelsang-da,
Sen baribir muqaddassan,
Muqaddas Ayol!

Qimtinasan, astagina ko‘tarasan bosh,
Ming yillikdir ko‘zingdagi jovdiragan yosh,

Gunohkorlar ming-u bitta Senga tegar tosh,
Sen baribir muqaddassan,
Muqaddas Ayol!

Harir, xushbo‘y badaningda toshlar izi bor,
Ko‘kragingda egilgan ne boshlar izi bor,
Quyosh izi, kuydirgan quyoshlar izi bor,
Sen baribir muqaddassan,
Muqaddas Ayol!

1986-yil 28-sentabr

KO‘ZLARIMGA

Yulduzlarim, jonsarak qushlar.
Yulduzlarim, alangali o‘t.
O‘tlantirar seni ishq, tushlar,
Tundlantirar serzarda bulut.
Ehhe, hali ko‘rgiliging ko‘p.
Yarim yo‘lda tortmagil xira.
Umr osmonim ko‘kida to‘lib,
Chaqnashingni istayman biram.
Derlar: “Ana, mening yulduzim”...
Ko‘pdir chaqnoq yulduz egasi.
Hurkib uchma, marjonlar tizib,
Har kimga ham u bo‘lmas nasib.
Yulduzlarim — qushlar begunoh,
Yulduzlarim, chaqna, beomon.
Firoqingda chekib shirin oh,
Firoqingda kuysin olomon.

YIGIT QADAM TASHLARKAN

Yigitlarni kuylamoqlik erish tuyular, chog‘i,
Dilbar, nafis she’rga o‘zi qovushmaydi yigitlar.
Gulga kira boshlar ekan ularning ko‘ngil bog‘i,
Quyoshda chatnab o‘sadir unda yovvoyi o‘tlar.
Dasht guliday o‘sar ular har yonga shox tashlashib,
Baquvvat har shoxlarki, qayirib, burib bo‘lmas.
Qiyqirishib bog‘larga kirishsami boshlashib,
Qah-qah sadolaridan cho‘chimay yurib bo‘lmas.
Inson panjasimi u yoki sher panjalari,
Qo‘llar bir xil mayin-ku, tug‘ilganda, yo‘rgakda.
Payt kelib, biz titratib, shu sherning panjalarin,
Go‘dakday quvonamiz, qush uchirgay go‘dakday.
Yuraklar, u yurakmas, dugonajon, asrangin,
Uchqun tushsa kuydirar, unda yongan o‘tlardan,
Garchand biz deb hamisha baxt, borlig‘in asradi,
Hayiqmay bo‘lmas, axir, ul asov burgutlardan.
Tortinib o‘tmoq taqdir, bizga ular dastidan —
Ma’sum tortib, atirgulday, chiroy ochib dam-badam.
Toki olis yulduzlarning chaqnoq nuri ostida,
Odam ota zurriyodi — yigit tashlarkan qadam.

1972-yil 14-yanvar

* * *

O‘n to‘rt yoshli qizcha o‘sma qo‘yayotir,
Eplay olmayotir oqizib har yon.
Qizcha, hafsala qil, bir damgina o‘ltir,
Buncha tipirchilab, qiynamasang jon,
Xayolin band etar, o‘rtoqlari, o‘yin.
Qizcha unutadi, hatto o‘smani.
Uni qo‘yar edim, oh, o‘rniga qo‘yib,
O‘n to‘rt yoshli paytim qaytsaydi, qani?
Sevilgan qiz maktub yozayapti ana,
Bunchalar shoshilinch, buncha pala-partish,
Uning dumbulligin qilmayman-u, ta’na,
Bo‘lmasaydi bu hol men uchun bir tush.
Ko‘z yoshimdan siyoh qilar edim quyuq.
Kiprik bilan yozib bitkazar edim.
Va bu o‘t maktubni ul ko‘zlari qiyiq
Yigitga pinhona yetkazar edim.
Oy jarangsiz qo‘shiq aytayotgan palla,
Ayol alla aytar, bir alla, jarangsiz.
Belanchakda, oppoq, bir quchoqlik bola,
To‘xtangiz, allangiz bunchayam rangsiz.
Unda dunyoning oq qo‘shiqlari yo‘qday,
Anqimayotganday oq sutning hidi.
Ham mast-u ham ma’yus kuylamayotir nay,
O‘rningizga meni qo‘ysangiz edi!
Bir alla aytardim, samo charaqlardi,
Yulduz uyqusiga tushardi o‘g‘ri.
Shunda men bolamga dunyoning bor dardin
Kuylardim alla-yu sutga yo‘g‘irib.
Allamda bolamning murti sabza urib,
Otasiga o‘xshab voyaga yetardi.
Voyaga yetardi,

Bir kun u men bilan xayrlashmay turib
Safarga ketardi.
Men alla aytardim...
Oh urib kuylardim, oh, o‘g‘limning, yo‘li...
Changal, toshloq edi, oyoqqa botardi.
Oyoqqa botardi. Oh urib kuylardim,
O‘g‘lim esa o‘g‘lim...
Ul belanchagida bir quchoqlik bo‘lib
Uxlab yotardi...

OPPOQQINA CHAQALOQNI

Opoqqina chaqaloq, hey, suymoq istayman,
Seni qiynab, otib-otib osmonlarga.
Yashash ishqin yuragingga quymoq istayman,
O‘rgangin sen biz yashagan bo‘stonlarga.
Sahrolarning quyunidan cho‘chib yurmagin,
Quyunlarga quyun bo‘lib keltirolgil shak.
Ko‘chmanchiday qo‘nim bilmay ko‘chib yurmagin,
Bir dalada ko‘kargin sen bizlarga o‘xshab.
Olmalarni yuvib, archib, so‘nggina yemoq
Yoqmas menga, garchand bu ish aqlli, ma’qul.
Shoxdan o‘z qo‘ling-la uzib, kars-kurs chaynamoq,
Kars-kurs qilib chaynamoqdan lazzatlana bil.
Qara, yum-yumaloq kichkina Yer sharin tabiat
Daraxt shoxida yaratgan, sehr berkitib.
Olma qizillanar, qon ham qiziyotgan payt,
Uni qizartmoqda bobo quyoshning o‘ti.
Bir chanqoqlik ortib borar taningda saning,
Bu hayotning qadahini kim to‘ldiribdi,
Nimadir bu, suvmi yoki quyosh ichganing?!
Qara, daryoda bir oq gul yonib turibdi.
Imlashini qo‘ymas u gul seni toldirib,
Yetdim desang yana chorlab suzar yiroqqa.
Betinchgina olam sari boryapsan kirib,
Sen ham kimnidir tinchini o‘g‘irlamoqqa...

Oppoqqina chaqaloqni suymoq istayman,
Qiynab-qiynab, otib-otib osmonlarga...

AYOLGA BOSH URISH

Qadim hayot yo‘llarida
Ko‘pdir zoti — ayol, bas.
To‘marisning qo‘llaridan
Tug‘ olmagan ayolmas.

Ruhim, yulduz, ko‘kka bog‘lan,
Yulduz — faqat xayolmas.
Ulug‘bekday bitta o‘g‘lon
Tug‘olmagan ayolmas.

Ko‘pni ko‘rgan bu Yer yuzi,
Qumga singgan sado, sas,
Jaloliddin tug‘may o‘zi,
Mard ko‘ringan ayolmas.

Navoiysiz-ku jahon yo‘q,
Bor hayrat-ku o‘shanga.
Onasidan bir nishon yo‘q,
Tiz cho‘king yo‘q nishonga.

Fidolikka kimdir qodir,
Ko‘kdami yo go‘rdagi?
Barcha tirik, o‘lik botir
Bo‘lsa uning go‘dagi!

“Daho”lamay tek turing, Siz
Qolmang ranj-u uvolga.
Yo‘q, ayolga bosh uring, Siz,
Daho tug‘gan ayolga.

1988-yil 12-iyul

HURLIK O‘TI

Elim, Seni mute ko‘rsam,
Ko‘zdan qolay, ko‘zim kuysin.
Dema, unda ne deyursan,
So‘zdan qolay, so‘zim kuysin.

To‘timasman bir biyron til,
Dil bo‘lmasa or, imon — dil.
Til bo‘lmasa dard-u qon til,
Tilim degan sezim kuysin.

Har toleda bir shohlik bor,
O‘lmay yetsam, el baxtga yor,
Qolaversa, el zor, nochor,
Manim shohlik kezim kuysin.

Qay payt motamsaro ko‘rdim,
Ig‘vo, fitna aro ko‘rdim.
G‘amdan yuzin qaro ko‘rdim,
Manim shoir yuzim kuysin.

O‘, ko‘p sirlar bo‘lar-ku fosh,
Ko‘rarmanmi, yetib bardosh.
Ketsam, qolsa el egik bosh,
Tutab go‘rim, izim kuysin.

O‘, chin hurlik baxti katta,
Yetajakmiz biz, albatta,
Men yetmay o‘tsam, u o‘tda
Manim o‘g‘lim-qizim kuysin.

Elim, Seni mute ko‘rsam,
Ko‘zdan qolay, ko‘zim kuysin...

1988-yil 8-yanvar

KETISH HAQIDA

Ayni vaqtimidi, men kelganim chog‘
Kim qo‘yib ketgan bu mening toshimni.
Bugun sochlarimga oralagan oq
Ertaga egallab olar boshimni.

Ertaga bu eski loshim bilan men
Omochni qiynalib surgandan ko‘ra,
Va qor bosgan oppoq boshim bilan men
Yo‘llarda toyinib yurgandan ko‘ra,

Ertaga bir tengdosh topmay, alanglab
Injiq, u yon-bu yon “ko‘chir”lamasdan,
Bugun olqishlagan yosh-u yalanglar
Ertaga ortimdan pichirlamasdan,

Zanglamasdan turib kumushim, zarim,
Uni zarda bilan otmasdan turib,
Sodiq shogirdlarim, bugungilarim
Erta birortasi sotmasdan turib,

Ko‘rib keksalikning gurzilarini
Tonggacha uyqusiz, to‘lg‘onib chiqmay,
Bo‘shatib har qanday kursilarini
O‘z vaqtida ketmoq, ketmoq — kechikmay!

Vaqting kelgunicha, mayli, doning ter,
Gullar bilan to‘ldir umring qatini,
Xudoyim, borsan-ku, har kimsaga ber
O‘z vaqtida ketmoq farosatini.

1990-yil 26-mart

“ESKI O‘ZBEK TILI”GA

Mening tig‘ tilgan tilim,
Mening kesilgan tilim,
Bahaybat to‘g‘on tushib,
Yo‘li to‘silgan tilim.

Qushning unut patiday
To‘kilgan unut jonim,
Kitoblarning qatida
Rangi-ro‘yi somonim.

“Eski o‘zbek tili”mas,
Dedilar eskirgan til,
Qo‘rqib chiqarmoqqa sas,
Sandiqlarga kirgan til.

Senda bodom isi bor,
Senda bobom isi bor,
Bolam na rus, na o‘zbek,
Arosat belgisi bor.

Besh yuz yillar avvalgi
Xatni men anglayman, bas,
Men bugun aytganimni
Bolam ba’zan tushunmas.

Ko‘kragimda dod qotgan,
Yaqinlashar katta xavf,
O‘z tilini yo‘qotgan
Xalq bo‘lmasmi yerdan daf.

Oldga, safarbarlikka
Qanday yaraydi bolam,

Ortidagi jarlikka
Qanday qaraydi bolam.

Uni kim qilib qo‘ydim,
Kim bo‘ldi og‘am-inim,
Tomir-tomirim kuydi,
Sindi bo‘g‘in-bo‘g‘inim.

Guli unut xalq bo‘ldik,
Yo‘li unut xalq bo‘ldik,
Ommaviy gunglik sodir,
Tili unut xalq bo‘ldik.

Umrimning shom, kechiga
Shu o‘y sanchilib turib,
“Lug‘atit-turk” ichiga
Yoshim tomchilab turib,
Dedim: — Tig‘ tilgan tilim,
Mening kesilgan tilim.

1989-yil 14-fevral

BOR ARMONIM

O‘, dunyo-ya, o‘zbekning ne sor bolasi,
Ko‘kragida yonar o‘ti bor bolasi,
Shu o‘t sabab avval-oxir xor bolasi,
Magadanning tuprog‘ida uxlab yotar.

Odamizod bir-birini o‘nglasinlar,
O‘nglamasa, o‘zlari ham o‘ngmasinlar.
O‘zga yerda rizq tergani mayli-ku-ya,
O‘zgalarning tuprog‘iga ko‘mmasinlar.

O‘z eliga sig‘magan quvg‘in bolalar,
Qasosi bo‘g‘zida ketgan xun bolalar,
Yolg‘onlarga yemish bo‘lgan chin bolalar
Magadanning tuprog‘ida ildiz otar.

Mushkul ko‘rib ketmog‘in bu el dog‘ini,
Sanchiq olar ko‘kragimning chaprog‘ini,
Boz o‘ylayman, otilajak bu vulqonlar
Qo‘pormasmi Magadanning tuprog‘ini.

Yo‘qlov kelar, tomoqlarim qurib ketar,
Yuraklarim otilguday urib ketar.
Yo‘qlamayman... gar yo‘qlasam, yigit o‘lgan
U bolalar joy-joyidan turib ketar.

Uylanmagan, sho‘x bolalar turib ketar,
Ko‘kragida o‘q, bolalar turib ketar,
Ishongan do‘st, akalari tutib bergan
Bir panohi yo‘q bolalar turib ketar!

Quti qochgan, o‘ri, qiri yolg‘iz elim,
Ojizi-yu bahodiri yolg‘iz elim,

Har birida o‘zining jon talvasasi,
O‘zicha bek, lek har biri yolg‘iz elim.

Kuymaymanmi, o‘ngmaganing ko‘rib o‘lsam,
Bir-biringni bir-biringdan qo‘rib o‘lsam,
O‘tarkanman bu dunyodan, bor armonim —
Bir-biringni o‘nglaganing ko‘rib o‘lsam.

1987-yil 27-may

DARDIM BILAN O‘SADILAR

BIR KUNI...

Sen aytganda faqat baxtdan aytarsan,
Nasiyamas, faqat naqddan aytarsan,
Tanazzulsiz toj-u taxtdan aytarsan,
Men komil bo‘lmadim, kamimdan aytdim.

Balki, senga bedaxldir qish qori,
Ordir menga o‘zbekning nomus, ori,
Cho‘kib borar minglab go‘dak mozori,
Men dod dedim, men alamimdan aytdim.

Cho‘pday ozg‘in oyoqlari chalishib,
Ko‘tarolmay tuproq to‘la kalishin,
Bu “damqisma” ayol nafas olishin,
Ko‘rib nafas qisar damimdan aytdim.

Hamon tonglar umid-la uyg‘onar u,
Sabr tagi — oltin deb inonar u,
Shunday desam, oh, noxosda yonar u,
To‘kila boshlagan jomimdan aytdim.

Ranglari sarg‘ayib gullar yig‘ladi,
Chalkashib, bosh qashib yo‘llar yig‘ladi,
Ko‘rar kunlari mushkullar yig‘ladi,
Quyuq tortib kelar shomimdan aytdim.

Boshga tegib boshin egdi shoh so‘zim,
Toshga tegib yoshin to‘kdi, oh so‘zim!
Neki aytdim javobgari bir o‘zim,
Halima, deb miskin nomimdan aytdim.

Ossa, meni osadilar bir kuni,
Dardim bilan o‘sadilar bir kuni,
Elin komil ko‘rmay o‘tgan g‘arib, — deb
Manim nomim yozadilar bir kuni.

Sen aytganda faqat baxtdan aytarsan...

1988-yil 14-avgust

OMON BO‘LING

Bu dunyoning bori yo‘ldir,
Bu yo‘llarda tuzoq mo‘ldir,
Yo‘l boshida so‘zim shuldir,
Omon bo‘ling, omon bo‘ling.

Ko‘zingizga tortsa ham mil,
Ko‘pringingiz bo‘lsa ham qil,
Nomard bilan topishmang til,
Sarson bo‘ling, sarson bo‘ling.

Nopok ketsa yerdagi jang,
Mayli, bo‘lsin holingiz tang,
Hech bozorgir bo‘la ko‘rmang,
Arzon bo‘ling, arzon bo‘ling.

Har darzni tez yopmoq uchun,
To‘rt yon ildam chopmoq uchun,
Har shohga yo‘l topmoq uchun,
Beyuz bo‘ling, bejon bo‘ling.

Har bir ovga qosh-ko‘z bo‘lib,
G‘olib yovga Siz o‘z bo‘lib,
Tana bo‘lsa, Siz po‘st bo‘lib,
Faqat yenggan tomon bo‘ling.

Menam odam, emas Xizr,
Har kim o‘z bilganin tuzur,
She’rim tegib ketsa, uzr,
Omon bo‘ling, omon bo‘ling.

1988-yil 26-may

BOLALARIM, QADNI KO‘TARING!

O‘tgan qora kunlardan hali-hanuz karaxtman,
Har yaprog‘i yurakday titrab turgan daraxtman.
Shu holda ham oldinga tashlanguchi tik shaxdman,
Bolalarim, qadni ko‘taring!

Tekinxo‘r ataldingiz, bu xo‘rlik meni yedi,
Mushtumzo‘r ataldingiz, bu zo‘rlik meni yedi.
Bu karlik meni yedi, bu ko‘rlik meni yedi,
Boshimdan tuhmatni ko‘taring!

Tushlarimda To‘maris yuraklari uzilib,
“Tuyoqlarim to‘zdi” deb yig‘layverar ezilib,
So‘ng tonggacha uyqu yo‘q. Chap ko‘krakni tig‘ tilib,
Ko‘ksimdan bu dodni ko‘taring!

Bobo Temur uyquda, Temurlarim, Siz turib,
Qo‘zg‘olgan yetmish ikki tomirlarim, Siz turib,
Ishongan xoqonlarim, amirlarim, Siz turib,
Xokisor millatni ko‘taring!

Qalbga eking. Qadim turk chinorlari tiklansin,
Qon-qardoshning chin do‘st-u chin yorlari tiklansin.
Har yurakda bir Turon minorlari tiklansin,
Ulug‘ mamlakatni ko‘taring!

1990-yil 12-sentabr

KAROMAT

(Harbiy xizmatga uydan o‘ynab-kulib chiqib ketgan xalqimiz farzandlarining “Yuk-200” tamg‘asi ostida, tobutlarda uylariga qaytgan fojiali kunlarda yozilgan)

Ko‘nglimda ko‘nglimning ming sinig‘i bor,
Ko‘nglimda g‘amlarning o‘tkir tig‘i bor.
Yig‘i bor, oldinda katta yig‘i bor,
Elning bolalari o‘lmas bekorga!

Obdon yuvgan bilan yuvilarmi qon,
Qotilidan qochib yo‘lga chiqqan jon.
Tobutlarda sarson... armon-a, armon...
Bu bolalar qoni yozilmas qorga.

Bu kun tinch dengizday tursang-da tek, jim
Qa’ringdan o‘kirik kelmoqda, xalqim.
Ertaga bu jonsiz bolalar qalqib,
Jonli vijdonlarni tortajak dorga!

1990-yil 6-may

JILG‘ACHA

Bu jilg‘acha yaxshi kunim meni o‘ragan,
O‘rab, chopib oyoqchasi qabargan jilg‘a.
Ahvolimni hol-jonimga qo‘ymay so‘ragan,
So‘rayverib bezor qilib yuborgan jilg‘a.

Yomon kunim... yasharkanman ko‘zga chang urib,
Jilg‘acha yo‘q... dardim ichga yutib boraman.
Bugun boshqa yoqqa oqar u dimoq burib,
Menam unga yetti yotdek o‘tib boraman...

Bu jilg‘acha...

1995-yil 6-dekabr

HAR KUN XABAR...

Har kun xabar,
bir sovuq,
Dilim, poram
yig‘laydi.
O‘q ustiga tegar o‘q,
Yangi yaram yig‘laydi.
To‘p-to‘p qushlarim
qurbon,
Kuchim ko‘zimga yetar.
Qo‘lim kalta.
Qo‘lda yo‘q,
Shaxd-u choram yig‘laydi.
Misli yarador
sherman,
Yuzlab o‘qdan o‘lmagan.
Chiqmog‘imga yo‘l
bermay
Qafas-qo‘ram
yig‘laydi.
Azoblarimdan ne naf,
Saqlolmadim bir
qushni.
O‘lolmagan imonim
O‘ram-o‘ram
yig‘laydi.

1990-yil 9-may

UNUTGANNING KUYSIN IKKI DUNYOSI

("O'sh — O'zgan faryodi" daftaridan)

Andijon shahar klinikasida yotgan 16 yashar Akbarali bunday deydi: "Oilamiz, "Qurshob" sovxoziga qarashli dalalarda piyoz ekardi. To'rt xo'jalikda o'n sakkiz kishi edik. O'sha 5-iyun kuni biz to'qayga berkindik. Yarim kechada yashiringan joyimizdan chiqib yo'lga tushdik. Soy bo'yiga chiqqanimizda bizni bosqinchilar ushlab olishdi. Onamning qo'lida ikki yarim yashar ukam bor edi. O'sha ukamni onamning bag'ridan uzishib soyga otib yuborishdi. Onamni ham suvga oqizishdi. Ularning orqasidan otam, akam, o'zlarini suvga otishdi. Suvdan chiqib qochgandik, ular bizni otishdi. Oyoqlarimga o'q tegib yiqildim... Onam bilan singlimning haligacha daragi yo'q..."

Gazetadan

Balo tog'-u qir oshganin unuting,
Balo bizga yondoshganin unuting,
Qorachiqlar o'yib olingani-yu
Qaroqlardan qon toshganin unuting,
Unutganning kuysin ikki dunyosi!

Tozalanib, qizg'ish gilam yozilib,
Qonli izlar ketaversin bosilib,
Lablarining chetlaridan qon sizgan
Bolachalar turaversin osilib...
Unutganning kuysin ikki dunyosi!

Oyog'i uzilgan murda, ot sudrar,
Bir qo'l ham yo'q, burda-burda, ot sudrar,
Fitna otgan pahlavonni, yo Rabbiy,
Bobolar ot surgan yerda ot sudrar...
Unutganning kuysin ikki dunyosi!

Onang oqib baliq bo'ldi, Akbarjon,
Ukang oqib baliq bo'ldi, Akbarjon,
Endi qaydan bo'lsin ular daragi,
Bu ters hukmi Xoliq bo'ldi, Akbarjon,
Unutganning kuysin ikki dunyosi!

Ketay desang ular ruhin shod aylab,
Soyga borma, bora ko'rma yod aylab,
Jon bolam-ov, jonbiz bo'lay joningga,
Chiqaversa qo'sh balig'ing dod aylab!!!
Unutganning kuysin ikki dunyosi!

Turon jimjit. Soyi, tog'i chinqirar,
O'sh, O'zganning behisht bog'i chinqirar,
Onasining qursog'iga sanchilgan
Tig'dan o'lgan chaqalog'i chinqirar,
Unutganning kuysin ikki dunyosi!

O'tgan o'tdi. Bo'lmas ortga qaytarib,
Faqat yurak zirq-zirq sanchgan paytlari,
Bu yashinvor chinqiriqli Turonda,
Musulmondan tarqalganga aytarim:
"Unutganning kuysin ikki dunyosi!"

1990-yil 27-avgust

BU O‘LIM QANDAY O‘LIM?

Bu o‘lim qanday o‘lim?
Qorachiqqa mil tortar,
Tanho-tanho qurbonmas,
To‘da-to‘da el tortar.
Kimga bo‘lar inonib.
Inonib to‘kilgaysan.
Suvda oqib yo yonib,
To‘qayzorda o‘lgaysan.
O‘lmay yig‘lab ol to‘yib
Yo‘qlovching qolar yo yo‘q,
Akang qo‘yarmi so‘yib,
Ukang tortadimi tig‘.
Bir tillilar, bir-birin
Tilin qirqib, teparlar,
Bir uylilar uyining
O‘rnida kultepalar.
Bu uylardan zorlanib
Osmonga o‘t o‘rlaydi.
Burchaklarda bo‘rilar
Qizchalarni zo‘rlaydi...
Al-qasos-ul minal haq —
Qazoyi haq oldinda!
Qonlar sachrab seskanar,
Uyg‘onar xalq oldinda!
Ungacha, Bobo Temur,
Qo‘rqaman vaqt o‘tmasa,
Bir-birin qonin ichib
Manqurt, karaxt o‘tmasa.
G‘ajishgan bir tillini
Gijgijlab taxt o‘tmasa!
Bu o‘lim qanday o‘lim —
Qorachiqqa mil tortar...

1990-yil 27-avgust



SHUBHA

“Turkistonda o‘ksik o‘lmas qahramon,
Har qarich yerinda yotar bir arslon”.
Qadim turk maqoli

Shubha farzandiga aylanib qoldim,
Bor-u yo‘qligim ham ba’zan gumonday.
Ko‘rgan-kechirganim daryoga soldim,
O‘lsam ayrilmasdan o‘lay imondan.

Ha,
Balki, arslonlar yotsa yotgandir,
Qorong‘uni kutib bukir arslonlar...
Qo‘ni-qo‘shnisiga chang solmoqqa shay
Ko‘zlarin yog‘ bosgan so‘qir arslonlar.

Turon tuprog‘iga hidlashib, o‘pib,
Haqiqiy arslonlar to‘shni bossalar,
Odam bolasini qiymalab, chopib,
G‘ajib o‘ynamasdi qashqirbachchalar.

1990-yil 28-avgust

TISHIMDAN QON SIZIB...

Kuzak yomg‘irlarin ivib asradim,
Sorig‘ yaproqlarni sevib asradim,
G‘amlarim yap-yangi, yuvib asradim,
Meni asraguvchi dil topilarmi?

Borar joyim aniq, oldinda yo‘l yo‘q,
Ko‘rga ham bor, menga oydinda yo‘l yo‘q,
Menga olarda-yu, qaytimda yo‘l yo‘q,
Oyog‘imga ortiq g‘ul topilarmi?

Afsus, zor-u nolon umrim o‘tadir,
Bu yurt yuz yillarki... olov, o‘tdadir,
Yoqquvchi qo‘l bitta, gugurt bittadir,
O‘tni o‘chirmoqqa kul topilarmi?

Fitna tig‘ sanchdi tik, ko‘ksi tog‘larga,
It tegdi sut hidli qizaloqlarga.
Go‘daklar ilindi tuzoq, chohlarga,
Ko‘z yoshimizdan sho‘r ko‘l topilarmi?

Yerga kirmoq bor-u, parvoz etim yo‘q,
Onalar o‘lmoqda. Ammo yetim yo‘q,
Hayron o‘tim bor-u, isyon o‘tim yo‘q,
Mendan bechoraroq qul topilarmi?

Turon uxlar. O‘g‘il-qizdan so‘rayman,
Bobo Temur bosgan izdan so‘rayman,
Tishimdan qon sizib Sizdan so‘rayman:
— Turonni turg‘azar ul topilarmi?

1990-yil 28-avgust

TUMOR — VASIYATIMNI...

Qismatim shu. Tekinxo‘r bolalarga onaman,
Yotib yerlar, ishlari chalalarga onaman.
Qadim Turon bog‘larin bog‘ siyog‘i qolmagan,
Zaharolud havoli dalalarga onaman.

O‘ta xoksorligi ham hukmronlik so‘raydi,
O‘ta ozg‘inligi ham gumonlarga o‘raydi.
Har falokatdan avval shuning tomi nuraydi,
Teng bolalar ichinda “ola”larga onaman.

Harchandki kuyib ishlab, yetgan joyi kuyindi,
Oftoblari kuydirgich, ko‘kda oyi kuyindi.
Jonigacha qardoshga tutgan mo‘mintoylarim
“O‘zbek ishi”dayin toj, tuhmat tojin kiyindi.

Bolalarim, o‘, balo yo‘lab o‘ldirilganlar,
Og‘zidagi oshgacha to‘lab o‘ldirilganlar.
Oyoq-qo‘lida kishan, qamoq. Itlarga talosh,
Yalab o‘ldirilganlar, talab o‘ldirilganlar!

Minglar ketib qaytmoqda ortga yuzlar, o‘ttizlar,
Qaytganlarda ketgan shon, rangi o‘ngib ko‘rinar!
Qaytganni ham goho o‘z manqurtlarim o‘tqizar,
Tik turib ulgurmasdan umr so‘ngi ko‘rinar.

Yetar! Yetim-yesirdan nido chiqa boshlarkan,
Bor-budi talangan el gado chiqa boshlarkan.
“Zo‘rlab, jonimizgacha tortib olar kazzoblar,
Bu qandayin zulm”, — deb sado chiqa boshlarkan.

Endi ezilgan elga osqinlar kelayotir,
Payt poylab, balo, qazo bosqinlar kelayotir.

Bu bosqinlar oralab, imon keltirdim, har chol,
Har go'dakda bir Turon, toshqinlar kelayotir.

Mening-ku qismatim hal, ming bor to'lgan bir jomman,
Go'dagim emizarkan, bir tun, so'ng bor to'lgayman,
Joniga joylagayman tumor — vasiyatimni,
"Xoqonim, Turon sizning, olgaysiz", — deb o'lgayman.

1990-yil 30-avgust

BIZ O'TARMIZ. ESLAR UL-QIZ[1]

Bu yo'llar ko'p chag'ir toshli,
Oyog'im qon, ko'zim yoshli.
Manim chekkan ozorimdan
Chekib ozor, yo'lim yig'lar.

Uzatgani toshmas, ammo
Berari ham foshmas, ammo
Bir-biriga ishonolmay,
O'ng qo'lim, chap qo'lim yig'lar.

O, ona Sharq, ona Sharq — sen,
Bugun fitna, qonga g'arqsen.
Merosxo'rlarim manqurt deb
Moziydagi bilim yig'lar.

Sardorlarim bor deb edim,
Sardorsiz yurt xor deb edim,
Sardorlar-da bugun yo'lsiz...
Oqilim, johilim yig'lar.

Ko'z yosh — garchand qon isi,
Qasos isi, isyon isi,
Har dil — bir yarador arslon,
Ko'ksi tilim-tilim yig'lar.

Biz o'tarmiz. Eslar ul-qiz,
Bul asrdan qolgay shul iz.
Sho'rlik o'zbek. Sho'rlik qirg'iz.
Qoq o'rtada o'lim yig'lar.

1990-yil 28-avgust

[1] **Ul-qiz** — o'g'il-qiz.

BIZLAR OJIZ...

Biz qayda-yu, haqiqat — Haqqa
Bag‘ir ochgan osmon qayerda?
Sharpa sezsak to‘xtaymiz taqqa,
Yuragida arslon qayerda?

Hali uzo-oq, bizlar cho‘kib tiz
Yashagaymiz, xoqon qayerda?
To‘nib, muzlab qolgan qonimiz
Almashtirmoqqa qon qayerda?

Yo‘-o‘q!
Garchand ketmadi sho‘rimiz,
Ochimiz och, to‘qimiz to‘ygan.
Bizlar ojiz ona bo‘rimiz
Bolalarin odamlar so‘ygan...

Bugun dunyoyi dun teskari,
Bo‘rilarni odamlar tishlar.
Senga odam bo‘lib o‘sgani
Yo‘l qo‘ymaydi bugungi ishlar.

Ko‘z yoshimiz ketgandir qurib,
Qon yuvmoqqa ko‘z yosh yetmaydi.
Bolasining qasosin bo‘ri
O‘z go‘riga olib ketmaydi.

1990-yil 30-avgust

NENIKI KO‘RDIM KECHA...

Nechun qizg‘ish bu kecha,
Qaydan bu qor, qurum, gard,
Neniki ko‘rdim kecha
Bugun unutmog‘im shart.

Mendan so‘ramang, checha,
“Bormi ko‘ngli qo‘rg‘on, mard?”
Neniki ko‘rdim kecha
Bugun unutmog‘im shart.

Qavmim, belbog‘ing yech-a,
Uyat, terlaringni art.
Neniki ko‘rdim kecha
Bugun unutmog‘im shart.

Ojiz, go‘lliging ko‘rdim,
Bir-birin g‘ajib, yegan
Nojins qulliging ko‘rdim,
Negayam ko‘rdim, nega?!

Garchand ne ko‘rdim kecha
Bugun unutmog‘im shart,
Bir kun chirog‘im o‘char
Men bilan ketar bu dard.

Go‘rimda ham kuyar oy,
Sovurilib yotarman.
Ko‘rganlarim unutmay,
Qovurilib yotarman.

1990-yil 4-sentabr



O‘SH — O‘ZGANNING BOLALARI

Men baxtliman desam bugun bu yolg‘ondir, yasamadir,
To‘marisdan tuyoqman-u, tirnog‘iga o‘xshamadim.
O‘sh — O‘zganning bolalari bir-birining qonin ichdi,
Men odamday yashayverdim, bo‘ri bo‘lib qaqshamadim.

Turon yurtning bolalari bir-biriga tish sanchdilar,
Bir-birining kuragiga, yuragiga nish sanchdilar.
Ular jon taslim qilarkan, zamonga qarg‘ish sanchdilar,
Nechuk sulton bolalarga cho‘ri bo‘lib yashamadim?!

Endi nolam tinmas so‘zlab, uzun nolam nayga borar,
Endi nolam tez-tez bo‘zlab, Oloyga, to‘qayga borar,
Endi osmon bo‘lganimda osmonligim qayga borar,
Nechuk sulton bolalarning yeri bo‘lib yashamadim?!

1990-yil 12-noyabr

YOMON BIR O‘Y

Uni bugun tepkilashdi,
Obdon tepishdi.
Bir, ikki, uch... beshov bo‘lib,
Oltovlon bo‘lib.

Xushdan ketdi, suv sepishdi,
Tag‘in tepishdi
Navbat bilan, goh benavbat,
Olomon bo‘lib.

U yashin urgan niholday
Goh qad tiklar tik.
Goh yiqilar, mast qiyqiriq,
Mingi kuladi.

Mash’um jarning qirg‘og‘iga
Tirmashgan sho‘rlik,
So‘nggi tepki zarbi bilan
Jarga quladi.

Kuzataman... lablarimda
Achchiq sho‘r-u talx
Yomon bir o‘y o‘ta boshlar
Ko‘nglimdan sizib...

Bir ojizin mingta zo‘ri
Tepkilagan xalq
Xalq bo‘lmagay,
Yer yuzida qolmagay izi...

1990-yil 26-mart

YIG‘I

O‘ziga to‘q, ko‘rkam, xushbichim, oq do‘st,
Yig‘layman, Sizgamas, ko‘ksi bedog‘ do‘st,
Pok, nopokni birday suyovchi tog‘ do‘st,
Yig‘im so‘layotgan bolalar uchun.

Olma sabog‘iday ingichka bo‘yin,
Goh yetib, goh yetmay, ko‘rmadik to‘yin.
O‘lmasaydi... buyuk bo‘lardi tayin,
Yig‘im o‘layotgan bolalar uchun.

Ichib, uchib yotgan bobolari deb,
To‘zg‘ib, ko‘chib yotgan bobolari deb,
Bir-birini sotgan bobolari deb
To‘lov to‘layotgan bolalar uchun.

Yo Rab, tish botirmay bo‘lmasmi yurib,
Odamlar-ku emas, qashqir uyuri,
Birining zulmidan birisi qurib,
Qaqshab ketayotgan bolalar uchun.

Ishonch yo‘q imon-u haj, dodlariga,
Jaholat muhr urgan kaj yodlariga,
Bir-birin qirganda, ajdodlariga
O‘xshab ketayotgan bolalar uchun.

1988-yil 27-mart

BUL KUN KIMDIR O‘YNASA

Bul kun kimdir o‘ynasa,
Dog‘ ustida o‘ynaydi.
Dov-daraxti zardob rang
Bog‘ ustida o‘ynaydi.

Bu tuproqqa ishonch-la
Oyoq bosib bo‘lmagay,
Qumlari tirqiragan
Qumloq ustida o‘ynaydi.

Bul kun tuhmat — tog‘day tik,
Bul kun ig‘vo — ko‘p ulug‘,
“Bul qaro-ku, qaro” deb
Oq ustida o‘ynaydi.

Har qadamda g‘or, qopqon,
Qurbon topqoni topqon,
Yuztuban tushgan munkib,
Hamroh ustida o‘ynaydi.

Muqom-la yangi-yangi
Tepinganda yer changib
O‘zi tushar, ertangi
Choh ustida o‘ynaydi...

Qandoq so‘lmay qiyog‘i,
Kuyib ketmay oyog‘i,
Naq yurakning ustida,
Oh ustida o‘ynaydi...

1988-yil 8-fevral

YIG‘LAMAYMIZ...

Yig‘lamaymiz, chor atrofda
Qurib bog‘lar yig‘lagay,
Peshonasin tuproqlara
Urib bog‘lar yig‘lagay.

Odam ketar bir-biridan,
Odam suymas bir-birin.
Bir-birining pinjlariga
Kirib bog‘lar yig‘lagay.

So‘zim sinar so‘zga tegib,
Ko‘nglim sinar muzga tegib,
Oppoq to‘shi tuzga tegib
Oq charloqlar yig‘lagay.

Ko‘ksi yerlar biz bo‘ldig-u,
O‘ksib yerlar biz bo‘ldik.
Yer ostida Shiroq, Temur,
Ko‘ksi tog‘lar yig‘lagay.

Bizni ko‘rib egik bosh-u
Shonsiz, tag‘in zabonsiz,
Yerda o‘tgan bor ildiz-u
Bor butoqlar yig‘lagay.

“Boy ham bo‘lding biyday-biyday
Faqat... yurt egasiz uyday”,
Deb tuproqda Yassaviyday
Qo‘ng‘iroqlar yig‘lagay.

Yig‘lamaymiz!!! Yosh, qon ichra
Ko‘zlarga nim kelmasdan.
Hayhot, nahot biz o‘lganmiz,
Hali o‘lim kelmasdan.

1990-yil 3-mart

SHOIR NOMI

Abdulla Oripovga

Bu dunyo shu — birov nomus, imonim deb yig‘larkan,
Birov yoshlar to‘kib mansab, unvonim deb yig‘larkan,
Birov xalqim, o‘, ranglari somonim deb yig‘larkan,
Men sarg‘ayma go‘daklarni “polvonim”, — deb yig‘larkan,
G‘amlarini yashirolmay to‘kkan yoshlar, og‘ajon.

Esimda bor, Sening oshkor hujumlarga o‘tganing,
Ochiq maydon “Malomatning toshlari”ni otganing,
Har burchak, har tuynuqdan tosh qaytaverdi izma-iz,
Bo‘g‘izgacha fisq-u fasod toshlariga botganing,
Hali-hanuz og‘ritar-a tekkan toshlar, og‘ajon.

O‘sha paytlar bilmaganlar, balki, endi bilgandir,
Nodirayi davron dormas, ko‘kragingda o‘lgandir,
Bu sirlardan, balki, Mashrab Seni ogoh qilgandir,
Ki, chin shoir xoh taxtda, xoh g‘orda yashar, og‘ajon,
Boshi dorga tikilgandir, dorda yashar, og‘ajon.

Qodiriyning qonlarini obdan ichib to‘ydilar,
Hanuz bilmam men Usmonni otdilarmi, so‘ydilar,
Nasimiyning terisini shilib, ko‘zin o‘ydilar,
Endi bildim, nechun sening ko‘zing kulmas, og‘ajon,
Ko‘zlaringda “xalqim” degan sezim kulmas, og‘ajon.

O‘ylagandim, dovul o‘tdi, dovul tamom o‘tmapti,
Bizning bu g‘o‘r o‘g‘lonlarga bu sho‘rishlar yetmapti,
Hanuz “olomon” bu xalqda, xalq sezimi bitmapti,
O‘zgan. Soyda oqib ketgan go‘dak Bobur, Mohimiz,
Endi o‘lgunimcha so‘rar: “Ne edi gunohimiz?”

Shunday. Turli larzalardan tirilmoqda tomirlar,
Moziyga-yu ruh ichiga kirmoqda bir pok nurlar,
Ota Turon dashtlarida bosh ko‘tarar g‘ururlar,
Bitta sinmas g‘urur Sensan. Tillo og‘am sen mening,
Qodiriyning o‘rnin bosgan Abdullo og‘am sen mening.

Endi shunday. Kurashlarga belni mahkam bog‘larmiz,
Dil topamiz. Ayru-ayru elni mahkam bog‘larmiz,
To‘g‘on bo‘lib elga kelar selni mahkam bog‘larmiz,
Tiklagaymiz xalqni!
Kurash — orom bo‘lsin, og‘ajon,
Tiklolmasak shoir nomi harom bo‘lsin, og‘ajon!

1991-yil 5-aprel

BU SHAXT

Qadriga yetmaymiz, bor naqd ketadir,
Ko‘zi yoshga to‘lib chin baxt ketadir,
Yo Rab, odamning-ku oyoqlari bor,
Ranglari sarg‘ayib daraxt ketadir.

O‘pib qol, bu yaproq kuzga omonat,
Munglug‘ onajoni qizga omonat,
Gado hassasi ham bizga omonat,
Sulaymon o‘tirgan toj-taxt ketadir.

“Dunyo meniki”, — deb sanab yurganlar,
O‘g‘rini qaroqchi bo‘lib qirganlar,
Sharob omonat deb o‘zin urganlar,
Boshlarin changallab, karaxt ketadir.

Tilimni bog‘lama, tilim — jaranggos,
Bugun qo‘ng‘iroqmen, bir ilohiy soz,
Erta menga desa shu tilimdan os,
Erta, balki, mendan bu shaxt ketadir.

1990-yil 22-avgust

ZEHN SOLSAM, O‘, DUNYO

Zehn solsam, o‘, dunyo
Orlik muhlating yaqin,
Xoinga, munofiqqa
Dorlik muhlating yaqin.
Qancha makr bilan og‘dir,
Imon o‘lmagan, sog‘dir,
Ezgu dard bilan og‘rir,
Bemorlik muhlating yaqin.
Bu — orzudir. Bugun tosh
Tutmoqdasen, ol, deb, osh,
Nayranglaring bo‘lur fosh,
Zorlik muhlating yaqin.
Yetim yoshi she’r bugun,
Yesir boshi yer bugun,
G‘alamislar er bugun,
Xorlik muhlating yaqin.
Odam itni do‘st topar,
Itlar egasin qopar,
Yetdim degan yer qo‘par,
Ag‘yorlik muhlating yaqin.
Bazm qizigan bir to‘yda
Aka inisin so‘ydi.
Oh, kim keltirib qo‘ydi,
Xundorlik muhlating yaqin.
Raso ko‘rsam deb elni...
Sirib bog‘lovdim belni,
Afsus, sochimga keldi,
Qorlik muhlating yaqin...
Zehn solsam, o‘, dunyo,
Orlik muhlating yaqin...

1987-yil 14-may

BITTA MUSHTGA AYLANMAY

Oltovlon ola bo‘lib oldirgan xalq meniki,
Goh ichda zahar, tilda bol turgan xalq meniki,
Tig‘ tortib o‘z otasin o‘ldirgan xalq meniki,
Yo Rab, qay ajdodimning qo‘li kir deb yig‘ladim.

O‘zi o‘z o‘zagini uzgan lahzalarida,
Qiblagohin go‘rini buzgan lahzalarida,
Farg‘onada to‘zonday to‘zgan lahzalarida,
Xudo, to‘zg‘in elimni birlashtir deb yig‘ladim.

Birlashmading, Qo‘qon-u O‘zgan bo‘lding, O‘sh bo‘lding,
Fitna pichoqlarida talosh laxta to‘sh bo‘lding,
Kuyov-kelin bo‘lmasdan qo‘sh mozor-a, qo‘sh bo‘lding,
Xudo, to‘zg‘in elimni birlashtir deb yig‘ladim.

Birlashmading, ketma-ket balo keldi, o‘t keldi,
Tog‘day yigitni solib, lopillab tobut keldi,
Suv bo‘lib oqdik, ko‘zdan jola keldi, hut keldi,
Xudo, to‘zg‘in elimni birlashtir deb yig‘ladim.

Shukur, bugun ozod sen, ammo tarqoq sen, yot sen,
Tarqoqmi sen, inonki azal-abad barbodsen.
Jo‘rovoz bo‘lolmasang, yakka-yakka mung, dodsen,
Xudo, to‘zg‘in elimni birlashtir deb yig‘ladim.

Karvon jilsin, sarboning sari enib kel, elim,
Bir bog‘ sari chug‘urlab, qushga do‘nib kel, elim,
Alloh dilda. Allohga — Haqqa ko‘nib kel, elim,
Xudo, to‘zg‘in elimni birlashtir deb yig‘ladim.

Bitta mushtga aylanmay, biz dastmiz yolg‘iz-yolg‘iz,
To‘zim kosasi yanglig‘, to‘lmasmiz yolg‘iz-yolg‘iz,
Turk-u Turon tiklangay, o‘lmasmiz yolg‘iz-yolg‘iz,
Xudo, to‘zg‘in elimni birlashtir deb yig‘ladim.

1991-yil sentabr

YARIM KECHA...

Usmon Nosirga

Yarim kecha,
Yo‘qolgan tinchim,
Ko‘kragimga qorlar qulaydi.
Qaytib kelar o‘ttiz yettinchi...
Nihollar, chinorlar qulaydi.
Ro‘molchada non, qand o‘rog‘liq,
Ilinarlar “Sho‘rlik Usmon yer”.
Tik turgancha ustunga bog‘liq,
Ko‘kka do‘qlab, Usmon o‘qir she’r.
O‘qiyverar... osmonlar pastlar,
Lahza qah-qah, lahzada yig‘i.
— Bu kasalni ko‘p ushlamaslar,
Tugadi, der lager boshlig‘i.
Qo‘li bog‘liq bu yo‘lovchini
Yoshin shamol sidirdimikin?
Yerdan topmay bir qo‘llovchini
Ko‘kdan Xudo qidirdimikin?!
Ona elim, ko‘ksi to‘la dog‘,
Tushding qora ro‘yxatga, tokay,
Sor o‘g‘illar tug‘arsan, biroq
Oldirarsan kalxatga tokay.
Hamon qut yo‘q, o‘t yo‘qday yurtda
Ranging sariq, mangu sildaysan.
Sen tug‘moqni qilursan udda,
Asramoqni hamon bilmaysan!!!
Yarim kecha,
Yo‘qolgan tinchim...

1989-yil 20-fevral

ELDOSHLARIM ICHRA YURIB

Eldoshlarim ichra yurib
Qayg‘ularim quyuqlashdi.
Har xil mayda imkonlar bor,
Biz istagan imkonlar yo‘q.

O‘zimizcha nelarnidir
Bugun inkor etmoqdamiz,
Erta bu inkorlar inkor,
Qayta sinmas inkorlar yo‘q.

Savlat to‘kkan bu shunqorlar
O‘rlab borsa tog‘da xoqon.
Cho‘qqiga bir chiqmoq uchun
O‘lmakka shay shunqorlar yo‘q.

Sag‘irmas faqat sag‘irlar,
Yelkalar hamon yag‘irlar,
Nechuk qoldik yer bag‘irlab
Ko‘kraklari osmonlar yo‘q.

Ming-ming yetim go‘dak demang,
Ming-ming boshi egik odam,
Shu g‘amlardan ko‘zim yoshi
Selim, degan insonlar yo‘q.

Erim degan, yo xotinim,
Mayda-chuyda isyonlar ko‘p,
Oh, ming ohkim, yerim degan
Elim degan isyonlar yo‘q.

Eldoshlarim ichra yurib
Qayg‘ularim quyuqlashdi...

1988-yil 8-yanvar

MENING KABI...

Borarga bor, qaytar joydan qaytaver Sen,
Mendek yozda yo‘lingda muz to‘ngan emas.

Hammaga yoq, shodon qo‘shiq aytaver Sen,
Yo‘llaringda hali tikan ungan emas.

Bir boshingda ming xayol yo‘q, termoq uchun
Ko‘ngling ming bir bo‘lak bo‘lib singan emas.

Tushingda jon do‘sting bilan diydorlashib
O‘ng. Saharlab g‘animing ko‘ringan emas.

Hayot to‘fonlari silab-siypar seni,
Mening kabi otlaring suringan emas.

Tag‘in, tag‘in... Seni obdan otmaganlar,
Ruhing zada, ming toshga uringan emas.

Jarohatlar bitib ketar, ammo bugun
Qoni chak-chak tomib turar, tingan emas.

Borarga bor,
Qaytar joydan qaytaver Sen.

1988-yil 24-aprel

HINDIKUSHDAN NOLA KELDI

Naqddan kelsang “otam” demoq azmoyishli
“Onam” demoq yarashiqli, namoyishli,
Hayhot, bandam deganini bo‘zlatmasin,
Tayoq tirab “bolam” demoq mushkul ishdir.
Asrim, uning qon ko‘ylagin boshga o‘ra,
Ayoldan shu o‘g‘lon uchun uzr so‘ra.

Ay dunyo-ya, Sen shundayin ko‘hna bozor,
Narx-navosin tayini yo‘q, tayin g‘am bor,
Tag‘in, tag‘in Sen ayolni qaqshatding zor,
Hindikushdan olov keldi, jola keldi,
U kelmadi, ko‘kka o‘rlab nola keldi.

Bu elda-ku sadr tepmas erkak zoti,
Kuyganda bor-buding yorti, udum yorti,
Farmon bobo o‘kirgancha uvvos tortib,
Sadr tushsa, tutmoq uchun yetar kuch yo‘q,
Dunyo Senda qon bor, shon bor, shafqat hech yo‘q.

U kelmadi, hijron ming sas, ming tus keldi,
Gunohkorday jovdir-jovdir yulduz keldi,
Ammo yulduz yulduz ekan, oltin, olmos,
Bolang bo‘lib ko‘kragingga otilolmas.

Asrim, asrim, yuking hali og‘ir-og‘ir,
Urush — xato yukdir, undan yelkang yag‘ir,
Shu yuk bosib qoldi necha ayol sag‘ir,
Yelka tutmoq uchun yukka tug‘ganmidi,
Xatolarga qurbonlikka tug‘ganmidi?!

O‘n sakkiz yosh, nima asli, esni quvar,
Avji chog‘i baxtni quvar, qizni quvar,

Qoni bilan kattalarning aybin yuvar,
Yuvar, dog‘ing ketar kunlar bormi, afg‘on,
Yaralaring bitar kunlar bormi, afg‘on?!
Hindikushdan jola keldi, nola keldi.

1988-yil 24-aprel

SIZNING O‘RNINGIZ...

Ko‘p bo‘ldi, bo‘g‘zimni bir sirtmoq bo‘g‘adi,
Tatimas chopganim, topganim, shonlarim.
Sizning o‘rningizga kim bola tug‘adi,
Kim go‘dak o‘stirar, dugonajonlarim?!

Ko‘ngilga dunyoning bor dardi sig‘adi,
Yelkadan bosadi tashvishli tonglari.
Sizning o‘rningizga kim bola tug‘adi,
Kim go‘dak o‘stirar, dugonajonlarim?!

Joningiz g‘o‘zaga jonini so‘g‘adi
Erkaklar dalaga chap bergan onlari.
Sizning o‘rningizga kim bola tug‘adi,
Kim go‘dak o‘stirar, dugonajonlarim?!

Otarlar, o‘qlari yurakka tegadi,
Sizni ham chetlamas hayotning janglari.
Sizning o‘rningizga kim bola tug‘adi,
Kim go‘dak o‘stirar, dugonajonlarim?!

Sizsiz-ku traktor kimgadir tegadi,
Kimgadir kombayn; dalaning donlari.
Sizning o‘rningizga kim bola tug‘adi,
Kim go‘dak o‘stirar, dugonajonlarim?!

Orqada sochlarmas, manglay ter jilg‘adir,
Horg‘inim, ipakday qosh-ko‘zi changlarim.
Sizning o‘rningizga kim bola tug‘adi,
Kim go‘dak o‘stirar, dugonajonlarim?!

Kun kelar, demaslar “Sizga gap tegadi —
Qazilmay qopti bu dunyoning konlari!”

Sizning o‘rningizga kim bola tug‘adi,
Kim go‘dak o‘stirar, dugonajonlarim?!

Degaylar “Botirsiz elni yov egadi,
Qayerda bu elning qasoskor qonlari?!”
Sizning o‘rningizga kim bola tug‘adi,
Kim go‘dak o‘stirar, dugonajonlarim?!

1987-yil 29-aprel

Men jismonan zaifaning qoshida ojizsan sen.
Goho qarshimda mag‘rur ko‘zingda yosh qalqadi.
Dunyoda ayol borki, go‘zallik, nazokat bor.
Sen mendan hayiqasan.
Ajabo,
Nahotki, go‘zallik hayiqtirsa.
Ayt, bag‘ritosh yigitning ham dili erib ketmasmi,
Qarshisida qizil gulday ayol nozlanib tursa.
Ayol istaydiki, yerda hayot so‘nmasin sira
Ayolni qutlamoq shart —
Go‘dak kulgusi uchun.
Xayolingni har yondan olganman
To‘rday o‘rab
Nozik, chayir ip bilan —
Uzmoqqa yetmas kuching.
Do‘stim! Shunday, sen meni olqishlashing kerak.
Na g‘alabam, na bir shunqorligim
Va na favqulodda baxt,
Hech biri uchunmas —
Shunchaki sening yoningdaligim,
Yer yuzida borligim uchun
Olqishlashing kerak!

ULAR SEN HAQINGDA KUYLADILAR, AYOL!

Ular sen haqingda kuyladilar, ayol,
Ishga solib bor zavq-ehtiroslarini.
Biroq bu qo‘shiqlardan sen qolmading lol,
Shunchaki tinglading ularning barini.
Ular sen haqingda kuyladilar, ayol.
O‘zlaricha mamnun, “ko‘tardik” deb ko‘kka.
Ammo sen lab ochib, jilmayganding xiyol,
Bor maqtov, loflarni chiqardi u yo‘qqa.
Ular “mayin, go‘zal”, deya ko‘z-qoshingni,
Sen haqingda obdan hikoya qildilar.
Sen mag‘rur tikilib, ko‘targach boshingni,
Nigohing o‘tida qovrildi ular.
Ular o‘ylar ko‘pda yoqimli badaning
Xush atir islarin taratishini.
Unutib qo‘yarlar ular goho sening
Bola tug‘ishingni, yaratishingni.
Senga ikki dunyo naqd bir tutam bo‘lib,
Go‘daging olamga kelayotgan dam.
Dunyo uchun farzand tug‘ib, o‘zing bir o‘lib
Va bir tirilganda, ko‘zlaringda nam.
Sening kurashingni, mardona kurashingni
Serjarang qo‘shiqlarga solmadi ular.
Ammo qarashingni, nazokatli qarashingni
Ular viqor bilan hamon talqin qilar.
Ertang yana serxosiyat, o‘g‘loning ulg‘ayar,
Bo‘yi o‘ktam otasiga yetar sal kunda.
Balki, ko‘hna dunyoga u sening noming yoyar,
Yiroqlatar seni u siyqa talqindan.
Ha, sening chiroying, g‘urur kurashing tengsiz,
Inson yaratding sen bu kun tong mahali.
Endi tan olurlar ular, mamnunlik o‘rinsiz,
Kuylay olishmapti sen haqingda, hali!..

JUFT SHO‘XCHAN KO‘Z...

Oydin kecha. Yulduz mildirar,
Oydin kecha. Charaqlar samo,
Juft sho‘xchan ko‘z meni o‘ldirar,
Yana o‘zi tiriltar, ammo.
Sevmasam gar ular boqqan tob,
Og‘ir gunoh, ko‘zga qo‘ngay gard.
Sevsam bo‘lmas o‘tiga chidab,
Oh, o‘rtoqjon, bu qandayin dard?!
U chaqnasa menga tinchlik yo‘q.
U chaqnasa dudsiz kuyaman.
Chaqnamasa men g‘amga to‘liq,
Chaqnamasa qora kiyaman...

Ko‘kda yulduz ma’sum mildirar,
Pastda juft ko‘z meni o‘ldirar...

KEMALAR TIKKAGA YO‘L OLSIN

Sen haqda
Yulduzlar kuylasa jimirlab,
Yaproqlar kuylasa tinmayin
Zavq bilan tinglardim shuur-la,
Ko‘zimga uyqular qo‘nmayin.

Nogohda
Ismingni aytsalar chopardim,
Sevardim, oh, u xush navoni.
Talpinib non kabi o‘pardim
Ismingni yangratgan havoni.

Va lekin
Biz yo‘lga chiqqanda, kemamiz
Surdi-ku shamollar ayru yon.
Garchandki uzoqlab ketdik biz,
Qaytmoqchi emishsan men tomon.

Yo‘q, chekin.
Kemangni burmagil, qistama,
Do‘stginam, sen ortga qaytma, yo‘q.
Men senga sarsonlik istamam,
Boq, axir, kemangda qancha yuk.

Ularni
Qilmagil xohishing qurboni,
Gullar bor, kutganda ochilmas.
Bor emas hamisha imkoni,
Tugunlar bo‘larki, yechilmas.

Dardlarni,
Armonni yurakdan yulib ot.
Qayrilma ortga-yu chekkaga.
Orada bo‘lmasin arosat,
Kemalar yo‘l olsin tikkaga...

1972-yil 16-avgust

BU VATAN...

Men Vatan so‘zin qanday nafas bilan aytaman,
Bu yo‘lda qaydan boshlab, qay nuqtadan qaytaman.
U bir go‘dak, men uni qay tarzda ulg‘aytaman,
Bilmam, o‘zni anglay deb ko‘z yumdimmi qay fursat?
Shu xil turfa holatlar asta rostlay boshlar qad.

Lampachiroq piligi titrab, kuyar kechalar,
Kelinchaklar boshini muzga qo‘yar kechalar,
Chaqaloqdan otasin hidin tuyar kechalar,
Kuyovlar qaytib kelmas, kelgan g‘amni g‘aramlab,
Kelinchaklar fig‘oni: “Voy to‘ram-ey, to‘ram”lab.

Qad ko‘taraveradi yillar devorin yiqib,
Bir tikilgan mahsini to‘rt bor to‘zdirib, tikib.
Ko‘rpasin boshga tortsa, oyog‘i qolgan chiqib,
Qiyin kunlar qorida yupun, ivigan ayol,
Tirnog‘idan qon sizib, ko‘sak chuvigan ayol.

Shu kelinchak, shu ayol Senmasmiding, dilbandim,
Yetmish ikki tomirim, jigarim, bandi-bandim,
Sen otammi, bolammi, bilolmayman, asli kim,
Bir chetida quyoshday onam botgan Vatanim,
Bir chetini qo‘riqlab otam yotgan Vatanim.

Otam bo‘lsang ruhingga sadoqatdan aytayin,
Bolam bo‘lsang yonar jon, yonar xatdan aytayin,
Momom, onam aytganni men boshqatdan aytayin,
Ko‘ylagim shamolidan bahra olar Vatansan,
Maysasida sochimning hidi qolar Vatansan.

Ko‘raman, xayol surib mardlar ketgan yo‘l bilan,
Etik izin sog‘ingan chechakli o‘ng-so‘l bilan,

Jang xanjarlari kesgan yigirma million qo‘l bilan,
G‘alaba bayrog‘ini ko‘tarishgan Vatanni,
Kim razolatdan kuysa teng kuyishgan Vatanni.

Shunday g‘alaba barhaq, yer bilan ko‘k qo‘llasa,
Kecha-yu bugungi kun, vijdon-u o‘q qo‘llasa,
Har ulusin eng avval chap ko‘krak — cho‘g‘ qo‘llasa.
Suyan, abad nuramas qoya bo‘lar bu Vatan,
Avlodlarni ko‘targan g‘oya bo‘lar bu Vatan.

Bugun mening ko‘ksimda gul unadigan kunim,
Diydoringga termilib jim, tinadigan kunim,
Sutdan halol yurt, Senga sig‘inadigan kunim,
Bir chetida quyoshday onam botgan Vatan deb,
Bir chetini qo‘riqlab otam yotgan Vatan deb.

1986-yil 12 iyun

BU UYLAR

Bu uylar uy emas, birday to‘lishib
Yashayversang, bir bor so‘lib chiqmasang.
Bu maydon maydonmas, har kuni tushib,
Yuz tirilib, yuz bor o‘lib chiqmasang.

Ey shoir, yashash-ku tinmas kurash, jang,
Mayli, tinma, iqbol bersin, gurulla.
Navoiyda ming dard, birin aytmasang,
Sen bu shoirliging xashakka pulla.

Yigit, men bilmayman, senda qancha zarb,
Ammo sodiq ersang xalqday dahoga,
Iltijo qilaman, boshlanarkan harb,
Hech yo‘qsa aylangin Bobur Mirzoga!

Garchand bugun suymoq, kuymoq dardi kam,
Yo Rab, ertaga ham to‘lib o‘tmasa,
Bu dunyoda yo‘q deng Halimani ham
Kamida Nodira bo‘lib o‘tmasa.

Bu uylar uy emas...

1984-yil 2-noyabr

HOLAT

Bu bog‘ning gullari oqki xuddi qor,
Ko‘ngil jim. Axtarsam sababi bisyor.
Birdan hushyor tortib qolaman, hushyor.
Bu tug‘yonsiz umr meniki emas.

Sevaman, sevgimda xotirjam bir o‘t,
Kuylayman, kuyimda sipo shavq, sukut.
Yurak parchinlanmas, yurak doim but,
Parchin, qonsiz umr meniki emas.

Sevgilim, daryoday ketyapman oqib,
Qirg‘oqqa bo‘y bermay, toshib, tutoqib,
Oqyapman, ich meni, ichgin yutoqib,
“Ishqqa — jon”siz umr meniki emas.

Tafakkur, yolg‘iz Sen taqdirimda ganj,
Sensiz umrim g‘arib, ayanchdir, ayanch.
She’riyat, ko‘ksimga xanjaringni sanch,
Bu qurbonsiz umr meniki emas.

1986-yil 7-may

* * *

Bilmam, adashdimmi yo to‘g‘ri qildim,
Bag‘ringga yaproqday to‘kildim.
Aslida bu baytni men yozganim yo‘q,
Mening umrim — mo‘ljal sari ketgan o‘q.

Vaqtida keldim yo bevaqt, ancha kech,
Afsus aytganimni eshitmadim hech.
Bo‘lmasni bo‘ldirgum deb qilaman qasd,
Men yashash sururin shunday deb bildim.

Arosat, bu satr meniki emas:
“Bilmam, adashdimmi yo to‘g‘ri qildim”.
Kamon egildi-yu otdi — uchyapman,
Yo‘q, ikkilanish yo bir so‘z aytish yo‘q.

Mayli, sharob yoki zardob ichyapman,
Men otilgan o‘qman, o‘qqa — qaytish yo‘q.

1984-yil 12-may

KETAMAN

Sen ishqimga qilganda gumon,
Dil-dilimni bosganda tuman,
Kelganida jahling — Yosuman,
Men ketaman, badar ketaman.

Bog‘lar aro boshlanar xazon,
Ishqning qadri, qimmati arzon.
Ishq hovuchlab yashaydirmi jon,
O‘rtab-o‘rtab kadar, ketaman.

Ishq ohudir — otib qo‘yding Sen,
Ishq Sir edi — sotib qo‘yding Sen.
Gumon loydir — botib qo‘yding Sen,
So‘ng bor tashlab nazar, ketaman.

Sevdim, avval o‘t bo‘lib sevdim,
Sen ishqniki bo‘larsan devdim,
Sen gumonga ko‘ngil berding jim,
Endi qilib hazar, ketaman.

TO‘G‘ON

Qo‘llaring daryoga tashlangan to‘g‘on,
Oqyapman, qo‘llaring qolar-ku tutib.
Qo‘rqaman, men qo‘rqib hovuchlayman jon,
Ehtimol, sirg‘alib ketarman o‘tib.

Qo‘llaring daryoga tashlangan to‘g‘on —
Oqa-oqa bir kun yetaman —
Faqat qo‘llaringdan baliqlar yo‘sin —
Qo‘rqaman, sirpanib, chiqib ketaman.

Qiyin, bilsang, menga bo‘lar ko‘p qiyin,
Dunyoni qoraytar fikrim to‘zoni.
Ayt, qay daryolarda oqaman keyin,
Tutolmay qolsa gar qo‘ling to‘g‘oni?

1985-yil 20-avgust

KETMA

Zamonlar ayolin dodi bu sado:
"Jonginam, men senga ne qila qoldim?!"
Marina Svetayeva

Sevmoq, sevilmoqlik baxtmi yo og'u,
Og'u, baxt aralash so'zimdan ketma!
Ayolning ming yillik nidosidir bu:
"Kelaver, kelaver izimdan, ketma!"

Ketsang o'zlar xomush, bazm aylagay yot,
Qadimiy sukutda chinqirgaydir yod,
Xarsanglar til bitib, dod aylagay, dod,
Mendagi bu toqat — to'zimdan ketma!

Uni shon kutarmi yo kutarmi qon,
Eslamaydir hurkak, titroqdagi — jon,
Ketsang mendan o'sib ketmog'i ayon,
Hatto kelmaganlar tizimdan, ketma!

Panohsizni har yon tortqilar shamol,
Qay birov baxt izlab meni ko'rsa, lol,
O'z jannatin menda qilmasin xayol,
Mening sirli, o'ychan ko'zimdan ketma!

Shiddatin yo'qotgan daryo — tinar kuz,
Yaproqday sarg'ayib jim xo'rsinar kuz,
Alvidoga ko'nar, g'amga ko'nar kuz,
Mening rangpar, so'lg'in yuzimdan ketma!

Biroq men qo'nmasman baxtmi bu og'u,
Nahot qurimoqqa mahkum ishq bog'i,
Seningman, seningman, ne bo'lsa ham u,
O'zimman, Sen mening o'zimdan ketma!

1985-yil 21-may

AVTOPORTRET

1. YOLG'IZLIK

Bir vaqt shoshqin yonimga kelgan eding yo'l topib,
Kelganingga qadar ham yashaganman Sen bilan.
Tunlarda uyqu emas, yoding ko'zimni yopib,
Tonglarda uyg'onardim tushda o'pichlaringdan.

Kelding, ko'p o'tmay Sendan ayrilib qoldim, biroq,
Qaydan qalb ko'zi bilan qoldim men Seni tanib?
Bizlar birga yasharkan, ketib borardim yiroq,
Bizlar birga yasharkan, borardim yakkalanib,

Garchand hamon birgamiz, ammo asli yo'qsan Sen,
Nahot, bu hayot endi qabul qilmas tahririm.
Bir gurullab taft bermay o'chib qolgan cho'g'san Sen,
Nahot junjikib o'tmoq — endi mening taqdirim?!

Garchand endi ketmoqqa — yo'l topmoqqa shoshmassan,
Ayt, qachon bulut yanglig' qoplading osmonimni?
Birgasan-u, yo'q, yo'q, jon-jonimga tutashmassan,
Qayg'usin qilaman shu yolg'izgina jonimni.

2. ALANGA

Gumonim yo'q, alangaday sevding yutoqib,
So'zlaringda, ko'zlaringda alanga tafti.
Men bilmabman, bu olovda umrim butog'i,
Yaproqlari sekin-sekin kuya boshlapti.

Hayotimga alangaday kirding bostirib,
Hayotim bu alangadan isindi, yondi.
Men o't edim, o'tlar bilan o't suhbat qurib
O'tsang shu baxt ekaniga qattiq inondim.

Men o‘t edim, o‘tlik tutdi o‘tning barini,
Bugun nogoh o‘tmas, suvni em ko‘rayapman.
Bugun nogoh umrimning ko‘k kengliklarini
Qiyoq tilli alangaga yem ko‘rayapman.

Va bir xayol o‘ylarimga o‘rnashib olgan
Takror etib ishqning o‘tlig‘, munglig‘ sasini:
— Chiroq yo‘qmi bu dunyoda saqlab qololgan,
Kuydirmasdan o‘zin urgan parvonasini?

3. HIJRON KUNLARIDA

Hech kimsani chaqirmayman o‘zga ko‘makka,
Hojat bormi, o‘tir, dardim eshit, demakka,
Chunki meni sen tushunmay qolding, men yakka.

Holbuki, sen... bir qarashda ko‘rinding sovuq,
Bir qarashda... keyin o‘zing bo‘lding chirmovuq,
Ayb yo‘q emas menda ham, men deyolmadim “yo‘q”.

Endi meni har qadamda visol kutardi,
Har qadamda kuchli qo‘ling arshga ko‘tardi,
Shodmon edim, chunki yo‘ldan Sen-la o‘tardim.

Bu yo‘l cheti daraxtlarda qushlar chuvullab,
Kecha g‘ujg‘on o‘ynar edi, bugun huvullab
Qolgan bu yo‘l, chunki... chunki men bo‘ldim gullab.

Yo‘q, hali ham yakka emas, sirdoshim bordir,
Ul — yolg‘izlik, quchoq ochar, quchog‘i qordir.
Vohki, bugun menga Senmas, u mushtoq zordir.

Tole ekan, tushdim bir so‘z, qorlik, muzlikka,
Qo‘rqdim, tag‘in aldanmay deb ayri so‘zlikka,
Men toabad ko‘ngil berdim shul — Yolg‘izlikka.
Hech kimsani chaqirmayman...

1984-yil 7-noyabr

* * *

Bir vaqtlar ketardik bahorlar tomon,
Na bahor, gurkirab viqorlar tomon.
Endi temir bo‘lgin, endi mung‘ayma,
Endi yo‘llarimiz qor, qorlar tomon.

Bahorlar ko‘rsatdik shavq, mastlik kuchin
Viqorimiz tog‘dan tikroq keldi chin.
Endi yo‘llarimiz qor tomon ekan,
Qo‘lingni ber, toyib ketmaslik uchun.

Fikr etsam, ko‘rmagan, ko‘rgan ekanman,
Umr o‘tsa-da yo‘l-u uy tiklayman deb.
Sezdim, hayotingga kirgan ekanman,
Seni qorli kunda qo‘ltiqlayman deb.

1984-yil 8-fevral

* * *

Bu ayolning sochlari uzun,
Uzundir, uzundir barmoqlari.
Quyuq tortar g‘ira-shira tun
Ul sochini yoygan choqlari.
Uzun-uzun bu sochlar bilan
Unga peshvoz chiqolmaydi u.
G‘amlari-quvonchlari bilan
Unga ko‘ylak tikolmaydi u.
Havas bilan, achinish bilan
Kuzatadi... qo‘shni yosh juvon
O‘z erining ko‘ylagin tikmas,
Istamaydi peshvoz chiqmoqni...
Eri ishdan keladi horib,
Qo‘lda papka, ishning chalasi...
Tushlar ko‘rib uxlaydi juvon,
Pashshasini qo‘rir bolasi...
Ayol o‘ylar... umr o‘qligin,
Garchand tayyor jonin tikmoqqa
Va o‘ylaydi... haqqi yo‘qligin
Bu erkakka peshvoz chiqmoqqa...

* * *

Yonayotgan bu o‘t bo‘lmas sira kul,
Na qor, na bo‘ronda so‘lmaydir bu gul.
Yo‘qdir bu hayotda biror-bir mushkul,
Sen mening qo‘limdan tutganda, jonim.

Yurak darz ketmaydi, devor qulamas,
Baxt jomi limmo-lim, to‘lug‘, silamas.
Kimki ketgan bo‘lsa ortga qaytar, bas,
Men seni nigoron kutganda, jonim.

Hayot abadiy deb gullar teraman,
Quchasan, o‘zim ham gullayveraman,
Bu ne chanqoqlikdir, cho‘llayveraman,
Sen menga ishq jomin tutganda, jonim.

Bariga, bariga tikilib sinchil,
Men deyman, bir kuni qolsak biz tinchib,
Ehtimol, bu hayot bo‘lar o‘tkinchi,
Ikkimiz dunyodan o‘tganda, jonim.

1987-yil 8-oktabr

QIRG‘OQ

Daryo yanglig‘ oldga chopaman
Yoyib tashlab qirq kokilimni.
Yoniq-yoniq suyub o‘paman
Sohilimni, sen — sohilimni.

Hayotimga qaysi bir damda
Qirg‘oq bo‘lib kelding, chamamda.

Men-ku senga berganman izn,
Ikki yonim qirg‘oq — mahkam, band.
Men oqmayman qirg‘oqni buzib,
Asov shiddat bermas senga pand.

Sen ham ozod shiddat ber suvga,
Shubha bilan olmay siquvga.

Qirg‘oq sirdosh, qirg‘oq — suyanch tog‘,
Daryo oqar unga bosh urib.
Bir kun soching oqarar oppoq
Shul daryoni qo‘riqlab yurib.

Oqar chog‘ ham mangulik yoqqa,
Lab bosgum sen — metin qirg‘oqqa.

1984-yil

XAVOTIRNING QUCHOQLARI...

Qiziq tuyg‘u, qilolmassiz daf,
Yuksalib, goh tolib yashaysiz.
Bexavotir yashayman, sabab
Siz xavotir olib yashaysiz!

Suyaman men, siylanaman men
Gullar sochib yo‘llaringizga.
Bexavotir suyanaman men
Chirmab olgan qo‘llaringizga.

Sizga hukmin o‘tkazolmas Vaqt,
Siz muqimsiz, Baxt tog‘lariday.
Men o‘ranib yashayman xushbaxt
Xavotirning quchoqlarida.

HIJRON YOBONLARIDA

Bitib ketar ko‘ngil yaramiz,
O‘rtanuvchi zorlar ketadi.
Gulga kira boshlar oramiz,
Oramizdan qorlar ketadi.
Men hijronning yobonlarida
Sarson kezdim, qomatlarim yoy.
Sen hijronning yobonlarida
Gul yoshlikni tamom berding boy.
Men ayriliq sahrolarida
Bir savdoyi bo‘pman, qarasam.
Sen ayriliq sahrolarida
Munkib, qumga botib borasan.
Azobiga qandoq beray tob,
Azobiga ko‘ksim, ko‘zim liq,
Pichog‘ini ko‘ksimga qadab
Turgan g‘amning nomi “ayriliq”.
Ayriliqning qo‘llari uzun,
Quchar, istar isib, sovushim.
Ayriliqning yo‘llari uzun
Ilma-teshik bo‘lar kovushim.
Tovonimdan tirqiraydi qon.
Qonim qolar o‘t, gul barida.
Yo‘lni qonga bo‘yash yozilgan
Ayrilganlar manglaylarida.
Qon-la tongga, tunga yozaman,
Yaqinlashib borar oramiz.
Chiqayotgan kunga yozaman:
“Bitib ketar ko‘ngil yaramiz”.

ISHQ

Men kuzga alvido aytaman shoshmay,
Yaproqlardan ko‘ngil uza olaman —
Xayrlashuv xatini sira adashmay
Yoza olaman.
Beg‘am, ehtiyotsiz do‘st-u dushmandan
So‘rab, so‘ramay ham oladirman haq.
Har qanday armondan, pushmondan
Ustunman mutlaq.
Qo‘lim uzun bo‘lar, g‘oyatda uzun,
Eng yuksak cho‘qqiga ko‘nglim tikaman.
Menga ming sirini ochar, hatto tun,
Tundan qizil gullar taqib chiqaman.
Sezmay bosib o‘tgum hasad tig‘ini,
Pisandmas kimningdir bergani firib.
Menga dunyoning bor ustunligini,
Ishq — Sen beradirsan yonimda yurib.
Dunyolarga sig‘may, yashasam boyib,
Gurkirab, Sen kuchga to‘lgan bo‘lasan —
Mabodo, yetimday qolsam mung‘ayib —
Shul kun ko‘ksim aro o‘lgan bo‘lasan.
Ishq...

* * *

Kuzning yonoqlari namli tuyular,
Qo‘rg‘oshinday og‘ir kuz so‘roqlari.
Yurakka nimadir hazin quyular
Va ko‘ra boshlaysan aniq dog‘larni...

Avj gullagan ko‘klam, saratonli yoz,
Kechagina edi poyimda bari.
Shu — dirillab turgan sariq yaproq rost,
Tushday o‘tib ketdi oldingilari.

Afsuslarni uzoq o‘tirib, chekmay,
Shoshib qo‘zg‘alaman, to‘zg‘igan to‘zim.
Endi unga dardim aytay kechikmay,
Ketib qolmay yaproq va yo men o‘zim.

Kuzning yonoqlari namli tuyular...

1985-yil 16-may

* * *

Bu erkak ayolning osmoni edi,
Yeri edi uning chopqillab yurgan.
Ko‘z ochib ko‘rgan ilk jahoni edi,
Taomi edi u ilk bor qo‘l urgan.

Urush yalmog‘izday solib kelib chang
Osmonini yutdi, yerini yutdi.
Nima olsa shu ayoldan oldi jang,
Uning ilk taomi — erini yutdi.

So‘ng ayol taomdan bosh tortdi, tolib,
Silkinib, yarqirab taramadi soch.
O‘sha-o‘sha ayol muallaq qolib,
Osmon-yerdan ayru yashayotir och.

Bu erkak ayolning osmoni edi.

1985-yil 16-may

MARHUMNING AYTGANLARI

Umidim shulmidi, Sizni ko‘rgan choq
Poyingizda gulday ko‘karsam devdim.
Kunlar botib, tonglar oqarguncha oq
Sizni qo‘llarimda ko‘tarsam devdim.
Bo‘lmadi, qo‘llarda ketdim qabrga
Sizga ko‘tartirib hijron yukini.
Endi sabr bersin Sizga, sabrga
To yechguningizcha erning ko‘kini.
Chunki o‘shangacha ketmasman bundan,
Ungacha qo‘nmasa ko‘kragimga dog‘,
Ayniqsa, gapimiz qovushar tunda,
Bag‘rimga kirasiz lovullab, quvnoq...
Yo‘q-yo‘q, yori jonim, qolmassiz yakka,
Men oldingidan-da g‘amxo‘r bo‘laman.
Yashirinib olib uyga, burchakka,
Kirsangiz otilib, quchib olaman.
...Shunday, ketolmasman besas, benavo
Siz nechun ko‘ndingiz bu ko‘k tullikka?!
Qismat Sizga uni ko‘rdi-yu ravo
Meni tanladimi qorovullikka?
Ketolmasman. O‘lim bizga bo‘lmas g‘ov!
...Qay bir tirik meni surib kelmasa!
Sizni qo‘llarida ko‘tarib birov
Qay bir tun yotoqqa kirib kelmasa...
Unda dunyoning bor yo‘llari bilan
Qochaman, o‘liklar — ojiz, bu bor gap.
Sizni ko‘targan shu qo‘llarim bilan
Chuvalgan kafanim tortqilab, sudrab...
Umidim shulmidi, Sizni ko‘rgan choq...

1984-yil 3-noyabr

BIR XATO IZTIROBI

(bir ayolning kundaligidan)

U kelar bag‘riga solib ishqdan ganj,
U kelar bag‘rimda sayraydi qumri.
U bilan uyimga keladi yupanch,
Yarim soat mening yupanchim umri.

O‘zimga joy topmay qolib shoshaman,
Unga otilaman sevib, o‘kinib.
Yarim soatgina to‘lib-toshaman,
Yarim soatgina... so‘ng qolgum tinib.

U qo‘l soatiga qaraydi ma’yus,
Ko‘ksimda nimadir qad ko‘tarar dast.
U chiqib ketadi, derazadan kuz
Mung‘ayib ko‘zimdan ko‘zini olmas.

Keyin tuyg‘ularim tutaman tunga,
Ko‘kragim bir o‘tdan achishadi, bas.
“O‘zimniki bo‘ling”, deyman men unga,
“Menikisiz” demoq qo‘limdan kelmas.

Keyin uzun tunlar o‘yga tolaman,
Tush ko‘raman, ko‘zim ilingani on.
Tushimda oq kaptar bo‘lib qolaman,
U o‘z qo‘llarida tutar menga don.

Uyg‘onib ketaman, uyg‘onib: “Nega?..”
G‘alayonli o‘ylar kelar bostirib.
Nechun o‘z uyiga bo‘lolmas ega,
Eshigimdan oshkor kelolmas kirib.

Nahot inson o‘z ayb, o‘z xatosining
Bir umr o‘ynasa o‘yinlariga.

Nahot bir umr o‘g‘lim o‘z otasining
Oshkor osilolmas bo‘yinlariga?!

Shu qismatni ravo ko‘rdimi hayot,
Qizdirsin deb g‘iybat, gap o‘chog‘ini.
Gulday tanim bilan bir umr, nahot,
Isitib yashayman tun quchog‘ini...

Oh ursam, ohimdan o‘t ketar tunga,
Qarg‘amay desam-da yoshlik, mastlikni.
O‘sha mastlik — MENI tutqazgan Unga,
Menga “MENIKISIZ” deyolmaslikni...

1984-yil 2-noyabr

XALQONA OHANGLARDA

Yig‘lasangiz yig‘lang hushyor, sergak uchun,
Ne bir yaxshi, yomon kunda tirgak uchun.
Opam, singlim, ko‘z yosh to‘kmang sira-sira
Ayolga baxt berolmagan erkak uchun.

Erkak o‘zi kimligini bilamakan,
Bir sirli, tilsimligini bilamakan,
Ishq gavharin ayoliga asrolmasa
Sho‘rpeshona, shumligini bilamakan.

Yo‘lga chiqsang yo‘ling bersa, boylanmasa
Xayollaring tiniyversa, loylanmasa.
Erkak erkakmidir ayol jilg‘a bo‘lib
Uni aylanib oqmasa, aylanmasa.

Dupur-dupur tulpor kelar tog‘lar bilan,
Erkak kelar dupurlab o‘ng-sog‘lar bilan,
Ayol qo‘li yollarini silamasa
Tulpor ketar ko‘kayida dog‘lar bilan.

Tulporlarim, ukam-akam, otalarim,
Ming-ming uyli xalqqa ehson, atolarim,
Hali munglug‘ ayol ko‘nglin topmapsizmi,
Bosgan izi xatolarim, xatolarim!

Bekor jang-u xunlar uchun aza oching,
Yolg‘iz o‘tgan tunlar uchun aza oching.
Hatto tog‘ning ayiqlari juft axtarar,
Siz so‘qqabosh kunlar uchun aza oching!

Yo‘qsa avval Sizga qarg‘ish tegar bir kun,
Yov yoprilib kelib Sizni egar bir kun.

Hali munglug‘ ayol ko‘nglin topmapsizmi,
Ko‘paymagan el kamayib tugar bir kun.

El qolmaydir, faqat boylik, yerlar bilan,
Odam topib ko‘r-chi na sim, na zar bilan,
Gumonim yo‘q, qay el qolsa yashab qolar
Ayolini elim degan erlar bilan!

1984-yil 3-noyabr

TINCH FONTAN QOSHIDA

Qanday go‘zal yig‘layolarding?!

Tomchi-tomchi billurday begard,
Yig‘ilgandir, ko‘zyoshingni to‘k.
Goh meni ham kuydirar-u dard,
Yig‘lolmasman, ko‘zyoshlarim yo‘q.

Qayg‘ularing yashirib nogoh,
Sir saqlamoq bo‘lasan nega?
Yig‘lab-yig‘lab sen bo‘lgansan shoh,
Sen bo‘lmassan quvonchga ega.

Senga orom bermas baxtli nay,
Senikimas bu hayotdan kech.
Shoir kuymay turolmaganday,
Shoir baxtli bo‘lmaganday hech.

Qanday go‘zal yig‘lay olarding?!

XAVOTIR

Juft halolim! Kulgusi sim-sim...
Oh urush-ey, ko‘kaying sinsin.

Sob bo‘lmasdan ayriliq, azob,
Nahot umrim bo‘lmoqdadir sob.

Siniq-siniq ko‘kayimga sen,
Dard-xo‘rsiniq ko‘kayimga sen,

Tog‘ ustiga tog‘lar qulatib,
Dog‘ ustiga dog‘lar qulatib,

Bor baxtimni yulib o‘tkazding,
Ko‘rmaganday qilib o‘tkazding.

Chimildiqqa kirgan dam qani,
Arslonvorim, bosh egam qani?

Qirq yil bag‘rim qiyilib kutib,
Bor lazzatdan tiyilib, kutib,

Sirlarimni oq qorga ayta,
Suyaklarim oqargan paytda

Kim ko‘tarar tobutimni jim,
Juft halolim, kulgusi sim-sim?

TO‘MARISNING AYTGANI

Ayolning og‘iri, qo‘rg‘oshini men,
Qasos meni ham silkitdi, qo‘ymadi.
Qonli xumga tikdim yov boshini men,
Qonga to‘ysin dedim, to‘ymadi!

Men ham nafis edim, sitora edim,
Qasosimga bo‘yinsunmaganimda.
“Zamon, zamoningga o‘t ketsin”, — dedim,
Xanjarimning damin sinaganimda.

Nabiram, Senga ham yetadi bu xun,
Asli yo‘q narsani so‘ramam Sendan.
Raqib duch kelganda yig‘lamay mahzun,
Qon yuqi xanjaring sug‘urgin qindan.

Qasos havolarin ochlik bilan yut,
Garchand sitorasan, nafis ayolsan,
Mening gumonim yo‘q ketmog‘iga o‘t,
Sen agar “o‘t ketsin” deya qo‘zg‘olsang...

1988-yil

* * *

Onang qariyolmas, qariyolmas otang,
Imkon yarat, qarisin ular.
Sen yo‘l qo‘ygan har bitta xato
Zardobday ularning ko‘ksiga to‘lar.

Toki Sen qoqilib yiqilaverasan
Har bir tosh, har xarsang, har bir qoyaga,
Qarimoqqa haqqi yo‘q ularning,
Yetib kelmoqlari shart himoyaga.

Do‘l urar... yomg‘irlar cho‘qir, bo‘lib tosh,
Ular bilan qat’iy qilolmasang jang,
Chopqillayveradi otang sho‘rlik yosh,
Bo‘zchining mokisi bo‘ladi onang.

1987-yil 14-may

MOSLASHUVCHAN ODAMGA

Bir vaqtlari chars-u chapani,
O‘z so‘zidan qaytmas eding sen:
Kapa derding turgan kapani,
Boshqacharoq aytmas eding sen.

Qirralaring o‘tkir tuyulib
O‘rgandilar, qotirdilar bosh,
Qirralaring bir-bir yeyilib,
Bo‘lding silliq, yum-yumaloq tosh.

Endi uni aytmoqlik uchun
Nom qidirib goh ochasan fol.
To o‘zgarib ketmasin mazmun,
Kapaga ham kelmasin malol.

Endi yo‘ling topib olding chin
Qatnab cho‘p-u cho‘pchaklariga,
Endi yashayverishing mumkin
Kirib, hatto cho‘ntaklariga.

1983-yil 23-oktabr

MEN HAM SENDAY...

Men ham senday yaproq qiyosli,
Titrab turgan bitta jonim bor,
O‘tavermoq mumkin deb, bosib,
O‘lmaydi deb bo‘lma, umidvor.
Men ham Senday kezarman noshod,
Yetmay baxtning bahralariga.
Meni ham ko‘p quvadi hayot,
Omadsizlik sahrolariga.
Porlab qolsam quvonchda, o‘tda,
Senga dunyo tuyulmasin tor,
Unutmagin, mening ham bitta,
Titrab turgan bitta jonim bor.

O‘RTALIK

Xo‘p yuksalmoq — ketmoqlik tuban,
Xo‘p yuksalmoq — yerga kirmoqdir.
Omad qancha siylamasin sha’n —
Taqdirimiz yerda yurmoqdir.

Ko‘kragimiz xoh yer, xohi tog‘,
Uzilmagan yerdan poyimiz.
Yer qattig‘-u, osmon ko‘p yiroq,
O‘rtaliqdir bizning joyimiz.

Mung‘aymagin, gap daromadi,
Sho‘rlik, yerga ketmassan kirib.
Havolanma, sen ham omadli,
Ko‘kka boshing olmassan urib.

1984-yil 3-may

TILAK

Ona, o‘tgan umrda baxtni ko‘rding oz,
Buyog‘i xotirjam kechsin kunlaring.
Ota, qiyomatga qolmagan qasos,
Bor bo‘lsa ko‘ksingdan ketsin xunlaring.

Senga yaxshi ayol tilayman, aka,
Biring ikki bo‘lib ro‘zg‘or gullasin.
Yaxshi-yomon kunda kelsin ko‘makka,
Non bo‘l — to‘ymasin ul, suv bo‘l — cho‘llasin.

Singlim, farzandimdan ortiqroq singlim,
Qulf urar qop-qora qoshlaring qiyg‘och.
Senga bir loyiq juft tilaydir ko‘nglim,
Tongda ko‘zing baxtning o‘pichidan och.

Sirda, sinoatda tushdik juda mos,
Jon do‘stim, sen desam so‘zni ulayman,
Hech kim mening kabi Senga fidomas,
Senga o‘zim kabi bir do‘st tilayman.

“Xalqim” deyman diydam to‘liqib yoshga,
Gullar, so‘lmas gullar tilayman Senga.
Tag‘in bu gullarni omon saqlashga —
Kurashchan o‘g‘illar tilayman Senga.

* * *

Onajon, o‘tir, bir hasratlashaylik,
Men nedir aytmadim, nimadir aytdim.
Barchasin unutdim, sen-la yashaylik,
Yugurik yo‘llarda to‘xtadim, qaytdim.

Onam, tanhoginam, yolg‘iz oyimsan —
Umring savollardir, yakkash savollar,
Sen mening ko‘krakda og‘riq joyimsan,
Kechir, ololmadim uni davolab.

Nega, nega so‘rar ko‘zlaring cho‘kib,
“Nega”lar sarg‘aytar rangingni kun-tun.
So‘roqlar ostida kuz yaproq to‘kib,
Ko‘klam kelaverar, QUVONCH bermas un.

Ta’rifi eng buyuk QUVONCHDIR — erning,
Ayol talpinarkan ming daryo kechib,
Sen o‘sha QUVONCHni urushga berding,
O‘zing g‘amgin buyuk HASRATni quchib.

Eshikdan egilib QUVONCH chiqar payt,
Sim qandoq chidadi ko‘krak — tordagi.
Yostiqlarga to‘kkan ming dardingdan ayt,
Ming sog‘inchingdan ayt, yostiqlardagi.

Boshqasin qo‘yaver, ortig‘i-kami,
Yuvsang ketadigan qo‘lning gardidir.
Eng buyuk g‘am, asli Quvonchning g‘ami,
Eng tabarruk dard ham sog‘inch dardidir.

Onajon, o‘tir, bir hasratlashaylik...

ONAMNING AYTGANI

Men-ku yerda yashaganim yo‘q,
Demasmanam Arshi a’loda.
Kamchilik yo‘q, ko‘zim-ko‘nglim to‘q,
Ammo bolalarim, bola-da.
O‘g‘lim-qizim, quyosh-oyim bor,
Ham siynamda ayriliq tig‘i.
So‘ng on qadar og‘riq joyim bor,
Bu — bosh egam o‘rnin bo‘shligi.

YOZDA...

Yozda ko‘p ishlarga mumkin ulgurmoq
Umringga vaqtida kirib kelsa yoz.
Yoz — bu to‘lin oyday yotoqqa kirmoq,
Ko‘krak kerib yurmoq — xuddi oppoq g‘oz,
Ishq — aqldan ozar yoz tunlarida,
Tepangda yulduz ham tik suzib ketar.
Ayol sochlarining to‘lqinlarida
Ko‘milgan erkakni oqizib ketar.
Yozda tez til topar yurak yurakka,
Yoz jon bilan sevsa unga fido bo‘l.
Ohing yetgan bo‘lsa, yuksal yuksakka,
Kuning bitgan bo‘lsa yoz qo‘lida o‘l.
Yoz bu tuyg‘ularda kechmoq faslidir
Sherik qilib yetuk, samoviy unni.
Ham tugunni, albat, yechmoq faslidir,
Ko‘klamda yechilmay qolgan tugunni.
Umrimizda yozdir, qaydasan, mardim,
Senga chopgum, ishqning yo‘llari bilan.
Qo‘rqaman, ne yechib, neni yozardi
Kuz o‘zin qaltiroq qo‘llari bilan.
Yozda ko‘p ishlarga ulgurmoq mumkin...

1984-yil 2-noyabr

KO‘Z

Ko‘zlar hali hayqira olur.
Rene Shar

Balli, ko‘zlarimdan dardimni uqding,
Ammo ko‘zlarimga kelmagil kirib.
Dardimni qo‘ymoqqa boshqa joy yo‘qdir,
Ko‘zimga qo‘yaman yashirib.

Buncha sinchkov bo‘lma, buncha topong‘ich
Ko‘zim daryosiga sho‘ng‘imagil, jim.
Axir, bu dunyoda eng bexavf va tinch
Dard yashirar joyim — mening shu ko‘zim.

1984-yil 2-noyabr

ISHONCH DARVOZASIDA

Ishonch qo‘rg‘onini qurib ketganlar,
Bu qo‘rg‘onda yayrab, yurib ketganlar.
Kimga zax ko‘rinib qo‘rg‘on ichi goh,
Chiqib o‘ng yo chapga urib ketganlar.

Urib ketolmadim yolg‘izgina men,
Ishonchingdan chiqdim. Qo‘rg‘on yopildi.
Darvozaga boqib holsizgina men
O‘ltiribman, oyoqlarim chopildi.

Hayot davom etar kulib gulgun, sho‘x,
Baxtlar chorlayverar, imlayverar shon.
Biroq ketmoqlikka menda oyoq yo‘q,
Bir kun darvozada berajakman jon.

1985-yil 16-may

KIRIB BORMOQ

Chuqur kirib bormang o‘ylaringizga,
Undan qaytib chiqmoq qiyindir, axir.
Har ishda, mana shu maslahat Sizga,
Chuqur kirib bormoq — mevasi taxir.

Ayniqsa, yurakning yo‘laklari tor,
Yo‘lning yarmiga ham bormasdan qayting.
Keyin xonangizning to‘rt yog‘i devor,
Uy, yuragingizda saqlangiz tartib.

Bu yo‘l-yo‘riq Sizga, men sizni yengdim,
O‘zimga bu so‘zni aytolmayman men.
She’rga chuqur kirdim, uyqu yo‘q endi,
Tonggacha bu yo‘ldan qaytolmayman men.

1985-yil 16-may

MENGA AYT...

Sen oyga qo‘lingni cho‘zib tolmagil,
Oy — oy-da, o‘rgangan, yolg‘iz hol, ketar.
Quyoshga dardingni to‘kib solmagil,
Qartaygan quyosh ham holsiz chol, ketar.

Sen tog‘ga qilganing bilan arzi dod,
Tog‘ — tog‘-da, sir bermay turgani turgan.
Cho‘qqidan kutmagil biror-bir imdod,
Egilgan cho‘qqini, aytgil, kim ko‘rgan?

Jilg‘aga sir aytsang toqating bitib
Chuldirab, sho‘x qah-qah otib ketadi.
Tosh, xarsang oralab, panalab o‘tib,
Kimgadir siringni sotib ketadi.

Menga ayt, mening bir qal’am bor tinch, keng,
Bu yurak, men uni chuqur o‘yaman.
Va Sening siringni o‘shal qal’aning
Eng xavfsiz yeriga ko‘mib qo‘yaman.

Menga ayt...

1981-yil 4-noyabr

KO‘KRAGI DOG‘LILARGA

Rivoyat qilurlarki: bir tabib charxlab pichoq,
Zog‘ ko‘ksini tilarkan ko‘rib qolibdi bir dog‘.

Voh, ko‘ksi dog‘lik erkan, bul zog‘ni qo‘yibdi ul,
Darhol tutib keltirib boshqa zog‘ so‘yibdi ul.

Yo Rab, bunda ham bir dog‘, yaqosini tutibdi,
Hayrat bilan uchinchi zog‘ ko‘ksini titibdi.

Dog‘ ustiga dog‘ emish, uchinchi zog‘ ko‘kragi,
Hayhot, shuncha dard cheksa, qushlar, hatto ko‘kdagi!

Va junbushga kelib ul ko‘ksin ochmish ming zog‘ni —
Oh urib har birida ko‘rganida bir dog‘ni...

Behol tabib yozibdi “bu dunyo ko‘p qadim”, deb
“Unda birorta zog‘i bedog‘ uchratmadim”, deb.

...Odamlarda bedog‘ dil, egilmagan qad uchrar,
Ko‘kragida bir dog‘ yo‘q, bedard, bo‘yi bad uchrar.

Ammo mening sharafim ko‘krakning dog‘lariga,
Ko‘ksi dog‘lini oldim ko‘zim qaroqlariga.

Yo‘q, yo‘q, behudaga hech ko‘kraklarga tushmas dog‘,
Shig‘il mevasin, axir, ko‘tarolmay sinar shox.

Qator o‘g‘il-qizini o‘stirguncha tik qilib
Otaning tik qomati qolgay, axir, bukilib.

O‘rib qirqta kokilni qiziga berguncha to,
Onaning o‘z sochlari to‘kilib bo‘lgay ado.

Yo‘q, yo‘q, behudaga hech ko‘kraklarga dog‘ tushmas,
Bizning lablar soxta so‘z, maqtovlarga qovushmas.

Haq so‘zimiz ro‘yoni, albat, o‘tajak yanchib,
Shu haq so‘zni aytgach goh qolar ko‘ksimiz sanchib.

Bizning yurak dog‘lidir, kim uchundir kuydik biz,
Kim uchundir ko‘krakda og‘riq, dardni tuydik biz.

Sog‘lom, bo‘m-bo‘sh qalb bilan yashamadik bekorga,
Yaralanib bo‘lsa ham, malham bo‘ldik bemorga!

So‘nggi yo‘lga ketarmiz, shafqatni tishda tishlab,
Dog‘li, yarador, lekin toza yurakni ushlab...

1986-yil 12-iyun

UCHINCHI QIZ

Shekspirning "Qirol Lir"
tragediyasini o'qib

Aytolmayman shirin so'z avrab,
Kechirolmam pastlik, gunohni.
Toza qalbi barcha o'qqa daf —
Men uchinchi qiziman shohning.

Opalarim o'xshash nusxa gul,
Maqtay olar silliq, shirali,
Men to'g'riso'z — yuragimga qul,
Bir yurakki chapdast, qirrali.

Opalarim zarga ko'madi,
Shirin aldoq, siylovi baland.
Meni erim olib jo'nadi
Yurak, shul bir bisotim bilan.

Keksa otam uchun talashib
Ardoqlashga topib ming so'z, rang,
Avval mushuk yanglig' yalashib,
So'ng soldilar ko'kragiga chang.

Mol-dunyosin bo'lguncha olib
Tantiq jonni unga tiqdilar.
Olgach, yurtdan oldiga solib
Shir yalang'och haydab chiqdilar.

Haq eshitdi, balki, ohimni,
Qaytardi-yu uni qo'limga,
Qutqarar chog' qiblagohimni —
Men o'zimni berdim o'limga.

Xalqim, seni o'rtamasin dard,
Boshginangga kelmasin-ku tun.
Ammo bilib qo'ymoqliging shart,
Men uchinchi qizman Sen uchun.

Sen Lir emas, Kordeliya — men,
Faqat abad Sen yemagin pand.
Haqning o'zi seni asrasin
Opalarim yanglig' qizlardan.

1986-yil 28-sentabr

BIR QADAM OLDINGA

Yuragim bexosdan ketdi-yu porlab
Yolg‘iz ko‘tarolmay xayollarimni,
Yashadim bir qadam oldinga chorlab
Dunyoning qimtingan ayollarini.

Bir qadam bo‘lsa ham oldinga tashlang,
Qarormi, taxminmi, chama oldinga.
Qo‘yning terisini uqalab, oshlab,
Kungayda o‘tirgan momo, oldinga.

Erkakning diliga yo‘l olgan ayol,
Ko‘ngil eshigida turib qolma tik.
Bol emassan, ammo bo‘la olgin bol,
Bir qadam oldinga tashla behadik.

Garchand bo‘liq yerday saxiydir taning,
Doim ham sochingni silamas hayot.
Yo Rab, xoin chiqdi sening tug‘ganing,
Bir qadam tashla-da, uni o‘zing ot!

Qoplab kelaversin yerlarni bulut,
Yetmas, tutasholmas sening baringga.
Indira Gandiday bir qadamga o‘t
Sakkizta gul qadab ko‘kraklaringga.

Iloham, yonarkan ko‘ksingda o‘ch, kek,
Qasos maydoniga kelarkan kirib,
Bir qadam oldinga o‘t To‘marisdek,
Yov boshini qonli xumga botirib.

Taqdirlari lavhin qon bilan yozsa
Yozgan, xiyonatda ko‘ngil yozmagan.

Bir qadam oldinga o‘tganlar ozsa,
Aqldan ozganlar, yo‘ldan ozmagan!

Bugun ham bir qadam oldinda shu gap —
Saraton, qahraton ivib qor, qonda,
Yerni, go‘daklarni o‘qdan panalab
Jasorat o‘tirar Grenem-Kommonda![1]

Ular fido, ular ado, erkka qul,
Quchog‘ingda shoxday shod o‘sganlaring.
Hayot, seni asrab qolganlar ham shul —
Bir qadam oldinda qon qusganlaring!

Bir kun buyuk hayrat etar bizni lol,
Murod manziliga yetar jami xalq.
Bir qadam olddagi qasoskor ayol,
O‘z onasi bilan ketar jami xalq!

1985-yil 21-iyun

[1] London yaqinidagi Grenem-Kommonda ayollar kapalardan shaharchalar qurib joylashib olishib, bu yerga qurol-aslaha keltirilishiga yo‘l qo‘ymayaptilar. *(Gazetadan.)*

ILK XATO

Kimdandir ayb o‘tdi, xato so‘z aytdi,
Aytishdik, so‘ng xato ketdi qalashib.
Biz yo‘lning yarmida ayrildik, qaytdik,
Qaytdik yo‘q narsalar uchun talashib.

Kimdir xato qildi, ermi yo xotin —
So‘ng qo‘shilaverdi xatolar qo‘sh-qo‘sh.
So‘ng huvullab qoldi xonadon bir tun —
Ikki yurak qoldi huvullab, bo‘m-bo‘sh.

Kimdir xato qildi, so‘ng boshlandi jang,
Keyin o‘liklardan ko‘tarildi tog‘.
Jahon urushin ham aslin so‘rasang,
Kimdir o‘ylamasdan yo‘l qo‘ygan xato.

Muhimi ilk xato, keyin qasdma-qasd,
Kurash mushkul ust-ust urush qorini,
Yigirma million shahid, hamma ham bilmas
Urushning dastlabki sababkorini.

Ilk xato, so‘ng kelar hijron, o‘lim tig‘,
Bevaqt bebaxt qolar ne begunoh jon.
Balki, bu dunyoda ulug‘dan ulug‘
O‘zin ilk xatodan tiyolgan inson.

1985-yil 24-noyabr

MUAMMO

Bugun muammodir ko‘lni asramoq,
Muammodir bog‘ni, gulni asramoq.
Boshqacha qursak deb takliflar qator,
Qiyin, hatto to‘g‘ri yo‘lni asramoq.

Eslasang... xotirga quyunlar ketgay,
Eslasang, qorayar ko‘zlaring oldi.
Qiyg‘os bog‘lar ketib shamolga betkay,
O‘rnida yap-yaydoq dalalar qoldi...

Har bir so‘zni mahkam, daraxtday ushlab
Silkitgin, har bir so‘z bersin sado, un.
Ko‘kartir, ko‘kartir tishingda tishlab,
Tilni asramoq ham muammo bugun!

So‘z tashib, so‘z tashib xuddi bolari
Biz qaygacha borsak, so‘z-la boramiz.
Siyrak tortib qolsa so‘z dalalari,
Uni bolalarga qandoq beramiz?

Yelkada ona til yuklari tursin,
Biz ketavermaylik o‘zni ko‘tarib.
Mehnatkash o‘zbekning bolasi yursin,
Paxta bilan qo‘shib So‘zni ko‘tarib.

1988-yil 18-aprel

DARAXT O‘Z JOYIDA

Daraxtlar doim o‘z joyida muqim,
O‘ylamay bir qadam tashlamas xato.
Daraxtlar ko‘tarar doim o‘z yukin,
Bir mevasin ortmas birovga, hatto.

Yaxshiyam, daraxtga bitmagan oyoq,
Til yo‘q, minnat qilmas, saqlaydi to‘zim
Voh, bu daraxtlar-ku tushunar, biroq,
Goh bu odamlarga o‘tmaydi so‘zim.

Yo Rab, daraxtga ham oyoq bitsa sha’n,
Nahot inson qaytgan joydan qaytadir,
Qayda Ona qolib, qaydadir farzand,
O‘zi o‘ynab yurar qaydadir?!

1984-yil 3-may

BIR ZINADAY QOLURMAN

Men ketaman, men ketaman
Qay bir kech yo ertada.
Mening kuyim bo‘lar tamom,
Kimdir tushar o‘rtaga.
Shul, o‘rtaga tushguvchiga
Qalam tutib o‘rgatay,
Goh oshkor-u goh ichimga
Dardim yutib o‘rgatay.
O‘rgatayin, mushkul hayot
Qo‘ymasin deb tindirib,
Chetga tortib qay johil zot
Bir cho‘pdayin sindirib.
O‘ziga yo‘l ochib olib
To‘pga o‘zin urmasin.
To‘pga zo‘rlar kirsin g‘olib,
Zo‘ravonlar kirmasin.
Shu o‘y bilan shul go‘dakni
O‘z yelkamda opichib,
O‘rtaliqqa kirayapman
Shon kechib, goh qon kechib.
Yetgunimcha umr ketadi,
Sochim bo‘yalar oqqa,
Ammo... go‘dak er yetadi,
Go‘dak turar oyoqqa.
O‘rtalikda... shod bo‘larman
Bong ursa ul yovqur, mard.
Balki, shul kun... men o‘larman
Ketib armon, ketib dard.
Va... jon berib qo‘lida men
Tuproqdan joy olurman.
Ul yuksalar, yo‘lida men
Bir zinaday qolurman.

1984-yil 7-oktabr

* * *

Hayotning ko‘zidan o‘pib, suyunib,
Uni “O‘, hayot!” deb yozganlar o‘tdi.
Ilk tun, u kelinday oppoq kiyinib
Kirganda, bag‘riga bosganlar o‘tdi.
Shundaylar o‘tdiki... o‘tishi yengdi,
O‘tganday bog‘ tomon, o‘tloqqa tomon.
Shundaylar o‘tdiki... qolganlar endi
Mardroq bo‘lib qarar... o‘tmoqqa tomon.

1984-yil 11-noyabr

DUGONAM SAODATNING SO‘ZI

Agar aytsang, xushbaxt oning yo‘q,
Agar aytsang, xonumoning yo‘q,
Aytmaslikka ham imkoning yo‘q,
Bir so‘zing bor yorug‘ dunyoda.

Agar aytsang, xazon sendek gul,
Agar aytsang, yashnoq bog‘ing kul,
Aytmaslik ham mushkuldan mushkul,
Bir so‘zing bor yorug‘ dunyoda.

Garchand u so‘z Sendan ko‘p yiroq,
Agar aytsang kukun tosh-u tog‘.
Aytmasang, bir umr o‘rtar dog‘,
Bir so‘zing bor yorug‘ dunyoda.

AGAR KO‘PRIK BO‘LSANG...

Ko‘prik bo‘lsang, menga shu bo‘lar nafing,
Narigi odamga o‘tib olayin.
Kuzat, mendan oldin o‘tmasin gapim,
Unga avval o‘zim yetib olayin.
Aytgan-u aytmagan gaplarim “gullab”,
Ko‘payib, u yoqqa o‘tib turmasin —
To men o‘tganimda DO‘STMAS, talay gap
Tiqilgan QOP meni kutib turmasin.

1984-yil 1-dekabr

CHINNI KOSA

O‘g‘il-qizi gullab, ko‘karib
Yetilganda, odamlar oldi.
Har birini boshda ko‘tarib,
Ona o‘zi bukilib qoldi.
Bugun ular yasharlar bekam,
Qo‘ndirmaslar kiprikka gardni.
Ammo hamon dil o‘ksigan dam
Borib unga to‘karlar dardni.
Bor g‘urbatni — eskimi, yangi,
Aytib-aytib o‘yga toldirib,
Qaytib uchib ketarlar, yengil,
Yuklarini unga qoldirib.
Og‘ir, bedor kechar yana tun,
Ko‘kragida ortadi og‘riq.
Farzandlari... esga tushgan kun
Xat yozarlar tilashib sog‘liq.
Xato, xato, xato bu hollar,
Bu yozug‘ni o‘zing o‘chirgil.
Turli yoqqa esgan shamollar —
Farzandlarni o‘zing kechirgil.
O‘nta farzand o‘n baxtga ega,
Har birin o‘z ishq-u g‘azali.
O‘nta go‘dak talashib yegan
Bitta chinni kosa asalim!
To‘xtang, uni tinmasdan ichib,
Yeyapsiz-ku uni tinmasdan.
O‘n tomondan o‘nta qush uchib,
Yetib boring kosa sinmasdan.
To‘g‘ri, ro‘zg‘or nondir, ro‘zg‘or suv,
Ammo Ona, Onadan nari.
Tortarmi qiz qo‘g‘irchog‘i-yu,
O‘g‘ilchaning samokatlari...

To‘xtang, bunday yashamoq tahqir,
Sizni qanday taqdir kutmoqda?
O‘novingiz yararsiz, axir,
Bir kampirni boshda tutmoqqa.
Yashayapsiz go‘dakka o‘xshab,
Kerak paytda solmay qoshiq, chang,
To‘xtang, kosa qolmasdan bo‘shab,
To‘xtang, kosa sinmasdan to‘xtang!

1986-yil 28-sentabr

BIR AYOLNING O‘TMISHI

U begunoh pok ayol bugun,
U egilgan majnuntol bugun,
Ko‘zlarida mehr, bol bugun,
Kecha qandaydi?

Oy yig‘lagan, yig‘lagandi yel,
O‘t-qon bilan qorishgandi el,
Ammo uning ko‘z yoshlari sel
Bo‘lgan emas biror bir payti.

Jang boshlanar, bosib kelar yov,
Eri ketar bo‘lmoq uchun g‘ov,
Yov yo‘liga, kechib suv, olov.
Ayol gullardi.

Uch go‘dagin ustidan qulflab,
Davralarda ochib ko‘ngil, ta’b,
Qora tunlar ichra bo‘lib daf,
Tanin pullardi.

Kattasi asray deb jonini
“Qovurmoch” deb maqtab nomini,
Xom-xatala makka donini
Yedirardi kichkintoylarga.

“... Qozonda sut yotibdi achib,
Sirkalabdi singlisin sochi,
Ketmoqlikning yo‘qmi iloji
Onasi ketmas bir joylarga?!

Yo‘q, iloj yo‘q...” qarasa bir choq
Singilchasi dokaday oppoq

Shishib borar... Singlisi, biroq
Ketib qoldi, tongda, jon berib.

Qulf shiqiri, g‘imirlar ovul...
Ayol kirar tag‘in ochib gul.
Uvvos solgan to‘ng‘ichini ul
Og‘zin yopdi tishlam non berib.

U begunoh, pok ayol bugun...

QASOS

To‘xtang, uchmoq erki hamisha qo‘lda,
Ey, poygada otday terga botganlar.
Sinchkovroq tikiling, ko‘rinar yo‘lda
Ma’yus Sizdan ketib borayotganlar.
Turmush yuklaridan yelkasi yag‘ir
Bir-bir bosib horg‘in, hansiragan chol
Bukchaygandir sizni ko‘tarib, axir,
Oyoqlari tolgan sizga tashib bol.
Bugun ichi g‘ovak, omonat tolday
Har shamol, to‘fondan g‘ichirlar, qarib.
Siz g‘oliblik jomin ichasiz zalda
Qip-qizil yuzingiz battar qizarib.
Bir burda, munkaygan mana bu kampir
Jilmayib tursa ham xokisor, mayin,
Yarimdir, uning ham ko‘ngli yarimdir,
U ham ketib borar Sizdan on sayin.
Emranib “jon qo‘zim” deganlarida
Yo‘qsiz, qolaverar tillari kuyib.
Siz bu payt televizor ekranlaridan
Boqasiz g‘oliblik tojini kiyib.
O‘zlariga taskin berishar to‘lib:
“Men bolamni deyman, bolam bolasin”.
Bu taskin gulini tashlayman yulib,
Siz ham ne eksangiz shuni olasiz!
Karomat qilaman, Sizning ham farzand
Dong‘i olar yer-u ko‘kdan narini.
Faqat, o‘zi bilan o‘zi bo‘lar band,
Tanimaydi qavmi, tug‘ganlarini.
U ham o‘z baquvvat oyog‘i bilan
Sizning yuzingizni bosib yashaydi.
Dunyoda qasosday bir dor bor, baland,
Ul Sizni shul dorga osib yashaydi!

YIGIT IZTIROBI

Qushim, Seni ovchi otdi
Degandim, yo‘q, sovchi otdi.
Yuksakdan-ku sen qulading,
Toshlar nega menga botdi.

Sovchilarning tili burro,
Men xor-u zor, xasga tengman.
Ko‘kdan-ku Sen tushding, biroq
Yer bag‘irlab qolgan menman.

Endi yo‘qdir ishq — qo‘llovchi,
Endi yo‘qdir yo‘lim mening.
Yo Rab, seni otgan ovchi
Bilmaydir bu — o‘lim — mening.

OLOV SARI

Aftga berib jiddiyatning tusini
Eshigingga sirtdan, ichdan qulf urib,
Tashqarida qoldirib gul isini
Vazmin ketadirsan uyingga kirib.
Bu holatdan g‘uncha kular qiqirlab,
G‘uncha nima, o‘ylab ko‘rsang tanangga.
Tun chog‘lari bir-birini “yur-yur”lab
Oy nurlari kirmoq bo‘lar xonangga.
Qiziq, to‘siq bo‘lmas ekan nur uchun,
Qo‘ya qolsa bo‘lar sirtdan mo‘ralab,
Bu oy nuri sarkash boladay nechun,
O‘taverar panjaralar oralab.
Xonalarga joni sig‘may bola xit,
Tushlarida chorlar dala, o‘ngirlar.
Oyning nuri senga berar xalaqit,
Bu nur, balki, uydan bir ne o‘g‘irlar.
Nurdan qo‘rquv, qo‘rquv guldan, quyoshdan,
Bor qo‘rquvni bir qulf bilan yengasan —
Hadik tanish, notanishdan, tengdoshdan
Sen hadig-u bitta qulfga egasan.
Mana, shunday dilingga ham qulf solib,
O‘tayapsan bir kimsani yo‘latmay.
Bir kimsani bag‘ri aro yo‘qolib,
Bir kimsani bir daraxtday gullatmay,
Sirdosh bo‘lib taqdiringga yig‘layman,
Deysanki, ko‘p bu hayotda olg‘irlar.
Qo‘rqasan-ki, bermasinlar tag‘in pand,
Olmasinlar yuragingni o‘g‘irlab.
Yo‘q! Ayt menga, kimga deb berkitursan,
Dur-u gavhar sandig‘iday uyingni.
Asrab-asrab, qayga olib ketursan,
Rayhon hidli dur-u jism-u, bo‘yingni.

Men qo‘rqaman, oyoq bosmasdan birov
Qulfli uying zaxlab cho‘kib qo‘ymasa
Va yurak ham bo‘lavergach sabr-g‘ov,
Kuz guliday bargin to‘kib qo‘ymasa.
... Bir kun kelib, uying ochsang, ko‘ksing dud,
Unda ayon bo‘lar ko‘pning kirmasi.
Unda, unda so‘raganlar sendan o‘t,
Ketar o‘zga olovlarga chirmashib.
Yo‘q, yo‘q, tushmoq ayanch toqat tog‘idan —
Uy, dil qulfin buzib chiqmoq tashqari.
Qochmoq kerak yolg‘izlik quchog‘idan,
Ketmoq kerak olov sari, ishq sari!

KO‘NGLI YARIM...

Ular bir-biridan ketayotgan vaqt
Hamma narsa talash o‘rtalarida.
Bugungi kunida yo‘qdir bugun baxt,
Ertangi baxt yo‘qdir ertalarida.

Hamma narsa talash: uy ham, mebel ham,
Har biri istarki, ko‘prog‘in olsa.
Tog‘dagi qor talash, bog‘dagi yel ham,
Yo‘lin topsalar-u, sumkaga solsa...

Qattol kurash ketar, jangki shiddatkor,
Har biri dengizday tortar qa’riga.
O‘rtalikda bitta mitti go‘dak bor,
Hech iloj yo‘q shuni bo‘lmoqlariga.

Albatta, kurashib oladi biri,
Xursand olib ketar bag‘riga bosib.
Ammo bo‘lindi-ku go‘dak taqdiri,
O‘rtalikda Uni qo‘ydilar osib.

Endi baxti nimdir, toleyi nimdir,
Ota-ona uning boshiga yetdi.
Kim bilan qolsa ham, ko‘ngli yarimdir,
Chunki yarim ko‘ngli uzoqlab ketdi.

* * *

Avval o‘qigandim ushbu kitobni,
Bu tun tag‘in unga egildim suyib.
Satrlar quvardi ko‘zimdan xobni,
Satrlar ortidan borardim kuyib.

Nogahon, boshimga uriladi qon,
Kitob varaqlari olingan yirtib,
Bo‘g‘ilib bo‘g‘zimga kelayotir jon,
Baxt edi, bu baxtni ketdilar kemtib.

Nogahon ko‘ksimda bir tundlik tuydim,
Kutganim — xushbaxt on bo‘lmadi nasib.
Men, axir, xo‘p to‘yib yig‘lamoqchiydim —
O‘shal varaqlarni ko‘ksimga bosib.

O‘ ko‘nglim, o‘zingdan ber menga xabar,
Asrasam ham ko‘zim qaroqlariday.
Kirmadimi Senga fahmi ko‘r-u kar,
Yirtmadimi kitob varaqlariday.

Tushmadimi biror jarohatli iz?
Tun bo‘yi bag‘rimga bo‘ylab qoldim men.
Yo‘qolgan shu kitob varag‘i bois,
Ko‘nglim butunmikin... o‘ylab qoldim men.

KUZGI TASKIN

Derazaga qarasam bog‘ni kuz qilmish ishg‘ol
Oltin ziraklarini butoq-shoxlarga ilib.
Derazadan qarasam kuz — eng yoqimtoy ayol,
Bog‘da mahzun kezinar yaproqlari to‘kilib.

Yoqimtoy ayol aytmas ko‘ksida shavq, g‘amlarni,
Sabolar etaklarin tortqilashib yuribdi.
U mevasin uzishi shart bo‘lgan bu damlarni
Qachon kelib qolganin tushunolmay turibdi.

Bog‘ burchidan buralib chiqib kelar navo, nay,
Qushchalarning qo‘shini yuqorilar ko‘k sari.
O‘ynab-o‘ynab yumalab uxlab qolgan go‘dakday
Yerda tam-tam mevalar, ketsang sevib, ko‘tarib!

Serhosil daraxt shunday ma’yus tortar kuz kirgach,
Endi umri — uchquri tinmay yugurgan kabi.
Qator o‘g‘il-qizlarin turli bog‘ga uchirgach,
O‘zi bo‘sh qolgan uyday xo‘rsinib turgan kabi.

Ko‘klam, yoz-ku qulf urding yozg‘irmasdan taqdirdan,
Ichding shirin may kabi umrning xush kunlarini.
Oltin kuzim, yo bexos anglab qoldingmi birdan
Gal kelib qolganini qaytarmoqqa barini.

Bir boshga bu dunyoda hisob berar bir kun bor,
Bu ur-surli olamda ming yutqazdik, ming yutdik.
Yo dunyodan kichik nur o‘g‘irlab biz o‘tdik xor,
Yo o‘z kichik nurimiz olib dunyoga tutdik.

Rostdan ko‘ra, kuzim, Sen o‘xshaydirsan afsunga,
Kipriklaringni ko‘tar, horg‘in ruhing yonsin sha’n.
Axir, Sen taqir emas, Sen kelding-ku bu kunga
Oftobda mast uxlagan g‘uj-g‘uj go‘daklar bilan.

YANGI YIL KECHASIDAGI JOMSO‘Z

Har yangi yil kirar ekan, jomso‘z aytgali
Qadahiga har kim mahzun bir zum tikilar.
Jomso‘z asli bir bahona, ortga qaytgali
Shu lahzada yurak ezgin, yurak to‘kilar.

Bir yil o‘tdi bazm yanglig‘ qisqa umrdan,
Tag‘in bir qur barglarini yerga berdi bog‘.
Yil o‘tibdi... sergak tortib qolaman birdan:
Men yil bo‘yi yashadimmi ishq bilan inoq?

O‘ylayapman... goho bois turli sabab, sas,
Uning menga, mening unga mahtal kunimiz.
Uzoqmikan... axir, ikkov bir kunda ketmas,
Ikkimizning so‘ng kunimiz, mahshar kunimiz.

Siz-chi, ayting, ul eshikdan uchib kirgan on
Uchib-qo‘nib quchog‘iga otildingizmi?!
“Keldingizmi?” shu bir so‘zni titroqlarda jon
Hayrat bilan aytmoqlikka botindingizmi?

Keldingizmi, shu bir so‘zdan bag‘ri but bo‘lib,
Qo‘sh jilg‘aday ul shoshdimi, Siz shoshdingizmi?
“Keldim, keldim”, ul kirganda yonib, o‘t bo‘lib,
Bir o‘t kabi Sizam unga tutashdingizmi?

Shul tutashuv onlarida jomday to‘lay deng,
To‘kilay deng, to‘kilmaslik, to‘lmaslik gunoh.
Panoh bo‘l deng, men bir umr qaram bo‘lay deng,
Ishqqa qaram shu lahzani yashaganlar — shoh.

Xayolingni oppoq qorlar o‘ragan tunda,
Yo‘q, havoyi havaslarga ichar vaqt emas.

Ming, millionlar yashayotgan bu keng zaminda
Ul qidirib Sizni topdi, bu kam baxt emas.

Endi esa... tag‘in ko‘p gap aytar qorli tun
Bu birlikning kiprigiga qo‘nmasin deb gard.
Oraliqdan hijron o‘sib chiqmasin uchun
Siz uzluksiz tutash yashab bormog‘ingiz shart.

Chegarada soldatlarmas, men o‘ylagan dam
Chegarada erkak-ayol qad tiklab turar.
Ular tutashib tursalar, quchishib mahkam
Yov bu yurtga qay tomondan yo‘l topib kirar?

Ular tutashib tursalar, quchishib mahkam
Shamolidan bahra olib o‘sar go‘dak, bog‘.
Shu birlik tik turganida g‘ammi — qolgan g‘am,
Bu birlik uy, yurtni yovdan to‘sar yuksak tog‘.

Bu yangi yil tuni — yilning eng ilk ishq fasli,
Inson buyuk — ishqning buyuk sirligi uchun.
Bu dunyoni tutib turgan shu birlik asli,
Ko‘taringiz erkak-ayol birligi uchun!

1977-yil 27-dekabr

SHOIRA SINGILLARIMGA

Opangizdan o‘tibdi, goh sarxush, goh g‘ash yurib,
Nish urgan gul-chechakni sezmay qolayozibdi.
O‘z-o‘zi bilan mashg‘ul, xayol aralash yurib,
Ortdagi kelajakni sezmay qolayozibdi.
Balki, sizga sal befarq boqib ketgan opangiz,
Xayol daryolarida oqib ketgan opangiz.

Sezib qoldim, Siz meni ta’qib etasiz tinmay,
Yaqin-yiroqdan ruhim, she’rlarimga mo‘ralab,
Chiqib kelayotibsiz ko‘rinib, goh ko‘rinmay,
Qishloq, paxsa devorlar orasidan oralab.
Keling, aylanib keling, yulduzim, oylarimga,
Yo men tavobga boray tug‘ilgan joylarimga.

O‘zingizni ko‘rmasdan she’ringizni tanidim,
Bilaman, qaylardadir raqs tushyapsiz eshilib,
Qayda bo‘lsa ham har xil nigohlardan panada,
Balki, oy yorug‘ida qushlar bilan qo‘shilib,
Daraxtlarning shoxida yalangoyoq o‘ynaysiz,
Go‘daklikning bog‘ida daydi, sayoq o‘ynaysiz.

O‘ynay-o‘ynay bir kuni tongda kelarkan kirib,
Sizni jildiy nigohda kutib oladi shahar.
Ko‘ksingizni tartibli o‘tlar bilan to‘ldirib,
Bora-bora boringiz yutib oladi shahar.
Asta-asta ko‘nikib, sizam shuni xushlaysiz,
Tunda hammadek uxlab, kunduzi tinch ishlaysiz.

Keyin sevibmi, sevmay bir yigitga tegasiz,
Keyin... o‘g‘il-qiz qator... har tarafdan boy bo‘lib,
Bir kuni qaraysizki hamma baxtga egasiz...
So‘ng to‘lisha boshlaysiz o‘n besh kunlik oy bo‘lib,

Hayhot, ul kun yig‘larman dilimga dog‘ to‘ldi, deb,
Bu to‘lishgan vujudning ruhi halok bo‘ldi, deb.

Deysiz, shoir kim o‘zi, qandoq shoir bo‘lgansiz?
Yo‘q, she’r yozay deb yozib ko‘chirmaganman oqqa.
Undan ko‘ra so‘rangiz qay o‘qlardan o‘lgansiz,
Qaysi o‘qlar qaytadan qo‘ygan Sizni oyoqqa!
So‘rang, yuragingizga qachon sanchilgan tig‘lar,
Axir, azaga borgan o‘z dardin aytib yig‘lar.

Shoir esa... yo‘q, faqat o‘z dardidan kuymaydir,
O‘zga g‘amdan sarg‘aymay, o‘rtanmagan vaqti yo‘q.
Toki yerda bir inson g‘am o‘tida kuygaydir,
Degayman, bu dunyoda shoir zotin baxti yo‘q.
Aro yo‘ldasiz, singlim, yo she’r deng, yo tinch baxtni,
Ko‘rmadim bu ikkisin birday ko‘targan taxtni.

Burgut palaponlarga uchmoqni o‘rgatgan chog‘
Ayamasdan tashlarkan eng yuksak qoyalardan.
Menam sizga bor gapni aytib turibman shundoq,
Siz ustunsiz yumshoq so‘z, mijg‘ov himoyalardan.
Qoyalardan tushganda qolgaymikansiz tirik,
Unda bir tishlam nonga siz-u biz abad sherik.

Unda men oldindagi tog‘lar umrin tilar chog‘
Suyunib ham qo‘yaman, ortda ham tirak bor deb.
Xotirjam ketajakman, bir kun tog‘day qular chog‘
Ortda mendan ortiqroq kuyunchak yurak bor deb.
Qachon yetib keldingiz Siz ortimdan kuyunib,
Qachon olaqoldingiz balog‘atni kiyinib?

Opangizdan o‘tibdi, qandoq sezmadim Sizni...

1983-yil 22-oktabr

NATALYA GONCHAROVAGA

Bilmam, Pushkinni sevmoq baxtsizlikmi yoki baxt,
Xonim, Sizga ham yashash tushmagandir osonga.
Ammo bitta tuyg‘uga inonganman hamma vaqt,
Sizni Humo qushiday ul ko‘targan osmonga.

Natalya! Kim yaratgan Sizni qo‘l bilan chizib,
Siz ilohiy husnda shoirni etganda rom,
Ulkan fikr daryosin qirg‘oqlarini buzib
Oftob keldi Siz bilan, ham yonma-yon keldi shom.

Sizni isitmadimi berib bor dil cho‘g‘ini,
Eng qaynoq tuyg‘ularin baxsh etmadimi Sizga.
Porloq shon-shuhratini, qanotli dovrug‘ini
Sochmadimi gullarday poyi qadamingizga.

Turli illat, g‘amdan goh kuylasa ham o‘ksinib,
Sizgacha shoir, hatto yoqardi-ku ayozni.
Nechun Sizni sevgach goh ruhin qanoti sinib,
“...She’r yo‘q. Kunlar o‘tyapti. She’r kelmaydi...”
deb yozdi.

Mayli, ne o‘tsa o‘tgan, o‘rtada bir asr bor,
Deyman-u, bu fikrga etolmayman o‘zni jalb,
Kechiring, shu jumladan tuyulasiz gunohkor,
Balki, Siz sabab soviy boshlagandir daho qalb.

Qandoq nafas olgansiz ustun kelib bo‘hton, kin,
Ortdan shoir nomusin sotayotgan paytlarda.
Yovuz raqib mo‘ljallab, uning durday yuragin,
Hatto qo‘li qilt etmay... otayotgan paytlarda.

Oh, ayol, biz ayollar shirin so‘zga buncha o‘ch,
Goh bor xushomadgo‘yning bo‘lamiz ko‘nglin olmoq.

Balki, o‘sha lahzada yolg‘iz sevgilimizning
Ko‘kragida biz uchun boshlanadi yo‘qolmoq.

Keyin, xuddi Siz kabi g‘urur, ishqdan olisda
Ohlar urib chorlarmiz, yetim qolgan ishq, sirni,
Bir lutfiga arzirmi Dantes degan olifta,
Hatto Sizdek parivash bir she’riga arzirmi?

Ul-ku husningiz kuylab yondirdi olomonni,
Halok bo‘ldi tojdor erk, ishqqa tushirmay soya,
Ul Xudoday sig‘inib Sizga, ishqqa inondi,
So‘ng mash’um on ne uchun ishq qilmadi himoya?!

O‘ylasang... kelaverar shu xil turfa tuyg‘ular,
Asli bugun Sizni ham olqishlaymiz turib tik.
Axir, yuz yil, ming yilda Pushkin bitta tug‘ilar,
Baxt emasmi shu ulkan Dahoga yostiqdoshlik!

Siz husnin ovozasi yuz yillar osha ketgan
Kibor rus olamining sanamlarin birisiz.
Yo‘q, yo‘q, Sizni ularga teng qo‘ysam xato ketgum,
Siz Pushkinday insonning sevgisi, taqdirisiz!

Yuz yilda bu tuproqdan yuz ming sanamlar o‘tgan,
Behisht bog‘lari aro sim-sim sabolar kabi.
Nozik, sarv qadlarin bul kun tuproq berkitgan,
Bul kun kimligi unut, unut nasl-u nasabi.

Ammo Siz-chi, tirik o‘t bor ekan to qonida
Odamzod Pushkin bilan toabad aylar visol.
Demak, Siz ham to abad o‘lmas Pushkin yonida
Porlab kelaverasiz, toza, harir gul misol!
Bilmam, Pushkinni sevmoq baxtsizlikmi yoki baxt.

1977-yil 12-may

INTIQOM

Bir tomondan lovullab bir qiz tashlar ko‘z qirin,
Bir tomondan sho‘x yigit mehr talab, ishq talab.
Tillashdilar, juda tez tushundilar bir-birin,
Tushunarli til bo‘lgan hamisha ham ishq tili.

Keyin behisht bog‘lari yerga ko‘chdi, ko‘kardi,
Odam xushbaxt qo‘sh bo‘lar ishq bolini totgan kun.
Keyin kuyov kelinni boshlarida ko‘tardi,
Sig‘madilar dunyoga, go‘dak, seni topgan kun.

Shunday, avval ko‘p tashna, ishqni suyib ichdilar,
Ammo... o‘rtada sovuq shamol esib o‘tgan dam,
Bir-biridan ildamroq, bir-biridan kechdilar,
Nafrat tili hamisha — xanjar, kesib o‘tgan dam.
Bir-biridan uchqurroq ikki yonga uchdilar.

Ular-ku ish qildilar yo bilmayin, yo qasddan,
O‘z -o‘zlarin o‘ylashib, o‘lda-jo‘lda Sen qolding.
Ular ikki tomonga ketdilar to‘xtamasdan,
To‘xtab, qo‘llaring cho‘ziq, aro yo‘lda Sen qolding.

Qutlug‘ quvonch eding sen, oh boshingga yetdilar,
Qushim, bu ne mahzunlik, keksayib ulguribsan.
Osh-nonga zor bo‘lmagan zamonda zor etdilar,
Mehr tilab turibsan, shafqat tilab turibsan.

Ular biri biriga berolmay qolsalar dosh,
Ajralsa bir-biridan ikkilanmay, ko‘ngil to‘q,
Nechun Sening ko‘zingda qalqimog‘i kerak yosh,
Senga tegmog‘i kerak, nechun ular otgan o‘q?

Urush yillardagiday yetim qolding tonglarda,
Go‘dak, endi ko‘zingni sog‘inch, armon to‘ldirgay.

Bitta farqi — urushda ota o‘lgan janglarda,
Bitta farqi — onani azob, hijron o‘ldirgan.

Sening otang-onang-chi, yurarlar gasht surishib,
Bo‘m-bo‘sh uyday ko‘ksini kundan kunga tutib tik.
Baxt barbod-u otangning ishi ketgan yurishib,
Baxt barbod-u onangning gul-gul yongani qiziq.

Nega dunyo qoraymas bu haqsizlik changidan,
Nega hamon dard tug‘ar bu omonat ishq-u shon.
Ular farzand toparlar yangi baxtdan, yangidan
Yangi ota-onani Sen topmaysan, bolajon.

Hali go‘dak ko‘ksingni ne tuyg‘ular dog‘laydir,
Xotirang osmonida ular yurgaylar suzib.
O‘ylanasan, o‘y Seni ular bilan bog‘laydir,
Yo‘q, ulardan o‘zingni olgin ajratib, uzib.

Sen ularga farzandmas, hech ushalmas armonsan,
Ikki ko‘ngil tubida bitmas yara, o‘chmas cho‘g‘.
Sen ularga o‘qilgan umrlik ayb, farmonsan,
Ketkazib bo‘lmas dog‘san manglaylariga yozug‘.

Men qo‘rqaman bu dog‘ni yuvmoq uchun yetmas suv,
Qor yoqqach iz, intiqom doim ketmas bosilib.
Sening ikkita qo‘ling dor arqoni bo‘lar-u,
Otang-onang bir tongda unda qolgay osilib!

Ular o‘zi g‘isht quydi shu yozuqqa, asosga,
Garchand hamon yashaysan ishq, shafqatga och, ilhaq.
Endi qutlug‘ quvonch — Sen aylangaysan qasosga,
Hukm qat’iy, al-qasos-ul, al-qasos-ul min-al-haq!

1984-yil 7-yanvar

SIZ MIXSIZ...

Siz otsiz, minishib chopishar poyga,
Siz mixsiz, qoqishar istagan joyga.

G‘addor, g‘alamusga tez kelasiz kor,
Birovni qilmoqchi bo‘lsa yarador.

O‘zi birov ko‘zin silab qo‘yadi,
Lek Sizning qo‘lingiz bilan o‘yadi.

Ammo Sizni laqma deb bo‘lmas ko‘pam,
Sizda istak bordir shularga kam-kam.

Ya’ni birov aytdi yonar bir so‘z, gap,
O‘ylaysiz yo‘l topib, qilmoq kerak daf.

Birov birdan toshib, naq dengiz kelar,
Shuning qadamini qirqqingiz kelar.

Buni sezib, kimki bosh ko‘tarsa kaj,
Tanobin tortmoqqa qidirasiz vaj.

Sizdagi og‘riq yer — mana shu, xullas,
Buni chuqur bilar ul g‘addor, ul kas.

Shundan qurbon izlar, Sizni tig‘ qilib
Va istagan joyga qoqar mix qilib...
Siz otsiz, minishib chopishar poyga....

QARI OTNING AYTGANLARI

Charchadim, qorishib ketyapti yer-ko‘k,
Bunchayam uzayib yotmasang tosh yo‘l —
Yo‘l bo‘yi miyamga urilar taq-tuq,
Buncha tuyog‘imga botmasang tosh yo‘l.
Men netay, meniyam tinmay yurgim yo‘q,
Tanbal aravani yetaklab, osib.
Aravaga nima, yashar ko‘ngli to‘q,
Ichiga cho‘p tiqib, bedani bosib.
Ustiga egamning o‘ziyam chiqar —
Egamga ham nima, uxlar dong qotib,
Goho uyqusirab kimnidir so‘kar,
Goh yo‘l bo‘yi ketar xayolga botib.
Ammo egamga ham ba’zan qiyinday,
Bilmam, u egamga boshliqmi yo yov,
Qora terga tushib biz yetsak tunda,
O‘shqirar “tonggacha yana bir qatnov”,
Mendanam bu sho‘rlik egamga azob,
Bexavotir o‘ynab-kulgan kuni yo‘q,
Boshlig‘ining qopi — xuddi o‘pqon qop —
Yil bo‘yi tashiymiz, to‘lgan kuni yo‘q.
Egam yigit edi, oqardi sochi,
Men ham sho‘x toy edim bugun qari, po‘k.
Ko‘rganimiz shu yo‘l — bizni ko‘z ochib,
Boshliqning uyidan o‘tganimiz yo‘q.
Yo‘lda shamol ko‘zni to‘ldirar qumga,
Shundoq o‘ylab borib, shundoq qaytaman —
Egam bu gaplarni aytmas hech kimga,
Men, har qalay, Sen — tosh yo‘lga aytaman.

YOLG‘IZ BOSHNI...

Ming xil chiqit qo‘shilmoqda oqar suvlarga,
Sayoz tortib ko‘rinmoqda Orolning qumi.
Men qo‘rqaman qo‘shilishib dili quvlarga
Yuraklarga chiqit-quvlik kirmayaptimi?

Yomg‘irlar-ku, yaproqlarni ketmoqda yuvib,
Bizlar uni tuproq bilan qormayapmizmi?
Biz kundalik “ur, ho-ur”ning ketidan quvib,
Mehran tugab, qalban tugab bormayapmizmi?

Dil tubidan tuyg‘ularni olarkan qirib,
Bir kun taqir yo‘lga o‘xshab qolmasmikanmiz?
Bu taloto‘p, “quv-quv”, “chop-chop” holdan toydirib,
Bir kun bo‘m-bo‘sh uyday bo‘shab qolmasmikanmiz?

Bu shoshilinch, bu tezlikda ko‘rmay xosiyat,
Men qo‘rqaman, noaniq bir hislar kemirar.
Men oylarki, o‘z onamni ko‘rmadim, uyat,
Mana, shunday paydo bo‘la boshlar temirlar.

Oylarki, men o‘z onamni ko‘rolmay karaxt,
Demak, bolam yillab yashar meni unutib,
Muncha tansiq tortib qoldi diydor degan baxt,
Yutqiziqlar ko‘p, nimani olyapmiz yutib?

Aytolmaysiz, aytolmayman menam boshim xam,
Ammo bilamanki, nafas rostlamoq darkor,
Bilmoq kerak, yondi kimning yuragida sham,
Bilmoq kerak, yog‘di kimning yuragiga qor!

Yo‘qsa, bizning har birimiz bir uloqchi, yot,
Sherigi yo‘q, yo‘qdir bitta uzangidoshi.

Azal-abad ko‘pkarida toq chavandoz mot,
Ot ostida qolishi bor yolg‘izning boshi.

Kechikyapmiz, bu gal ammo Siz shoshib keling,
Ko‘zlar to‘lsin ishqning rangin bo‘yoqlariga.
Hoy odamlar, imillamay jipslashib keling,
Yolg‘iz boshni bermaylik ot tuyoqlariga.

1975-yil 21-mart

GOH KUNLAR G‘AROYIB

Goh kunlar g‘aroyib, sharhiga yo‘q so‘z,
Ta’mi talx sharobday joming to‘ldirar.
Duelga chiqardi avval yuzma-yuz,
Endi bir-birini zimdan o‘ldirar.

Avvalgi oshiqlar ko‘zlarida qon
Ishqi uchun jonin qo‘yardi garov.
Endigi oshiq goh chamalar imkon,
Qiyinroqmi, yo‘ldan qaytadi darrov.

Avvalgi oshiqlar ko‘kragida oh,
Maydonga kirganlar g‘urur, shon uchun.
Bugungi oshiqlar tuyuladi goh
Ot solayotganday mansab, non uchun.

Tag‘in eng qizig‘i, faqat pardali,
Pardali suyarlar, pardada yurar.
Ko‘nglidagi qahrni hech kim zardali,
Qahr bilan aytmaydi, pardaga o‘rar.

Parda orasida ketyapmiz horib
Yo‘l sola olmasdan oshkor bir yoqqa.
Jur’at tark etmoqda bizlarni, borib
Do‘stga “Men sog‘indim Seni” demoqqa.

Jur’at tark etmoqda bizlarni goho,
“Pichoq kesar, o‘tkir bo‘lsa dami” deb.
Birovga bermaymiz munosib baho,
Boshqasi arazlab qoladimi, deb.

Jur’at tark etmoqda bizlarni ba’zan,
Garchand goh mehrdan ko‘ngil yoshlanar,

Sor burgut madad so‘z kutmoqda bizdan,
Ulug‘ parvoz, balki, shundan boshlanar.

Madad so‘zsiz burgut uchsa-ku uchdi,
Goh burgut keksayar shu so‘zni kutib.
Ojizmiz, biz qo‘llay bilmadik qushni,
Ayanchmiz, “yilt” etgan nur ketdi o‘tib.

Men hammaga avval jur’at tilayman,
Muqim jur’at olgan qalbni, qal’ani.
Dushman dushmanlig‘in oshkor olsin tan,
Do‘stim oshkor bo‘lsin ko‘nglim malhami.

Jur’at nima, jur’at o‘zi asli o‘q,
Nishonni urmasdan qo‘ymas otgan dam,
Ko‘p rahmim keladi oshkor fikri yo‘q,
“Pardali” she’r yozgan shoirlarga ham.

Goh kunlar g‘aroyib, sharhiga yo‘q so‘z...

1977-yil 12-may

SIRDARYO BILAN SUHBAT

Sirdaryoning sohilida bog‘lar tutash,
Goh shodumon, goho ma’yus chog‘lar tutash,
Baxtlar tutash, yurak dardi, dog‘lar tutash,
Yer, el bilan birga oqqan oqinimsan,
Yaqinimsan, ona daryo, yaqinimsan.

Men bilaman, sen behishtdan chiqqan daryo,
Insonni bir insonchalik uqqan daryo.
Kamoliga termilib ko‘z tikkan daryo,
Oqa-oqa tolmaslikka so‘z ber menga,
Mangu qurib qolmaslikka so‘z ber menga.

Oqadursan el oralab, piyodalab,
Ayt, hech yerda ko‘rmadingmi nohaq talab,
Nopok qo‘lin yuvmadingmi ey chashmi ob,
Mangulik de, gullab o‘tgan har xush damni,
Ko‘rmadingmi jaholatdan ko‘zi namni?

Ming yilliksan, paytlar bo‘lgan qonlar oqqan,
Razolatdan goho shahid jonlar oqqan,
Jonlar bilan e’tiqod, imonlar oqqan.
Jabrdiydam, suvlaringda o‘t yoqdingmi,
Bugungiday dilga dardkash hech oqdingmi?

Sohilingda alpzodalar, alplar yashar,
Sukut emas, jaranglagan zarblar yashar,
O‘rtanguvchi, o‘rtaguchi qalblar yashar,
Bundaylarga haq bir bayroq, bir tug‘ bo‘lar,
Haq deganning martabasi ulug‘ bo‘lar.

Tasavvur qil, sensiz g‘arib yurmaganimni,
Sohilisiz, daryosisiz sevdik kimni,

Sen bir burchi O‘zbekiston — yuragimni,
Ko‘z qiymasim, sen — jon yerim, Ona daryo,
Shul yurakda qon tomirim — Ona daryo.

Endi kuchga to‘layotgan shul yurakka,
O‘zbekiston — shul navqiron guldirakka,
Aylanmoqlik uchun tayanch bir tirakka,
Yashamoq shart o‘lmaslikka qasam ichib,
Mangu qurib qolmaslikka qasam ichib.

Sirdaryoning sohilida bog‘lar tutash...

USMON NOSIRGA

(Shoirning yubiley kechasida o‘qilgan)

Men o‘ylovdim yetmish yoshda quyilasiz,
Yetmish yilning yetmish o‘yi, axir, boshda.
Siz-chi, bu kech o‘sha Usmon tuyulasiz,
Yigirma besh yo yigirma olti yoshda.

Aqlan aytsa, Sizni bobo demak kerak,
Ammo bobo so‘zi erish tuyulmasmi?
Usmon Nosir deganingda o‘ynab yurak,
Unga ishqiy shalolalar quyilmasmi?

Usmon Nosir deganingda gullar so‘rab,
Ishq kelmasmi, qimtib hassos lablarini.
U aytmasmi ko‘zi bilan chirmab, o‘rab,
Bir ishqiboz yigitning sho‘x gaplarini.

Usmon Nosir deganingda shart kesilgan —
Boshday quyosh “yerga qulab” ketmaydimi
Va bir yurak, har burchini tuyg‘u tilgan —
Qonlar sirqib ko‘z oldingdan o‘tmaydimi?

To tiriksan dilim bog‘lan shul yurakka,
Fidolikda topilmagay unga taraf —
Usmon, sharaf Sendek oniy guldurakka,
Ona xalqim, Usmon uchun Senga sharaf!

“Olti-yetti yil yozdi” deb ko‘rsatmishlar,
Qay buyuk kuch bul yurakdan olgandi joy.
Biz-chi yetti yilni ba’zan ko‘ngil xushlab,
Yetti dona she’r yozmasdan berurmiz boy.
“Olti-yetti yil yozdi” deb eturlar qayd,
Yetmish yillik mehnat-ku bu, aql-u hush lol.

Sezganmikan tun safosin, oqshomgi payt,
Sezganmikin, tong, qay yondan esar shamol.
Yo‘q, sezmagan, sezganida muqim turib,
O‘limlarni har lahzada o‘ldirmasdi.
Beshafqat o‘z yuragiga xanjar urib,
Sob bo‘lguncha har lahzada tildirmasdi.

Yo‘q, sezmagan, sezmaganlar bo‘lsin omon —
Bu telbalik, telbalarcha suyib o‘tmoq.
Bu yetuklik, unga bo‘lsin to abad shon,
Bu yetuklik — so‘ng on qadar kuyib o‘tmoq!

Kuyib, suyib yelda o‘ynab timqora soch,
Bu kech chaqnab o‘lganidan tonib keldi.
Ona xalqim, ichikkansan, bag‘ringni och,
Usmon degan o‘g‘ling qayta yonib keldi!

Men o‘ylovdim yetmish yoshda quyilasiz...

1984-yil 14-mart

OQAR DARYO

G‘afur G‘ulom xotirasiga

Shahrim, Sendan bir daryo oqqan edi arslonvor,
Bilmam, qachon shiddatdan, shijoatdan toldi ul.
Shahrim, bu kech men Sendan so‘raydigan so‘zim bor,
Ayt, qachon, qay burchingda mangu uxlab qoldi ul.

Balki, uxlagani yo‘q, yodlayotir “Yodgor”in,
“O‘g‘rigina bola”si, balki, shu tom ustida.
“Qiz qiliqli bo‘lar” deb to‘kib ishqining borin,
Balki, hamon qalami avji ilhom ustida.

Navbahor, atr bo‘ylar urilmoqda dimoqqa,
Yo qay chamanda nihon, she’r yozar imi-jimi...
Yo qo‘shni qiz bog‘idan o‘rik o‘g‘irlamoqqa
Hamid Olimjon bilan devor oshib ketdimi?

Balki, balki, minbarda fashistga o‘lim tilab
Guldiragan she’rlari qayta o‘qilayotir.
“Sen yetim emassan” deb o‘zgalar boshin silab
O‘z Jo‘rasin g‘amidan tutday to‘kilayotir.

Qandoq fig‘on tortmadi, lab bosib turib cho‘g‘ga,
Qandoq tikloldi yetti yerdan singan jonini.
Kim yetti bukilmaydi nogoh uchirsa o‘qqa
“Bo‘ylariga gul o‘lchab o‘stirgan” o‘g‘lonini.

Balki, karvon yo‘lida “yetim bo‘tadek” bo‘zlab,
Merosiy sog‘inch — so‘zga so‘zni ulayotibdi.
“Informbyuro”mizning bashoratidan so‘zlab,
Balki, g‘olib, yalangto‘sh “Sharqdan kelayotibdi”.

Balki, mendan so‘ng ham Sen bolalarga bo‘l deb bosh,
Uchirma qushlarimni yetkazgil deb voyaga,
Ilk ko‘klam chechagini, kiprigida qalqib yosh,
Qo‘sh qo‘llab uzatmoqda Muharramxon ayaga.

Balki “chervonets” olib belidagi chorsidan,
“Qiz yurakning qoni” deb qo‘yib ishq-u binosin.
Bugun katta to‘y, tong-la keltirgandir Chorsudan
Suyuk Olmos opaning qo‘lidagi xinosin.

Garchand bu kech sog‘inchdan ko‘zimizga dunyo tor,
Garchand bu kech sog‘inchdan bo‘g‘zimizda sho‘r-u talx.
Ayting, shunday otani qaysi farzand unutar,
Shunday sodiq o‘g‘londan ko‘nglin uzar qaysi xalq?!

O‘zbekni o‘z-o‘ziga bek degan G‘afur G‘ulom,
She’rlar har xonadonga oqar ekan tong bilan,
Xalqim, bu kech men Seni qutlayin aytib kalom,
G‘afurday mangu oqar, arslonvor daryong bilan.

1985-yil 15-may

USTOZ OYBEKKA

Bu katta-katta ko‘zlar ko‘zmi yo katta isyon,
Dunyoning gohi mayda ishlaridan hayratda.
U minglab xarsanglarga urilib sinmagan jon,
U urib turgan yurak, o‘zi qoldirgan xatda.
Aytilmagan so‘zlarning qolmog‘iga ofarin,
Tilsiz so‘zlab... dunyoni olmog‘iga ofarin!

Ko‘zlar chaqnar... ko‘nglimga yomg‘ir kirar, do‘l kirar,
U o‘tgan dahalarga boshlaydi mening yo‘lim.
...Yo‘lchi jasadi uzra Shokir ota guldirar:
“Unsin bolam, qayg‘urma, bu juda katta o‘lim”.
Katta quvonch va katta yig‘i bo‘lib o‘tdingiz,
Xalqimning boshda tutgan tug‘i bo‘lib o‘tdingiz.

“Kumush o‘lib qoldi” deb, qon yig‘lagan Qodiriy,
Gulnor ichgan zahardan sizam ichib qo‘ygansiz.
Men-ku hanuz tushunmam ijod sirin, baxt sirin,
Siz tushunib suygansiz, siz tushunib kuygansiz.
Kuyib kul bo‘lmay o‘zni qay o‘tlarda yoqdingiz,
O‘lgan Yo‘lchiga qandoq ishq uzugin taqdingiz?!

Yo‘lchilar, Navoiylar porlab yashadi Sizda,
Haq deb chopgan elchiga to‘ldi oldi-ortingiz.
Inqilobchi bir yurak asrab ko‘kragingizda
Haq deb tortilgan safning eng oldida bordingiz,
Yurt yukin ko‘tardingiz katta joningiz bilan,
E’tiqodi tik O‘ktam, Anorxoningiz bilan.

Berdingiz shu saf uchun ikkilanmay, o‘rtab jon,
Bor bisot, “Na’matak”day gulingizni berdingiz.
Keyin... bilmadik, bizni ne bir g‘aflat bosgan on,
Qay qabohatga biyron tilingizni berdingiz.

Munis xalqimga ham bu bo‘lgay mangu saboq, un,
Boshqa biyron tillarin ehtiyot qilmoq uchun...

Bugun ham raiyatda muddao o‘sha-o‘sha,
Ki har oddiy insonga essin najot shamoli.
Biz ham xuddi siz kabi u bilan jigargo‘sha,
Bugun ham buyuk orzu — ko‘rmoq inson kamolin.
Shu birlikka o‘rgatgan Sizdek har shon o‘lmagay,
Sizdek daho o‘stirgan O‘zbekiston o‘lmagay!

SURUR QO‘NG‘IROG‘I

Halima Nosirovaning 70 yilligi munosabati bilan

Avval men o‘zim suyib ko‘zimning qarosiday,
Arzir so‘ngra bu zalga, desam “oyoqqa qalqing”.
Xumo qushday charx urib kurashlar orasida
To abad qo‘li baland, ko‘kragi baland xalqning
G‘ururining boisi — sha’n o‘ti bori keldi,
O‘zbekiston san’atin bir bayroqdori keldi!

Azal toza injular to‘rt tarafga sochilgan,
Andijonga tushgani, balki, Sizga tekkandir.
Shundan ko‘ksingizda erk, kurash guli ochilgan,
Shundan yurak tiklanish azoblarin chekkandir.
Siz maydonga chiqqansiz quvonch — dog‘ingiz bilan
Bo‘g‘zingizda yashirin, qo‘ng‘irog‘ingiz bilan.

Yo Rab, qo‘ng‘iroqlarni ko‘p oldilar nishonga,
G‘oyib bo‘ldi maydondan kim sevsa o‘z jonini.
Siz o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rib to‘ldingiz qonga
Tursunoyning muqaddas “erk” deb to‘kkan qonini,
Ayting, qanday kuch Sizning qaddingizni egmadi,
Ko‘ksingizni ko‘zlagan o‘q necha bor tegmadi?

Nurxon, Tursunoy tushdi ketma-ket tuzoq-tuzga,
Kim aytdi uchinchi kun Sizning o‘lmasingizni.
O‘n besh-o‘n olti yoshda kim shivirladi Sizga
Osonlikcha bu yo‘lda qurbon bo‘lmasingizni.
“Olg‘a” degan so‘z har bir hujayrangizga singib,
Ketib borayotibsiz bu yo‘lda hamon yengib.

Shunday, bayroqlarimiz goh qonlarga botibdi,
Ammo qulamagani oldga nigoh tikkanlar.

Bu kech ko‘zim oldidan bir-bir o‘tayotibdi,
Bu sahnaga o‘rtada JONni qo‘yib chiqqanlar.
Bu sahna abad Sizning, bu shon abad Sizningdir,
Xalq ishqidan quyilgan nishon abad Sizningdir.

Mukarrama, Tamara, Lutfixon qay chog‘lari
Soraxonim keladir Siz bilan pichirlashib.
Hassos ona xalqimning surur qo‘ng‘iroqlari
Bul tabarruk sahnadan yangragansiz birlashib.
Bul qo‘ng‘iroqlar hali uyg‘otar ko‘p yurakni,
Ko‘ngillarda chaqnatib orom-u guldirakni.

“Shogirdlarim ko‘p”, deysiz go‘dakday quvonch bilan,
Bari o‘t, ammo Sizdek o‘t bori uchramagay.
Baland, garchand shogirdlar parvozi bugun baland,
Ammo xalq Halimasin takrori uchramagay.
Do‘stlar, oyoqqa qalqing shu o‘t borligi uchun —
O‘zbekiston san’atin bayroqdorligi uchun.

1984-yil 8-fevral

XALQIMGA

Girdingizda daryoday oqqanim oqqan bo‘ldi,
Joningiz alqab jonim yoqqanim yoqqan bo‘ldi,
Bukilmang, deb ko‘z uzmay boqqanim boqqan bo‘ldi,
Non-tuzini ko‘z yoshday yomg‘ir, qorga qorgan xalq,
Oxir-oqibat ozod, ko‘ksini ko‘targan xalq!

Oftob yuz ko‘rsatgani eringan kunlardagi,
Rutubatli, besamar uringan kunlardagi,
Jang maydonida otlar suringan kunlardagi
Iztiroblar osharoq bu yuksak tog‘ muborak,
Tolib-tolib so‘ng g‘olib qad tiklamoq muborak!

Ayol munglig‘ demishlar, goh munglig‘ ko‘ngil bo‘lib,
Har alp olg‘alarimga Qaldirg‘och singil bo‘lib,
G‘amingiz toshday bosib, quvonchdan yengil bo‘lib,
Bilmayman, bu kunlarga qay tarzda yetib keldim,
Har holda, bor chig‘riqdan Siz bilan o‘tib keldim.

Izg‘irin-qor kelganda bir-birini quvishib,
Ko‘kargan qo‘llaringiz qolganida uvishib,
Titroqlarga solganda ichingizga qor tushib,
Jilmadingiz daladan, bu qay fido imondir,
Demak, vijdon o‘lmagan, demak, imon — omondir.

Avji yurmoq onida shu’la kechib, oy kechib,
Mo‘ysafidlar ham yurdi ko‘lmak kechib, loy kechib,
O‘spirin — o‘g‘il-qizlar shavqdan, hoynahoy, kechib,
Shu paxta deb, shu non deb sarg‘aygan ro‘yi-rangi,
Bu jang — g‘urur, his jangi, bu jang rizq-u ro‘z jangi.

Urushda biz bermadik bir qarich yerimizni,
Bu jangda bir tolani, non, manglay terimizni.

Urushda, tinch kunlarda ko‘p sinab ko‘rdik o‘zni,
Demak, eng yuksak va eng tik g‘oya o‘zimizda,
Har qanday zo‘r hujumga himoya o‘zimizda.

Ne baxtki, avval-oxir tun ortidan tong kelur,
Qiyin kelgan g‘oliblik — baxtga hamohang kelur.
Tiriklik desam, mening ko‘z oldimga jang kelur.
Jangki, yer-u ko‘k uchun, jangki, non-u tuz uchun,
Faqat o‘zimiz uchun, faqat o‘zimiz uchun!

Garchand, kechagi kunlar o‘tdi mushkul, jafoli,
Tun qancha notinch kechsa, tong shul qadar safoli.
O‘zbekiston, farzandlar o‘tgay Senga vafoli,
Ular, balki, ming-mingdir, ammo yaxlit tog‘ bo‘lib,
O‘tgay ittifoq bo‘lib, o‘tgay ittifoq bo‘lib!

Girdingizda daryoday oqqanim-oqqan bo‘ldi...

* * *

Vatan! Sening yigirma million
Daryoyingni urush quritdi.
Oqdi shuncha daryolarda qon,
Shuncha dardni yuraging yutdi.

Unutmaysan sarg‘ayib, yohu,
O‘qqa uchgan dunyolaringni.
Oshqin-toshqin oqib ketgan u
So‘ng qaytmagan daryolaringni.

Tush ko‘rasan to‘lib, to‘kilib,
Ul daryolar to‘lqin uradi.
Bari birday shovullab kelib,
Tunlar soching oqartiradi.

Kunduzlar oq soching silaysan
Kuyib, o‘lgan daryolaringga.
Qurimaslik umrin tilaysan,
Kuchga to‘lgan daryolaringga.

* * *

Yigitlar o‘limga ketgan yo‘llar bu,
Ortiga qaytmagan iz bor barida,
Shoxlar cho‘zilgancha qolgan qo‘llar bu,
Dod solgancha qolgan yo‘l chetlarida,
Sen bu daraxtlarga mehribonroq bo‘l!

Qandoq unutaman, unutay qanday,
Ayniqsa, ko‘rganda bu — jang boshini.
Majnuntol bukilib sadr tushganday
Sannab yo‘qlayversa to‘kib yoshini,
Opam, singlim degil majnuntollarni!

Yaxshi niyat bilan bu uyni qurib
O‘limga ketganlar o‘tib-o‘tmay to‘y,
Ketganda ortidan ketmagan yurib,
O‘lganda, to‘kilib, yitmagan bu uy.
Ehtiyot bo‘lib kir ostonasidan!

Ayol, bu ayollar sokin o‘ltirar,
Ko‘zlari ming balo-qazoni ko‘rgach,
Ular bo‘ydor g‘amni quchib o‘tdilar,
Bo‘ydor yigitlarni o‘limga bergach,
Ularning ko‘ziga tik qarab bo‘lmas.

Yigitlar o‘limga ketgan yo‘llar bu...

QIRCHILLAMA QIRQ YIGIT

Bu jang asli suv bilan olovning jangi bo‘ldi,
Eskirgan jarohatlar qaytalab yangi bo‘ldi.
Tunlar bevaqt sarg‘ayib hijronning rangi bo‘ldi,
Bellarin ko‘tarolmay yo‘llar belangi bo‘ldi,
Qirchillama qirq yigit uyga qaytmagan kunlar.

Endi deganlarida qarchig‘ay yigit bo‘pdi,
Asta egilib qizni yo o‘pmadi, yo o‘pdi.
Ammo uchib ketdilar lochini bo‘lib ko‘pdi,
Ammo yurt qon qaqshadi, yurtda qiyomat qo‘pdi,
Qirchillama qirq yigit uyga qaytmagan kunlar.

Qaytmadilar va lekin “noma’lum” deb yozdilar,
Qayda nihon yururlar shuncha qish-u yoz ular?
Onalari goh hushli, goh aqldan ozdilar,
Qondoshlar goh ko‘nglida go‘rlarin ham qazdilar,
Qirchillama qirq yigit uyga qaytmagan kunlar.

Yuragimda achchiq o‘t, na gina-yu na zarda,
Yerga sig‘may qolaman faqat ba’zan kechlarda.
Leningradda o‘lgan, balki, qamal, o‘chlarda,
Balki, Buxenvalddadir, odam yoqar pechlarda,
Qirchillama qirq yigit uyga qaytmagan kunlar.

Qirq yigitni qirq asov toy desam ot bo‘lmadi,
Qaytgan turnalar ichra qirq qo‘sh qanot bo‘lmadi.
Ular qirqta shon bo‘ldi, biror isnod bo‘lmadi,
Qirchillama bu hayot, ammo hayot bo‘lmadi,
Qirchillama qirq yigit uyga qaytmagan kunlar.

Qirq yigitni do‘l urgan qirqta bog‘ga mengzadim,
To‘fon kelib o‘chirgan qirq chiroqqa mengzadim.

Yuragimda o‘yilgan qirqta dog‘ga mengzadim,
Tiklanar choq qulagan qirq bayroqqa mengzadim,
Qirchillama qirq yigit uyga qaytmagan kunlar.

Yigirma million bayroq go‘rli-go‘rsiz qo‘zg‘olsa,
Soviyotgan o‘choqlar qo‘rli-qo‘rsiz qo‘zg‘olsa,
Munkaygan kelinchaklar erli-ersiz qo‘zg‘olsa,
Bugungi urushqoqlar, Siz ne dersiz qo‘zg‘olsa,
Qirchillama qirq yigit uyga qaytmagan kunlar!

1984-yil 28-oktabr

QAYTMAYMAN...

"Qaytmayman, burchimni o'tab o'laman" —
Qirq ikkinchi yildan yozdim ko'chirib.
Men bugun to'laman, jomday to'laman —
Kechmish to'fonlarni qayta kechirib.

"Qaytmayman, burchimni o'tab...", vo darig',
Qog'ozning qolgani ketgan titilib.
Qirq yilki bu ko'm-ko'k olam sap-sariq,
Yashayman qog'ozday bag'rim sitilib.

Qaysi to'zim bilan o'tkazdim boshdan
Qirq yil qaytalagan ko'klam, yozni men.
Ko'kragimda yong'in chiqqanda toshday —
Toshday bosdim unga muz qog'ozni men.

Istasang ko'p narsa amalga oshar,
Istadim, shu qog'oz menga er bo'ldi.
Faqat qo'msagan chog' yigirma yashar
Istagim yer bo'ldi, ko'nglim yer bo'ldi.

Qaytmayman... ha, men ham qaytmadim faqat,
Umr o'tdi hijronning tutunin yutib.
Ketyapman, ko'ksimga muhrlangan xat,
Sarg'aygan shu qog'oz qo'limdan tutib.

Qaytmadim... mard turib tugayotir jon,
Qaytib, Senga yum-yum yosh quysam, qani?!
Mo'jiza bo'lsa-yu tirilsang bir on,
Qaytib ko'kragingga bosh qo'ysam, qani?

Qaytmayman, burchimni o'tab o'laman.

1984-yil 24-noyabr

QAMAL KUNLARIDA

Qamal kunlar shahar jim-jim yig'lar, odatda,
Sal sharpadan har bir qarich tuprog'i dodlar.
Har eshikdan chiqaverar ko'zlari katta
Eti borib suyagiga yopishgan zotlar.

Xayolimda kimdir betin qo'ng'iroq chalar,
Qarg'a murda ko'zin cho'qib kelaveradi.
Tobut-u go'r yetishmagan go'daklar, chollar
To'p-to'p bo'lib go'rdan chiqib kelaveradi.

Kim chidab jon saqlar ozg'in mushugini yeb,
Kim chidamas, aqldan ozib qah-qah solar kim.
Shoir she'rda "Biz g'alaba qilajakmiz" deb,
Muk tushib ish stolida qilar jon taslim.

Tushlarimda qichqiraman, hech kim bermay sas,
Arvohday sob, dardin ichga yutib turadi.
Mevalarmas, o'liklarni tashib ulgurmas,
Jasad ortgan mashinalar o'tib turadi...

Yo'q, fashistlar ostonada qolarlar turib,
Bilolmay bu ado yerning kuch, sirlarini,
Mingdan qolgan o'n qasoskor tishin botirib,
Ulug' shahar uzar qamal zanjirlarini!

Qamal kunlar shahar jim-jim yig'lar, odatda...

1984-yil 28-oktabr

QAMAL QISHIDA

"...Kecha menga bir hunar maktabining direktori "duradgorlik sexidagi bolalar kleyni, gullarni yeb qo'yishdi", — dedi".

A. Chakovskiy
"Qamal" kitobidan

O'smir ukam, qo'llaringga buyur, ishlasin,
Stanokning muzlarini eritsin tafti.
His et, senda lahza qamal qishi qishlasin,
His et, kley yeb to'ymagan bola o'lyapti!

...U singlisini yotqizib tongda chanaga
Shoshilgandi, bog'chagamas, uni ko'mgani.
Yo'l portladi, o'zin urdi bombapanaga,
Singilchasin murdasini qaytib ko'rmadi.

...Uyga kelsa, bemor ona toshday qotibdi,
Qo'l tekkizdi... sovuq muzlar kirgan taniga.
Onajoni nim tabassum qilib yotibdi
Ochlik... azob... og'ir darddan qutulganiga.

Shovqin. O'lik yig'uvchilar eshikdan kirar,
Bola cholday bir amallab ko'taradi qad.
"Tobut, tobut yo'qmi Sizda?" — bola jovdirar,
"Tobut, tobut otliqqa yo'q", g'udranar soldat...

So'ng, sudralib ishga keldi, rangpar, qoqsuyak,
Ochlik yengib yiqilarkan, tokchani ko'rdi...
Unda turgan qator guldan qoldi gultuvak,
Jonter bosib kleyni ham paqqos tushirdi...

So'ng quladi. Quladi-yu, turmadi qaytib,
O'lar ekan shishib ketdi, sarg'ayib tani.

Stanokdan so'ra, dodlab beradi aytib
"Non, non", deya sulayib jon bergan bolani!

O'smir ukam, qo'llaringga buyur, ishlasin,
Stanokning muzlarini eritsin tafti.
His et, senda lahza qamal qishi qishlasin,
His et, kley yeb to'ymagan bola o'lyapti...

1984-yil 29-oktabr

JASORATNING SO‘NGGI TUNI

Mayli shodumonlik, yo g‘orat tuni,
O‘lajakman faqat jasorat tuni!

O‘lganlar qolgan yo‘q jang maydonida,
Men bilan dushmanni qirdilar qirq yil.
Qachonki toliqib ko‘zim ketgan dam
Men bilan hakkalab yurdilar qirq yil.

Do‘stim yurardi bir qizni egallab,
Kun keldi oh, do‘stim qoniga botgan.
Tushlarimda “Nega o‘lding, nega”lab
Qiz o‘zin do‘stimga otgani-otgan.

Tushimda qiyqirib, o‘rtaga olib,
Kimdir xotinimning xatin beradi...
... Ingrayman, yigitlar ulgurmay qolib,
Tanklar bosib-yanchib o‘tib boradi...

Urushning dahshatli qo‘llaridir — dor,
Qirq yil yuvolmaydi dil dog‘larimni.
Yo Rab, ko‘z yumdimmi, g‘olib hamda xor
Osadilar mahbus o‘rtoqlarimni.

Qandog‘am to‘kilmas kul bo‘lib ko‘ksim,
Axir, uning tomir-tomiri kuygan.
Kasal qo‘zilarday qo‘l ushlashib jim
Cho‘p go‘daklar borar krematoriyga.

Ketarkan bu behisht qushlari bilan
Bir kun rost-ro‘yoni tamom tark etsam.
Urushning isyonkor tushlari bilan
Andarmon umrimning so‘ngiga yetsam.

O‘lganlar qirq yillik shahidmas, xunim
Tunda o‘lgan og‘am, inim bo‘ladi.
Ular bilan so‘nggi o‘tkazgan tunim
Eng so‘nggi jasorat tunim bo‘ladi.

HAYKALNING AYTGANLARI

Ko‘z yoshingni to‘kib duv
To‘kma toqat jomimni.
Tag‘in keldingmi, yohu,
Titratmoqqa jonimni.
Tomgan qo‘rg‘oshin yoshday,
O‘t chiqib ketsa toshdan,
Men yonib yo‘lga tushsam,
Quvonib yo‘lga tushsam.
Tasavvur qil, bor haykal
Bir-bir o‘rnidan tursa,
Dala qolsa, qolsa zal,
Bari yonib yugursa.
Tasavvur qil, yotoqqa
Yonar o‘t, kirib borsam,
O‘t sig‘maydir quchoqqa,
Begonaday boqarsan.
Ko‘nglim og‘rib o‘shal tun
Uydan bo‘larman g‘oyib.
Va haykal do‘stlarimga
Qo‘shilarman mung‘ayib.
Bilaman, Sen ortimdan
Yugurasan qoqilib,
Barcha tullar uyida
Birdan chiroq yoqilib,
Yalangbosh, yalangoyoq
Otilishar ko‘chaga,
Uylar yonar, yonar bog‘,
O‘t ketadi kechaga!
Yo‘q, yo‘q, men bu qiziqqon
She’rni qo‘ydim-da yozib.
Ey, men uchun kuygan jon,
Munosibim, munosib.

Tun. Uyga qayt-da tirik
So‘zimni so‘ylab uxla,
Bo‘yimni bo‘ylab uxla.
Seni qucholmagan, tik
Eringni o‘ylab uxla.

1984-yil 29-oktabr

VATAN BAXTI

Urushdan qaytganlar, yo qaytolmagan,
Bevaqt qo‘porilgan daraxt otalar.
Qaytib dardin aytgan, yo aytolmagan,
Gung otalar, soqov, karaxt otalar.

Tutun bo‘lib qochib chiqqanlar — Vatan,
Buxenvaldning qora mo‘rilaridan.
Go‘daklarin yerga ekkanlar — Vatan,
Qamal kunlarida. Ochlik zo‘ridan.

Yupun, och, qamalning izg‘irinida
O‘pkasini sovuq olganlar haqqi,
Har xanjarlar hali chiqmay qinidan,
Yov tuprog‘i aro qolganlar haqqi,

Yigitga ko‘rpaday yopilgan qorlar
Ochiq ko‘zigacha to‘lgani haqqi,
Tunda o‘t-o‘lan yeb shishgan bemorlar
Tongda qatorlashib o‘lgani haqqi,

Vatan, bul yaralar ketmaydi bitib,
Vatan, Sening noming qon aralash shon.
Senga kelgan o‘qqa ko‘ksini tutib,
Farzandlaring shunday bergandilar jon.

Shundan Vatan desam, desam men bayroq,
Ko‘ksim og‘rir, og‘ir, ko‘p og‘ir bu baxt.
Ko‘ksimga o‘t tushib yonaboshlar bog‘,
Qo‘porila boshlar daraxtlar bevaqt...

Menam bir fidoyi ruh ila bir tan
Yoz kunlaring yozlab, qishingni qishlab
Ketyapman, Sen bilan qovushib, Vatan,
Achchiq, aziz baxting tishimda tishlab.

1984-yil 3-noyabr

CHAQIRIQ

Bu uyda yoshi saksonlarga borib qolgan yolg‘iz kampir,
Leningrad blokadasining qatnashchisi yashaydi.

“Menga yordam beringlar”, to‘shagiga mixlangan
Kampir yordam so‘raydi, hech kim kelmaydi yetib.
Hech kim ovoz bermaydi, nahot hamma uxlagan —
Qavat-qavat deraza, eshiklarin berkitib.

Karavotdan deraza, eshikka tortilgan ip,
Ammo tortib ochmoqqa darmon qani qo‘llarda.
Chopqir oyoqlarini badnafs urush qo‘ygan yeb,
Leningrad. Izg‘irin, blokada, yo‘llarda.

Avval urush, ochlik, so‘ng yolg‘izligi qo‘shilib,
Mana, so‘nggi yillarda to‘shak bilan bir bo‘ldi.
Dard boshqa, ajal boshqa, keta olmaydi o‘lib,
Goh yordam o‘tinganda yurak-bag‘ri yer bo‘ldi.

Qo‘shnilar son-sanoqsiz, bir ustin o‘rovchi yo‘q,
Unin eshitib kirmay o‘tib yurgani qancha.
Bilisharki ul oyday yolg‘iz, bir so‘rovchi yo‘q,
Shundan uyning bo‘shashin kutib yurgani qancha.

“Oh-voh” qilavermang, deb goh o‘tishar ham yanib,
Yo Rab, qichqirig‘in ham aytmog‘i shart shivirlab.
Menga yordam beringlar, ularni olay tanib —
Odammi shu atrofda tinmaganlar g‘imirlab.

Odammi shu intizor, iltijoga kar bo‘lib,
Xonasin ichdan qulflab, ilmni quvayotgan.
Bir xayoli amal-u bir xayoli zar bo‘lib,
Terlab, olim erchasin kiyimin yuvayotgan.

Odammi eshigiga qopag‘on itlar qo‘yib,
Mushugin kosasin ham tillo qilib yurganlar.
Shul deraza tagidan ko‘r-u kar o‘tib, suyib,
Yalashib bir-birini, yallo qilib yurganlar.

Hoy, odamlar! Bul nadir, anqiyotgan achchiq dud,
Yordam kerak, kechikmay bir-birovga bering un.
To imon-e’tiqodga tamom ketmasin o‘t,
Blokada kunlari qaytib kelmasdan burun!

1984-yil 28-oktabr

G‘ALABA

Ko‘klamda qor bosdi yerni ustma-ust,
Binafsha qor aro ko‘rsatdi diydor.
Mana, shu g‘alaba degan issiq so‘z,
Demak, bosolmadi g‘alabani qor.

Boshimga yog‘ildi sangi malomat,
Chaplamoq bo‘ldilar dog‘ ustiga dog‘.
Qabihlar o‘qidan qoldim salomat,
Demak, g‘alaba ham qoldi soppa-sog‘.

Men sening o‘tingda isinganimda,
Ishq yengar. G‘alaba. Ko‘zim tinadi.
Ishq mening jon-jonimga singganida,
Qonimda qip-qizil gullar unadi.

Kechaman, oromi naqddan kechaman,
Ilohiy bir qudrat berar menga kuch.
Bir she’r deb tun bo‘yi og‘u ichaman,
Tongda kelmoq uchun g‘alabaga duch.

G‘alaba!
Samoviy Yangroqni qara,
Uni deb janglarda qancha do‘st qoldi.
Yigirma million ketdi yo‘qlikka qarab,
O‘rnida g‘alaba degan so‘z qoldi.

Bevalar tar-u talx hijronni ichgach,
Jigaridan silqib qasos-u xunlar.
Erlari fashistning o‘qiga uchgach,
G‘alabani quchib qoldi-ku tunlar.

Qay yillardan kelar bul jonbaxsh nido,
Bul — sharob!
Bir to‘yib ichmoqlik uchun.
Menam jonim nisor, ketyapman fido —
Uni bir bor to‘yib quchmoqlik uchun!

G‘alaba!
Bul qadar chiroyli siymo!
Uning ta’rifiga bormi loyiq so‘z?
G‘alaba keltirsin Senga har bir tong,
Har bir tong bir qadar yuksal, aziz do‘st.

XATO TAKRORLANMAS

Xirosimadagi atom bombasining qurbonlari sharafiga qo‘yilgan haykal poyida: “Tinch uxlang, xato mangu takrorlanmaydi!” — degan yozuv bor.

Xato takrorlanmas, takrorlanmaydi,
Odam o‘ylab, ko‘rib tursa har lahza.
Kim alahlab kelgan joyiga qaytdi,
Badanin kuydirib o‘q lahcha, lahcha.

Ayol, bolalarni podaday haydab,
Bir saroyga qamab fashist o‘t qo‘ydi,
Sen vaqt topib tez-tez bor o‘sha joyga,
Sen shu kultepani yurakka o‘ygin.

Komandirning avval bir ko‘zin o‘yib,
Qo‘llarin ustunga mixlab qoqdilar.
Keyin boshdan oyoq kerosin quyib
Tovonidan boshlab gugurt chaqdilar.

Ko‘z oldida suygun eri otildi,
Suygun go‘dagiga sanchildi pichoq.
Ayolning gunohi afu etildi,
Ayolga ochildi ishq bilan quchoq.

Shu tun qaro kechdi ayolning tuni,
Bolta bilan fashist boshini uzdi.
Va aqli ham uchdi boshidan uning,
Shodmon qahqahasi dunyoni buzdi!

So‘ng bor kiyimlarin yechinib otdi,
Yovni izlab ketdi, soch yoyib, daydib!
Agar... shu lahzalar chiqmasa yoddan,
Urush — mash’um xato takrorlanmaydi...

1984-yil 28-oktabr

ESKI SANDIQ

Eski sandiq, eski sandiq, yog‘ochmisan, temirmi,
Eski uyda makon tutding xoligina burchakni.
Nimadir ul senda turib kelinchakni yemirdi,
Nimadir ul ko‘nglin olib gullatdi kelinchakni.

Ot aylanib qayta-qayta qozig‘ini topganday,
Senga qaytib kelaverdi kelinchakning yo‘llari.
Ne uzildi ko‘kragidan Seni har gal yopganda,
Keyin nechun qay paytgacha titrab yurdi qo‘llari.

Voh, bilaman, uning uchun ochilsang — Sen yoriltosh,
Sarg‘ayib, titilib ketgan ertak chiqib keladi.
Yo‘q, ko‘z ochib ko‘rganim deb bir yostiqqa qo‘ygan bosh,
Uni qo‘lda ko‘targuvchi erkak chiqib keladi.

Ko‘tarmadi, jangga ketdi, qaytgan sariq ertagin
Pochta qutisidan oldi, urush uni yaxlatdi.
Dunyolarga sig‘ishmagan Go‘ro‘g‘liday erkagin
Parchagina qog‘oz qilib sandig‘iga taxlatdi.

Shu-shu, yillar, suvlar oqdi, kelinchak ham qaridi,
Qirq yil bosdi shu ertakni ko‘krakning chap yeriga,
Balki, bugun qushday yengil, bor g‘amlari aridi,
Axir, qirq yil sir aytdi u sandiqdagi eriga.

Shu sandiqni daryoga bir oqizsam deb o‘ylar goh,
Botayotgan kunga qarab, artmasdanam yoshini.
Ajab emas, Tohirdayin ul tirilib chiqsa, oh,
Tohirdayin... yo‘q, Tohirday ko‘tarmas ul boshini...

Eski sandiq, eski sandiq, yog‘ochmisan, temirmi?

1984-yil 3-noyabr

SAMANTANING PORTRETI

Amerakalik Jeyn Smitning Sovet Ittifoqiga qilgan safarining oxirgi kuni unga qizi — Samanta Smitning skulptura portreti topshirildi.

Qolgan gaplar barchasiga, bas
Vijdon o‘zin ololmas oqlab,
Axir, ona o‘z go‘daginimas,
Portretini turar quchoqlab!!!

Temir ko‘zga qarab to‘yadi,
O‘z ko‘ziga munchoqlar osib,
Sochlarini silab qo‘yadi
Boshginasin ko‘ksiga bosib.

Ich-ichidan kelarkan kuyib
Olov olib ketmasmi xayol.
Ko‘kragida azoblar tuyib
Qandoq butun turar bu ayol.

Bu qay kundir, baxtmi, qaro kun
Ololmaydi yoshin yutinib,
Go‘dagiga o‘xshagani-chun
Ul temirga turar yukinib.

Temirmi — yo‘q, bu xatni, illo,
Uning qo‘li yozgan, jajji qo‘l:
“...Siz urushga qarshimisiz, yo
Qarshi esa... toping biror yo‘l”.

O‘n ikkiga yetib-yetmasdan
Gurkiragan olammiding Sen?
Og‘zidan sut hidi ketmasdan
Yo‘l izlagan bolammiding Sen?

Ular Senda ilg‘ab qoldimi
Anjelaning tik ovozini?
Tag‘in ilg‘ab o‘yga toldimi
Viktor Xara guldurosini?

Ular qo‘rqdi, bu qo‘rquv sado
Beraverdi o‘rtab qonlarin.
Mana shunday qilmoqda ado
Amerika o‘z vijdonlarin!

Beiz ketmas, qon emasdir suv,
U mudhish on, sachragan, tekkan.
Ming Samanta yig‘lagan duv-duv,
Ming Samanta mushtchasin tukkan...

Faqat ona... chiqarmaydi un,
Un na hojat, hislar yetadi.
Samolyotda qizin portretin
Ko‘kragiga bosib ketadi.

YOLG‘IZ O‘G‘IL HAQIDA BALLADA

Sen chaqirgin, chaqir vaqt topganing dam,
Oraliqda ovoz yurishi kerak.
Yiroq qishloqdagi mushfiq onang ham
Uyga kirib-chiqib turishi kerak.
Chaqirib bo‘lsa ham ayblaringni yuv,
To uyga butunlay ketmasin kirib,
Tuvakdagi gul ham to‘kiladi duv
Turmasang suv quyib, eslab, chaqirib —
Sukutdan suyagi simillab og‘rir,
Qiynaydi yolg‘izlik bo‘lib tun kelib
Sezgir quloqlari kundan kun og‘ir
Eshitmay qolishi qiyin kun kelib.
Imillab: “Shukur, har tirik damga”, — deb
Ba’zan kunchuvoqqa chiqib o‘ltirar,
Ermak deb, shaharlik nevaramga, deb
Alvon ko‘ylakchalar tikib o‘ltirar.
— To‘g‘ri-da, meniki yarashmas, qo‘pol, —
Deydi-yu, baribir ketadi kuyib.
Nimaga shu o‘g‘li bo‘lmadi cho‘pon,
Bolasi yurardi tikkanin kiyib.
Kelin sahar turib suv isitardi,
Uqalardi og‘riq oyoqlarini,
Tayanib, umridan rozi o‘tardi,
O‘g‘lining cho‘ponlik tayoqlarini...
Birdan tikishini yig‘adi beun
Eslab bir vaqt shunday tikkanlarini,
Kelin ko‘ylakchasin yoqtirmagan kun
Ko‘nglining aziyat chekkanlarini.
Yo‘qlab kelishgandi qaysiyam bir yil —
Go‘dak “buvijon”lab otilgani choq,
Niyat qilib tikkan ko‘ylakchasin ul
Qizchaga kiydirib termildi uzoq.

Qizcha chiqdi uchib-qo‘nib atrofga,
Kelin hayron bo‘ldi, qovog‘in uydi.
Keyin dedi “o‘rab qo‘yganday qopga,
Oyi, buningiz ne baloni kiydi?!”
Unday demang, bolam, o‘zim tikuvdim,
Dedi, diydalari to‘lib yoshlarga
“Menam shu, do‘konga kecha chiquvdim
Buni beraqoling qarindoshlarga”.
Kampir o‘g‘li tomon tashlab ko‘z qirin
Uyga kirdi, artmay ko‘z yosh, jolani.
Er dedi: “Shu ishing biroz noo‘rin —
Sira o‘rganmading muomalani!” —
Shu kunlarni eslab, esnab, toliqib,
“Shunga ham shukur”, deb, toqatni tishlab
Onang yashar, borsang bugun yo‘liqib,
Bugun qaytajaksan, qolmaydi ushlab,
Sen bilmaysan, onang bejon, bedarmon —
Axir, seni bir kun tutib turolmas,
Bilmaysan-ey, onang dili qondir, qon —
Bu qon bilan, balki, uzoq yurolmas...
O‘z uyingda yeysan, to‘yib ichasan,
Uni sukut — sirtmoqlarga topshirib.
Kun kelar, sen talx qon yutib uchasan,
Ul chaqirib, qo‘ygach seni shoshirib.
Sen “bu o‘lik meniki” deb kirgan dam,
Birov senga kimsan demas, so‘z qotmas,
“Voy onam”lab tobut tomon yurgan dam,
To‘sadilar, yaqiniga yo‘latmas.
Keyin aza ochar unga yer-u ko‘k
Bul sho‘rlikning paymonasi to‘lgan deb,
Yerda chiroq yoqquvchisi qolgan yo‘q,
Yolg‘iz o‘g‘li allaqachon o‘lgan, deb!

* * *

Bugun chaqir, chaqiraver uyalmay,
Hech bo‘lmasa ovoz yurishi uchun —
Yiroqdagi onang o‘tirib qolmay
Uyga kirib-chiqib turishi uchun.

1988-yil 2-may

ILINJ

(Ballada)

Onaizorim Sharofat Xonnazar qizi xotirasiga. Farzandlaringning qabring ustida yig‘lashlari uchun ularni tirikligingda yig‘latma.

PIFAGOR

I

Jang boshlanar, qattol jang,
Otlanar yosh-u qari.
Eri-chi, alang-jalang,
Bilmasdi ne qilarin.
Ko‘p tansiq hayot nuri
Chalg‘itdimi gumrohni.
Der, yo‘q, yelkam chuquri —
Ko‘rsin do‘zax, janggohni.
Har holda, o‘lmas, dardga,
Og‘riqqa qilar toqat.
Ketganlar ketdi, ortga
Qaytmoqda-ku qora xat.
Jon shirin ko‘rindi, xun,
Qo‘rquvga, o‘yga botdi.
Bosh barmog‘ini bir tun
O‘z qo‘li bilan otdi...

II

Tongda ketdilar olib
Itdan battar etib xor.
Uch go‘dak bilan qolib
Ayol tebratar ro‘zg‘or.

Tiriklik toshdan qattiq,
Non qayoqda, qovurmoch.
U ham mo‘l bo‘lsa koshki,
Yarim to‘qin, yarim och —
Urush. Qishloqda bor ish
Bo‘lingan ayollarga.
Tok bo‘g‘zini yumshatish
Belda madori borga.
— Baquvvatroq bir sensan,
Ketmoningni ol, Gulnor.
Ish unumsiz. Ahvol tang,
Bog‘ga tezroq yetib bor. —
Shunday der brigadir
Taqillatib eshikni.
— Jon bolam, irg‘ab o‘tir,
Chaqalog‘-u beshikni —
Gulnor shoshadi ishga,
Baquvvat bo‘lmoq kerak,
Tok bo‘g‘zini ochishga.

III

Ichi bo‘sh qop tik turmas,
Shijoat qani tonggi,
Kun choshgohga bormasdan
Bo‘zday oqarar rangi.
Ich-ichi silinadi
Ko‘tarolmay ketmonni.
Ovsinlar ilinadi
Bitta zog‘ora nonni,
Non chetidan bir to‘g‘ram
Zo‘rg‘a ushatib yeydi.
Nonning qolganin o‘rab,
“Bolalarimga”, deydi.
Zir qaqshaydi toqatlar,
Yarim ochin, yarim to‘q,

Qamoqdan kelar xatlar
Erning o‘zidan sovuq:
“Qishdan bir amallab chiq,
Boq qo‘shnilar molini.
Bilgin, qo‘shni qishloqlik
Gulsunning ahvolini.
Hamon har tong, kechada
Kiyinarmi xil-xillab,
Hamon bizning ko‘chadan
O‘tadirmi qilpillab?
Lavang eri tirikmi,
Qora-pora xat yo‘qmi?
Fashist ayapti chog‘i,
Unga atalgan o‘qni.
Erin aytgandi bir payt:
“Er emas, bu latta, deb
Mening holim so‘rsa, ayt,
Gijinglagan otday deb”.

* * *

... Yo Rab, kelmasidan kuz,
Keldi so‘lmoq, sarg‘aymoq,
Somon bo‘ldi anor yuz
Sog‘ yurakka to‘ldi dog‘,
Ruh singanida, beshak,
Vujud ham sinar oxir.
Buncha tortmasa to‘shak,
Qomat bunchalar og‘ir.
Shumi ishq sadoqati?!
Rangi za’far, zard bo‘ldi.
Nomard erning har xati
Uni yiqqan dard bo‘ldi.
Ko‘krakka sanchilib tig‘
Azob, armon aralash,
Bir tun yo‘talib qattiq
Tupurdi qon aralash...

IV

Jangdan Gulsunning eri
Qaytdi bir oyoq bo‘lib
Qaytib quridi sho‘ri
Xotini sayoq bo‘lib.
Elda ko‘tarolmay bosh
Yigit yoshda sindi tor.
Yiqilganga otib tosh
Nopok ayol sharmisor.
Qo‘li yetsa chang solib,
Mingni ko‘rgan bu xotin
Qo‘ltiqtayog‘in olib
Erin urgan bu xotin —
Kimga vafo qilar deb,
El yig‘ladi, el kuldi.
Taloq xatini berib
Mardon cho‘loq qutuldi.

V

Gulnor, mening Gulnorim,
Gullar chog‘ so‘lganingni,
Sening go‘dagingning
Ko‘z yoshini qaytaman?
Xiyonatning o‘qidan
Bemavrid o‘lganingni
Norasidalaringga
Qay til bilan aytaman?
So‘nggi kunlar Sen qo‘shni
Kelinchakni chaqirib,
Debsan: — Eshiting, tez kun
Paymonam ham to‘ladi.
Hushyor bo‘ling, jon o‘rtoq,
Opam qolmasin kirib,

Bu g‘amlarim eshitsa
Mendan oldin o‘ladi.
Erim shunday, har xatda
So‘roqlaydi Gulsunni.
Men-chi, o, men umrning
Qay lazzatin totibman?!
Opam sho‘rlik boisin
Bilmas bul qora kunning.
Mana, uch oy... betinim
Qon tupurib yotibman.
Kecha Hojarnikida
Gulsun mehmon bo‘lgan chog‘,
Debdi: “Uch-to‘rt kun qoldi...
Bu uyga men egaman
Eriga-ku, boshidan
Tashlab qo‘yganman tuzoq,
Qamoqdan chiqar emish,
Kelgan kuni tegaman...
Yo Rab, pishak tilovlar
Yetar murodlariga,
Uch go‘dagim qoldirib
Ketib borayotibman.
Yo‘q, falak ham yetmadi
Ko‘nglimning dodlariga,
Ko‘zim ochiq, dunyodan
O‘tib borayotibman.
...Shu chog‘ opang kiribdi
Ko‘zlarida yosh bilan:
— Nafasing yelga ketsin,
Kuz dorigan bahorim,
Meni kimga tashlaysan,
Uchta jujuq bosh bilan.
O‘rningga men ketayin,
Opang o‘lsin, Gulnorim.
Shu chog‘ qaydan olding Sen,

Bul qadar donishmandlik,
Shu chog‘ qaydan olding Sen,
Bul qadar osoyishni,
Debsan: menda uzilar
Bul hayot bilan bandlik,
Jonim opam, qo‘y endi,
Gulnoringni koyishni.
O‘stirsang, qizim Senga
Mendek bo‘ladi singil,
O‘g‘illarim — suyanching
Har uchchovi sengadir.
Endi belingni mahkam
Bog‘la

buzmagil ko‘ngil,
Senga balo evrilsa,
Shul uchchovi yengadir.
Norasidalarimni
Faqat senga inondim,
Uchovini ulg‘aytsang
“Yolg‘izman” deb hech kuyma.
Go‘daklarim xo‘rlansa
Go‘rda o‘t bo‘lib yongum,
Jon opajon, go‘rimda
Meni qo‘zg‘atib qo‘yma!
O‘tinaman, ularning
Ko‘ziga yosh qo‘ndirma.
Men ketgach, sen ayt, ular
Seni Ona desinlar.
Endi xo‘shlashay, mard bo‘l,
Go‘dakday yig‘lab turmay
Yaqin qarindoshlarga,
Xabar yubor, kelsinlar.

VI

Aqli shunchalar tiniq,
Shunchalar tinch asabi.
Gulnor ketdi dunyodan
Mehmonga ketgan kabi.
Opa yig‘lar: “Qulf urgan,
Tili bolim ketdi, deb,
Sochi yerni supurgan
Majnuntolim ketdi”, deb.
— Yohu, “Ona” deydi-yu,
Qizing ko‘ngli to‘lmaydi.
O‘g‘ling “Ona” deganda
Opang qandoq o‘lmaydi?!
Kiprigimning ustida
Go‘daklaring ko‘taray,
Sen tirilib kel, gulim,
Maysaday men ko‘karay!

VII

Uch kun o‘tib er keldi
“Yallama yorim”ni aytib.
“Ko‘nglimga g‘am sig‘mas” deb
Vaj qildi tolganini.
Choshgohgacha ham turmay
Shaharga ketdi qaytib
Yetkazdilar Gulsunga
Uylanib olganini.

VIII

Keyin...
Keyin, yo Rab, nohaqlik
Bilmaydirmi chegara.

Hali eskirmay turib
Hijron, aza-yu azob,
Ular boshlashib keldi:
“Biz shu yerda turamiz”
Bolalarni qoldirib
Sen o‘zingga bir joy top.
— Shunga uylandingizmi,
Kuyov, shuni qo‘ying siz —
Gulnor hali o‘lmasdi
Shu o‘ldirdi ilon, yov.
Ro‘molimgacha sotib
O‘tkazayin to‘yingiz.
Boshqa ayol topaylik,
Shuni qo‘ying, jon kuyov.
— Nima deding, Sen badbaxt!
Er kelarkan xezlanib
Qo‘ni-qo‘shni yog‘ildi,
Deb “Sen iblis qavmidan —
Badbaxtlikni bu uyga
Sen opkelding hamma vaqt!”
Va ikkisin ketma-ket
Haydadilar hovlidan.

IX

...Mana shundan qirq yillar
O‘tayotgan paytdir bu,
Bugun er ayrilgandir
Ko‘zlarining nuridan,
Qarz hech kimda qolmaydi
Dunyo qaytma-qaytdir bu,
Bugun ota xor qaytar
Har farzand huzuridan.
Soyasidan bahr olar
Xesh-aqrabo ko‘karib

Har farzandki yuksalgan
Gurkirab xuddi chinor.
Xolalarin yurarlar
Naq qo‘llarda ko‘tarib
Va lekin har birida
Unut bo‘lmas qasos bor.
Hech kim unutilmaydi,
Ular jazo olsinlar.
Bu qirq yil-ku, ming yillik
Qotillar ham topilsin —
Ular arvohday izg‘ib
Ko‘cha-ko‘yda qolsinlar
Mehr tilab borganda
Bor eshiklar yopilsin.
Azal-abad ajdodi,
Avlodidan ketsin shon,
Tavqi la’nat tojini
Kiyishib boshlariga,
Qancha tirik yursalar,
Shuncha bo‘lsinlar nishon
Qabohat toshlariga,
Malomat toshlariga!
Qadamidan o‘t, kuyuk
Isi dimoqqa ursin.
O‘z o‘limin tilasin
Yerda ortiq yurmay deb,
Shafqat tangrisi undan
Yuzin keskin o‘girsin.
Hukm qilsin: “Yo‘qoting,
Qaro yo‘l”ni ko‘rmay deb.
O‘lim ham jirkanganday
Aro yo‘lda o‘lsa dol,
To‘ymas ko‘zin tuproq ham
Hazar qilib yopajak.
Ko‘chasidan o‘tarkan,

O‘ylab ketar tengqur chol
Shundoq yashab o‘tganlar,
Shundoq o‘lim topajak!
Tag‘in o‘yimga Gulnor
Keladi, horg‘in, ozib,
Zog‘oradan bir tishlam
Zo‘rg‘a ushatib yeydi.
Qolganini ro‘molga
O‘rab, bag‘riga bosib,
“Yemayman, yo‘q, buyog‘i
Go‘daklarimga”, deydi.

1983-yil 24-iyul

BAXSHIYONALAR

Tug‘ilish

Ashurbekka

Kechki majlisni qizg‘in olib borayotgan Bobojon rais birdan duduqlandi.

Tildan qoldi. Ko‘ngli behuzur bo‘lib, jonsizlanayotganini his qildi-yu, stulga cho‘kdi...

Oyoq-qo‘li ishlamay qolgan raisni ko‘tar-ko‘tar qilib uyiga olib borib yotqizayotganlarida, qo‘shni xonada xotinini to‘lg‘oq tutardi. Xotini jon achchig‘ida ingrar, har ingraganda Bobojon rais qo‘zg‘almoqchi bo‘lib intilar, katta-kichik bolalariga “Onangga qaranglar” ishorasini qilib imlardi.

Vaqti-soati yetib xotinining ko‘zi yoridi. O‘g‘il tug‘ildi. Vo darig‘! O‘yladi Bobojon rais shiftga tikilib yotib, to‘kilish, tug‘ilish... bir lahzaning ichida.

“Suyunchi beying, suyunchi beying”, doya kampir oppoq o‘ralgan chaqaloqni “gapirtirib” otasiga ko‘rsatgani olib chiqdi. Bobojon rais chaqaloqning o‘zinikiga o‘xshash qirra burni, cho‘zinchoq yuzi, kipriksiz ko‘zlariga tikilarkan, nimadir aytmoqchi bo‘lib tutilib qoldi, ko‘zi yoshga to‘ldi. Uning intig‘-u zor yig‘lagan ko‘zlaridan mana bu gaplarni uqish mumkin edi:

Erkakka yo‘l kerak, bolam,
Erkak yo‘lga yo‘l qo‘shar.
Bu yo‘llarga birov chechak,
Birov xor-u xas to‘shar.

Bu yo‘llarga birov sergak,
Birov gangib, mast tushar.
Otang yo‘ldan qolgan kuni,
Yo‘li bo‘lib keldingmi?

Erkakka el kerak, bolam,
Seni qurshab el yursin.
Yaxshi-yomon kuningda el
Sirib bog‘lab bel, yursin.

Endi men yurolmasamam
Elni alqab yel yursin.
Otang eldan qolgan kuni
Eli bo‘lib keldingmi?

Erkakka til kerak, bolam,
Tili bilan til olar.
Umri bo‘yi qo‘shin tortib,
Qancha-qancha dil olar.

Ayol olar, ko‘nglin topib,
Qator qiz-u ul olar.
Otang tildan qolgan kuni
Tili bo‘lib keldingmi?

1984-yil 20-iyul

Ona sadoqati va yolg‘iz o‘g‘il armoni qissasi

Urush bitdi. Kelgan keldi, kelmagan yiroqlarda qoldi. Ko‘ngli yarim kelinlar qozonlarini suvga soldi. Ko‘ksini yerga berib sovungan kim, yig‘lab bolasiga alla aytib ovungan kim. Yuraklari uzilib, sarg‘aygan oy yuzidan ko‘zyoshlari sizilib go‘dagining beshigini tebratib o‘tirgan Sayram kelin bir vaqtlardagi gungursday qaynonasining eshikdan sharpadaygina kirib kelayotgani, tomoqlari qurib kelayotganini payqadi. “Ah, yomon kuni qursin-a, enam sho‘rli Ravshanimning otasi urushga ketmagan paytlar bir siltanib uyimga kirsa, farmonbardor ovozi gurullab, taxmonimdagi ko‘rpa-to‘shagimgacha zirillab ketmasmidi?! Bugun esa... Bugungi kunimga u aybdorday, nimaga ko‘zimga tik qarayolmaydi?!” Shu asnoda bo‘g‘ilib, Sayram kelinning nafasi qaytdi, so‘lib qolgan qaynona qon qaqshab, aytolmay yurgan gapini aytdi:

Avval o‘ti kuyushmasa, deb kuyib yurdim,
Keyin qulunim qo‘sh bo‘ldi, deb suyib yurdim,
Oting o‘chgur bu urusham bir ilinj edi,
Bo‘talog‘imni tushda ko‘rib, iyib yurdim.
Enang o‘lsin, kuyganimiz rost bo‘ldi-yov,
Bolam, qora kiyganimiz rost bo‘ldi-yov,

Qulunimni qayerlardan topay endi,
Quluniga qora baxmal yopay endi,
Yolg‘izimdan yodgorimni menga ber-da,
It bo‘l, qush bo‘l, sen ko‘paygin, ko‘pay endi.
Tilim tishlab tosh bo‘layin, kuzatayin,
Qaqshab, o‘zim bosh bo‘layin, uzatayin.
Kelin emas, sho‘rli bolam, bolam bo‘lding,
Jon chiqquncha ko‘ksimdagi nolam bo‘lding.

Shu gaplarni aytgan tilim qirqilsa-chi,
Qandoq uzay, jonga bog‘liq tolam bo‘lding.
Tilim tishlab tosh bo‘layin, kuzatayin,
Qaqshab, o‘zim bosh bo‘layin, uzatayin.

Shamolman men, uni yelpib esmoq uchun,
Belanchakman, yotmog‘iga osmoq uchun.
Enang o‘lsin, yodgorimni tashlab ketgin,
Ko‘ksimdagi jarohatga bosmoq uchun.
Tilim tishlab tosh bo‘layin, kuzatayin,
Qaqshab, o‘zim bosh bo‘layin, uzatayin.

Bug‘doy chochsin, tariq chochsin, gul kelinim,
Yo‘llaridan yovlar qochsin, gul kelinim,
Bu sho‘r-u tor peshonamga sig‘mading-ku,
Peshonangni Xudo ochsin, gul kelinim.
Tilim tishlab tosh bo‘layin, kuzatayin,
Qaqshab, o‘zim bosh bo‘layin, uzatayin.

Sayram kelin bu so‘zlarni tinglab ich-ichidan ingrab, “Hah, to‘ramning o‘lgani, bu xonadonga ortiqchaligim sezilibdi-da”, deb unsiz fig‘on chekib, bu ro‘zg‘orga kelin bo‘lib tushganidan beri birinchi marotaba qaynonasiga tik qarab, bu so‘zlarni so‘zlay-verdi:

Oh, enajon-ey, bolam deysiz-u, aldaysiz —
Yoki o‘lsang ham mendan yiroqroqda o‘l, deysiz.
Ravshanning otasi o‘zingizniki emasmidi,
Qaysi til bilan “o‘zgaga xotin bo‘l”, deysiz.
To‘ramning o‘lgani o‘ng ko‘rindimi, enajonim-a,
Ko‘zingizga do‘ng ko‘rindimmi, enajonim-a?!
Botsa, bermang yegani bir tishlam nonimni,
Tinch qo‘ying, ena, to‘nkarmasdan osmonimni.
Bunda yodgorim, bunda-ku yorug‘ joni-jahonim,
Qandoq ketayin men opqochib yolg‘iz jonimni?!
Har tun to‘ramni tush ko‘radi bu yostiqlar,
O‘zga bosh tegsa, chinqiradi bu yostiqlar.

Mayli, umrim — qish, kuraganim — qor bo‘lsin, deng,
Faqat o‘zga er nomus bo‘lsin deng, or bo‘lsin, deng.
Begona erkak to‘shagimni bosgan kuni
Chilvir sochlarim uzun bo‘ynima dor bo‘lsin, deng,
Qaqshab, o‘zingiz o‘tkazmasdan to‘yim, ena,
O‘z qo‘lingiz bilan meni qabrga qo‘ying, ena!

Ana shunda qaynonaning ko‘zlari “yarq” etib ochilganday bo‘ldi. Xayolida: “Oh, sho‘rlik bolam-a, sening xayoling boshqa ekan-ku, ne hadikda yurib edim, bugunmi, ertami baribir ketadi, yosh narsa, nevaramniyam olib ketadi, o‘t ketdi, xonumonimga o‘t ketdi, deb, titroqlarda turib edim” kabi o‘y-xayollarini o‘zicha pichirlab, Sayram kelinni bag‘riga bosdi. Kelinning bilaklari ham tok novdalariday unga chirmashdi. Ikkalasining ham ko‘zyoshlari shashqator. Biroq bu g‘am yoshimi, sevinch yoshimi — ilg‘ash qiyin edi...

...Kunlar o‘taverdi. Umr ketaverdi. Qazosi yetib qaynona ko‘zini yumdi. Sayram kelin bir farzandday qaynonasining izzatini joyiga qo‘yib ko‘mdi. Ravshan qirchillama yigitmisan, yigit bo‘lib voyaga yetdi. Butun orzu-armonini shu yolg‘iz bolasida ko‘rgan ona unga qishloqning old qizini olib berdi. Ho-yu havas bilan uylantirdi. Endi Sayram kelin ilgarigi paytlardagiday ingranib nola qilmay qo‘ydi. Vaqti ham bo‘lmay qoldi, shekilli. O‘ziyam, kelini har yili qo‘ziladimi-yey. Oltinchi farzandi dunyoga kelganda Ravshanbek og‘ir dardga chalinib, to‘shak tortib yotib qoldi. Sayram kelin uzun tunlar to‘shakka mixlanib yotgan Rustami Dostonday bemor o‘g‘li boshida ingranib nolami, allami aytib o‘tiradigan bo‘ldi.

Bemorning ahvoli kundan kun og‘irlashaverdi. Bir kecha holdan ketib borayotganini sezgan Ravshanbek xotini, bolalari bilan tinchgina vidolashdi. Rozi-rizolik tiladi. Onasi bilan yaqin qarindoshlari bilan ham. Keyin, bir siltandi-yu, ravon tilga kirdi. Uning ko‘zi yumuq, alahsirayotganga o‘xshar, ammo bu tiniq, shiddatli so‘zlar o‘lim oldi alahsirashi emasligi, butun umr o‘ylangan, ammo aytilmagan, yurakda saqlangan dardlar ekanligi bilan onaning, o‘tirganlarning ko‘nglini alg‘ov-dalg‘ov

qilib yubordi. Mana bu o‘sha lahzadagi Ravshanbekning aytgani:

Enam, sen enadan eding yolg‘iz qiz,
Ne uchun meniyam yolg‘iz o‘stirding.
Birovga suyana olmadim, esiz,
Seniyam hamisha g‘amboda ko‘rdim.
Ukam deb birovga berolmadim yuk,
Singlim deb birovga aytolmadim sir.
Enam-a, enajon, senday ena yo‘q —
Qiynalib yashadim, menam baribir.
Odam qiziq ekan, opang bo‘lsa keb,
Boshing silab, dardga darmon bo‘larkan.
Erkalanib “aka, akajonim”, deb,
Birovga osilmoq armon bo‘larkan.
Men-ku, mayli, ketib boryapman mana,
Ko‘ksimni mo‘ljalga olmoqda dard o‘q,
Enam-a, enajon, bu emas ta’na,
Faqat endi menday g‘amguzoring yo‘q,
Toylar ot bo‘lguncha yurak bo‘lar lat,
Mening go‘daklarim o‘sganga qadar —
Enajon, enam-a, to‘kilma faqat,
Ungacha yengmasin seni g‘am, kadar.
Enajon, ne uchun tegmading erga
Bir o‘g‘il, hech yo‘qsa bir qiz bo‘lsaydi.
Otamni-ku, axir, berganding yerga,
Akam deb yig‘lashga bir ko‘z bo‘lsaydi...
Bir yelka bo‘lsaydi suyanmog‘ingga,
Men ketgach, egilib qolmog‘ing tayin.
Men qandoq chidayin sening dog‘ingga,
Yolg‘iz qolmog‘ingga qandoq chidayin?!
So‘ng so‘zni qaytardi tushib jiq terga:
Enajon,
ne uchun...
tegmading...
erga?!”

O‘, jigarlarim-a, o‘zi bu dunyo o‘ylasang, o‘tirib o‘ylaydigan, to‘rt tomonidan bo‘ylaydigan dunyo ekan.

Ammo manavi holda meniyam o‘yim bitmay, kim haqligiga ko‘zim yetmay qoldi-ku. Ko‘pdan ko‘p gap, ko‘p aql chiqadi. Shuni o‘ylab, bu bovurlarimning hayotini, qanday bo‘lsa shundayicha, sizga aytib berishni ma’qul topdim.

1984-yil 20-iyul

Baxshining to‘ydagi kurashda aytganlari

Mamatqul baxshi bir to‘yda do‘mbirasini chetga qo‘yib, polvonlarga joni iyib, munkiganni yelkasi qorda, zap odatlarimiz borda, deb kurash tomosha qilayotgan edi. Davra boshining ko‘zi baxshiga tushib qolib tavoze bilan iltimos qildi: “Mamatqulboy, men polvonlarni shaylagunimcha o‘zingiz xaloyiqqa bir narsa aytib turing”. Bunday tasodif taklifni kutmagan Mamatqul baxshi bir zum jim qoldi. Ammo lahza o‘tmay xalqqa o‘z dardini to‘kib soldi. U, jigarlarim-a, har kimniyam to‘ydami, azadami odamlarga aytadigan gapi bo‘lsin ekan-da...

Kurash degani o‘zi nima,
Asov dengizda talosh kema.
G‘arq bo‘laman-ov, g‘arq dema,
Zoting polvonma, kurashgin.

Birovni ortidan otganlar,
Birovni ortidan sotganlar,
U sho‘rliklar-ku yer qa’riga
G‘aflat uyqusida botganlar.
Shularni bolasi bolami,
Kurashsiz kechsa olami.
Ko‘ksiga o‘t qo‘yib turmasa.
Bobosining qasos, alami.
Zoting polvonma, kurashgin.

Sengachayam tang, torda kurashgan,
Chirsilloq qish, qorda kurashgan.
Oyoqlari havoda salanglab
Osilib dorda, kurashgan.
Yonma-yon qalashib yashasa,
Ming‘illab, talashib yashasa

El kuymaydimi shuni bolasi,
Yov bilan yalashib yashasa —
Zoting polvonma, kurashgin.

Bugunam past, to‘rda kurashar,
Birovi qir, o‘rda kurashar.
Aytgan so‘z — keskir qilichi bilan,
Birovi go‘rda kurashar.
Dorlarda qotganlar kurashsa,
Go‘rlarda yotganlar kurashsa,
Sen kurashmasang o‘lim-ku, bolam,
Jonidan o‘tganlar kurashsa!
Zoting polvonma, kurashgin.

Kun bo‘lar, ishq jilpanglaydi,
Oy deganing yerga tenglaydi.
“Taqdir”, deb urmay manglaydi,
Oting polvonma, kurashgin —
Yoding polvonma, kurashgin —
Zoting polvonma, kurashgin.

1984-yil 21-iyul

Qasam

Qimmatchilik, qahatchilik yillari...

Ko‘zi ko‘r taqdirga o‘t ketsin-a, bo‘lmasa Oysuluvday suluv juvon bir kazzob, o‘g‘riga duch kelib qolarmidi.

Tun yarimlab qoldi, erdan darak yo‘q. Yo‘q, birdan og‘il tarafda tapir-tupir, shivir-shivir, sigirning mo‘ngrashi, xirqirashi aralash-quralash bo‘lib ketdi. Keyin uzoq jimlik. Eri hadeganda kelavermadi. Oysuluv oy-kuni yetib, shiqirlab o‘tirganidan to‘shakdan arang qo‘zg‘olib og‘il tarafga o‘tdi.

O‘tdi-yu, dong qotib qoldi. Og‘ilning ichi oppoq sut... Uying kuygur er o‘zining bir hamtovog‘i bilan birovning endigina bo‘shangan sigirini o‘g‘irlab kelib, so‘yibdi. Go‘shtini nimtalab, ertaga bozorga olib chiqishga tayyorlab qo‘yibdi...

Er chag‘ir qo‘llarini o‘ynatib burchakdan bir bo‘xcha olib xotiniga otdi.

— Ma, iynimga ilarim yo‘q, deb quloqni qoqib qo‘limga berding, xohlaganingcha kiy. O‘ziyam ertaga to‘yi bo‘ladigan qizdi sepidan, taxmonidan tinchitdik.

Oysuluv bo‘zday oqarib, bor kuchini to‘plab bo‘xchani hovliga uloqtirganini biladi, tarsillab tushgan tarsakining zarbidan devorga borib urildi-da, ildizidan qo‘porilgan daraxtday qulab, cho‘zilib qoldi.

Mana bu uning o‘ziga kelib eriga aytganlari:

Bo‘rimiding, tulkimiding, ermiding,
Sho‘rim qotmasa men seni dermidim.
Ko‘zim chiqsin, ko‘rmidim-ey, ko‘rmidim,
Dunyosida endi tirik yurmayman.

Harom yesam, tag‘in harom kiydirsang,
Tiriklayin o‘tga solib kuydirsang,
Shulardan so‘ng tag‘in o‘zni suydirsang,
Dunyosida endi tirik yurmayman.

Aro yo‘lda o‘tiribman munglanib,
Ko‘nglim sezar, ololmasman o‘nglanib,
Harom-xarish, qora yerga tenglanib,
Dunyosida endi tirik yurmayman.

Sep — umrlik o‘y-armondan yig‘ilar,
Tomchi terdan, tomchi qondan yig‘ilar,
Ko‘kragimni o‘yar qarg‘ish, yig‘ilar,
Dunyosida endi tirik yurmayman.

Aro yo‘lning ayonlari bo‘ynimda,
Ilonlari, chayonlari bo‘ynimda,
O‘g‘rilik — yuk, cho‘yanlari bo‘ynimda,
Dunyosida endi tirik yurmayman.

Oh, umrim-ey, endi unga abad shom,
Bolam “o‘g‘ri bolasi” deb olmas nom,
Uvuz sutim emizmayman, u — harom,
Dunyosida endi tirik yurmayman.

Er, sen qashqir to‘shagiga uvlab kir,
Qodir egam, agar bo‘lsang, ko‘r tadbir,
U qiblamni bu qiblamga aylantir!
Dunyosida endi tirik yurmayman...

...Ertalab kun choshgohga kelib yoyilib ketdiyam, Oysuluv joyidan qo‘zg‘olmadi. “Bolamning bunday kunduz yotadigan odati yo‘q edi-ku”, deb xavotir olgan keksa onasi undan xabar olgani uyga kirdi...

Vodarig‘, Oysuluv o‘zi ko‘rgan ranj-u alamlardan hayratlanganday katta-katta ko‘zlari ochiqligicha badanlari muzlab qolgan edi...

— Voh bola-aam, qirchinidan qirqilib qurigan bola-aam, haromning kasofati urgan bola-aam!!! — Kampirning achchiq faryodi qishloqni darzaga solar, Oysuluv esa o‘zining yomon qasami, u qiblasini bu qiblasiga aylanganidan ming marta roziday tinchgina abadiyat uyqusiga ketgan edi.

1984-yil 21-iyul

Ko‘zi borlar to‘g‘ri yo‘ldan yurmasa...

Tag‘in o‘sha qimmatchilik, qahatchilik yillari...

Tangriqul baxshining ukasi O‘rolboy murosasi kelishmay o‘zining yengiloyoq xotini Qirmizning javobini berdi-yu, yangi uylangan xotini Oqbilak tezgina ikkiqat bo‘lib, oyparchaday qiz tug‘ib berdi. Tug‘im —o‘lim bilan barobar emish. Xotini qiynalib tug‘ib yotar ekan, O‘rolboyning ko‘ngli oldingi echkiday o‘ynoqlab yuradigan sho‘x xotinini tusab qoldi. Kechalari uni olib kelib qo‘shni xonada aysh-u ishrat, o‘yin-kulgu qiladigan odat chiqardi.

O‘lar bo‘lsam Sengina deb o‘loyin,
Sarvday qomatingni quli bo‘loyin.
Gulim, to‘ldir quchog‘imni, qo‘ynimni,
Chilvir soching dori bo‘lsin bo‘ynimni.

Erining shirakayf, shirali ovozda boshlagan oshiqona qo‘shig‘i, Qirmizning qiqir-qiqirlari eshitilmasin deb Oqbilak sho‘rlik uyining tirqishlarigacha berkitib o‘tiradigan bo‘ldi...

Qirmizning O‘rolboyga yelimday yopishuvining tag‘in bir sababi bor edi. Qahatchilik emasmi, O‘rolboy kolxoz omborida ishlar, ishdan qaytishda bir siqim, ikki siqim deganday bug‘doy o‘g‘irlab uyiga olib kelar va bundan, albatta, Qirmizam benasib qolmasdi.

Bir kech, Oqbilakning tashqariga chiqqanidan foydalanib, O‘rolboy chaqaloq qizchasini olib chiqib Qirmizga ko‘z-ko‘z qildi.

“Qirmiz, Qirmiz, qizimni ko‘r, o‘ziyam o‘lmasa bir qiz bo‘ladi-da!”

Qirmizning rangi bo‘zday oqardi. “Shoshma, hali menga qizini ko‘z-ko‘z qiladigan...”

...Ertasi kuni O‘rolboyning peshonasiga “bug‘doy o‘g‘risi” tamg‘asini bosib qamoqqa olib ketishdi.

Mana, bu so‘qir Tangriqul baxshining o‘sha kunlardagi chekkan nolalaridan:

Bir otaning, bir onaning bolasi,
Biri kazzob, biri daryo nolasi.
U, bitmas-ey, bu dunyoning chalasi,
Ko‘zi borlar to‘g‘ri yo‘ldan yurmasa.

Halol qolar bir chekkada mung‘ayib,
Harom o‘ynar qulochlarin baxt yoyib.
Harom o‘sar yag‘rinlari kengayib,
Ko‘zi borlar to‘g‘ri yo‘ldan yurmasa.

Ini avval suyanchig‘ing bo‘larkan,
So‘ng — og‘rig‘ing, dil sanchig‘ing bo‘larkan,
Hatto Senday ko‘rga chiqim bo‘larkan,
Ko‘zi borlar to‘g‘ri yo‘ldan yurmasa.

Qizni asli osmondagi oy denglar,
Qayg‘u yuki bossa qaddi yoy denglar,
Qayg‘u balchig‘ida oy ham loy denglar,
Ko‘zi borlar to‘g‘ri yo‘ldan yurmasa.

Ko‘r ko‘zimdan sitilib g‘am yig‘laydi,
Toleyimda yonmagan sham yig‘laydi,
Ayol, go‘dak bani odam yig‘laydi,
Ko‘zi borlar to‘g‘ri yo‘ldan yurmasa.

1984-yil 21-iyul

Qush tiliga yovuq kelsa qush tili...

"Azbarxo'ja karvonboshi aytdi: "Ey do'stim, hamroching ayol ekan-ku, ayolni jo'ram yo'q desam ham bo'ladi." Shuytib aytmagan ekansan-da".

"Kuntug'mish" dostonidan

So'z ekilgan elning dala-tuziga,
Har kim tanlar ma'qulini o'ziga,
Ko'zim tushib manov sarbon so'ziga,
Ich-ichimdan tahqirlangan or keldi.

To'ralarga shoyi ko'rpa to'shayik,
To'ralarga daryo yoyiq, kun yoyiq,
Ayting, ayting, kulli o'tgan mashoyix,
Nechuk ayol yurar yo'li qor keldi.

Asli erkak, ayol birday yo'l izlar,
Donish aql, uddaburron qo'l izlar,
Ayting, ayting, kulli o'tgan azizlar,
Nechuk ayol ko'ngli doim zor keldi.

Baland tog'lar bilmas orom, bilmas xob,
Pinhon-pinhon to'kaverar ko'zdan ob,
Nechuk Odam Atoni deb bo'lgan sob,
Momo Havvoga bu dunyo tor keldi.

Azbarxo'ja tug'ilmagan onadan,
Balki, uni topgandirlar yonadan,
"Ona" der-ku, dard o'tganda jonidan,
Nechuk ayol shu nomardga xor keldi.

Maysa qoplar qir, qiyalar ustini,
Qush tiliga yovuq kelsa qush tili.
Bittaga ham ko'paytmasin pushtini,
Shuning o'zi Azbar uchun dor keldi.

1984-yil 24-iyul

Yo‘qlov

O‘rtog‘im Halima Hasanovaning xotirasiga

Oy desa degulik Oyxumorning suluvligi ta’rifi yetti iqlimga ketgan edi. Ammo keksayib qolgan onasi uni o‘zi aytgan odamga bermadi. Berolmadi. Shu sababmi, boshqami, qiz ovloq payt topib o‘zini osdi. Nima ish bilandir og‘ilga kirgan ukasining ko‘zi uning salanglab turgan oyoqlariga tushdi. Qiyomat qo‘pti. Mana, bu Oyxumorning onasining o‘z qizi jasadi ustida betini qon jo‘shatib aytganlari:

“...Jonim bolam, ko‘zi charos, qoshi o‘q,
Daryo sochin qirqta qilib o‘rardim.
Shuni o‘zim tug‘ganmanmi yoki yo‘q,
Bir ishonib, bir ishonmay yurardim.
Tuqqanimam endi yolg‘on sho‘rliman,
O‘tda qolgan, angda qolgan sho‘rliman.

Kiyikmidi, hurkak-hurkak qaroshi,
Hurkib ketib sirtmoqlarga ilindi.
Gangitdimi mingni kelib so‘roshi,
Minginiyam suymasligi bilindi.
Qirqin qizga sardor bo‘lgan, voh bola-aam,
Talosh, bardor-bardor bo‘lgan, voh bola-aam.

Ming bo‘z bola, tenglarini teng ko‘rmay,
Ko‘zlarini parda to‘sgan bolam-ov.
Uying kuygur rais senga tengqurma,
Qizi bilan o‘ynab-o‘sgan bolam-ov.
Rais ana, bolalari qo‘ynida,
Ikki qo‘lim endi uning bo‘ynida!

Ko‘ylak kiydim, tutunlardan qoraydi,
Qora bo‘ldi gulday bolam yozug‘i.

Endi mening kunimga kim yaraydi,
Bolam bo‘ldi bir qashqirning ozig‘i.
Ordan o‘lim avlo, — degan, voh bola-aam!
Go‘dakligin qashqir yegan, voh bola-aam!

Tiriltirib bermasin-chi, qo‘yaman,
Endi ishim bu yurtlardan ko‘ch bo‘lar.
Sirtlon bo‘lib menam ko‘zin o‘yaman,
Endi onang ona emas, o‘ch bo‘lar.
Ammo bundan bo‘lsa bir naf, bolam-ov,
Yashatardim uni “uvlab”, bolam-ov!

Bu kuningdan beshbadtar bo‘l!

Yig‘i-sig‘i, qiy-chuv bir zum to‘xtadi. Eshikdan raisning xotini shallaqilik qilib kirib kelayotgan edi.

— Bechora erimni yomonotlig‘ qilguncha suyuqoyoq qizingni tiyib ol edi, qarishaqshaq!

Olazarak bo‘lib raisni qidirayotgan olomon uning xotini ustiga yopirildi...

Eshitishimcha, o‘sha kundan beri raisning xotini to‘shak tortib yotib qolganmish. Rais ham u atroflardan ketibdi. Taajjubli joyi shundaki, u xizmat pillapoyasida yuqorilabdi. Chekka bir rayonda sovxoz direktori bo‘lib ishlayotganmish...

1984-yil 24-iyul

VATAN

Boshpanammi, bosh panohim,
Quyosh, mohim, manimsan.
Ko‘nglim kuyib aytar ohim,
Qaytar ohim, manimsan.

Namozshomgul, xongullarim
O‘padi o‘ngirimni.
Yalpizlaring — singillarim,
Sotmaydi bir sirimni.

To‘nsam oftobing isitib,
Tinsam suving jildirar.
Qo‘nimi yo‘q qushchalaring
Ayvonimda chuldirar.

Shu qushchalar orasinda
Men besh go‘dak o‘stirdim.
Har birida Vatan otlig‘
Ozod yurak o‘stirdim.

Bir kun tugab o‘lan, aytim,
Olsam qaro yerga yo‘l,
Tug‘ilganda boshimdayding,
O‘larda ham boshda bo‘l!

Vatan!
Shunda onaliging
Nogoh chuqur tuygaysan,
Besh bolamning ko‘z yoshlarin
O‘zing artib qo‘ygaysan!

1996-yil 6-iyul

DEMAKKI, SEN SHOIRSAN

Nafaqat...
O‘tsang yozib
Kuz yanglig‘ so‘lib, ozib,
Bozillagan cho‘g‘ bosib,
Qo‘rdayam hayqirolsang,
Demakki, sen shoirsan!

Oltinmi
Yo olmosda,
Tig‘da yurolsang, rost-da,
Itqitsa, oyoq ostda,
To‘rdayam hayqirolsang,
Demakki, sen shoirsan!

Nafaqat
Ko‘tarsa xalq,
Ko‘ksingdan itarsa xalq,
Peshonang namakob, talx,
Sho‘rdayam hayqirolsang,
Demakki, sen shoirsan!

Nafaqat
Zar, zo‘rlarni,
Uzsang, to‘sin, to‘rlarni
Chayqaltirsang, go‘rlarni,
Go‘rdayam hayqirolsang,
Demakki, sen shoirsan!

1998-yil 2-noyabr

ENDI KET

Endi ket!
Kutdirding, yomon kutdirding,
Xijron zaharini shavq-la yutdirding,
Yiqildim! Boshimda ustuvor turding!
Endi ket!

Hijron yo‘llarida sochildi zarim,
Kutdim ishqim yarim, umidim yarim.
Bir-bir sinib bitdi qobirg‘alarim,
Endi ket!

Endi ket, shavkat-u shon ortiqchadir,
Chanqab qulagach, ummon ortiqchadir,
Tilanib to‘kilgach, non ortiqchadir,
Endi ket!

Endi ket, boshqaga dilingni yorgin,
Alvido, ko‘nglimda na gina, na kin,
Endi kimga borsang, vaqtida borgin.
Endi...
Ket!

1996-yil 7-iyul

OSHIQLIK SIZDAN O‘TARDI...

Oshiqlik sizdan o‘tardi, ma’shuqalik bizdanam,
Bugun yiroqdasiz, dil muz, eruv bilmas muz tanam.

Bugun hijron dovullarin quchog‘ida qaltirab,
Isinmoqqa o‘t izlayman Sizning maktub, so‘zdanam.

Bilasiz-ku qish quyuni bilan g‘ujg‘on o‘ynardim,
Bugun ko‘klamdan sovudim, ko‘nglim qoldi kuzdanam.

Sizdan ayru tushgan kundan bor dunyodan ayru Men,
Ketayotgan dushmandanam, kelayotgan do‘stdanam.

Xijron seli beldan o‘tdi, ko‘ksim, bo‘g‘zimga yetdi,
Keling, men g‘arq bo‘lmay keling, ayrilmayin o‘zdanam

Oshiqlik Sizdan o‘tardi, ma’shuqalik bizdanam...

1998-yil 2-iyul

AYTOLMADIM...

Sizga ishqim yuz ishq erdi, men birin aytolmadm,
Yuz ishqim-la yuzlasholmay, bir sirim aytolmadim.

Balki, sizam ko‘nglingizga chorlagandirsiz meni,
Chikdim, bori chetga chiqdim, bir kirim aytolmadim.

Yo ko‘z-u yo so‘z birla ishorat qilmoq, ne tong,
Yo oshkor, yoyinki bir yoshurin aytolmadim.

Ko‘klamim ko‘klab ketib, yoz bo‘yi yozg‘irdim-u,
Tong, uzun kunduz o‘tdi, keldi tun, aytolmadim.

“Tongda aytmay, kunduz aytmay esiz-a, esiz umr,
Endi tunda aytmagil”, deb keldi un, aytolmadim...

1996-yil 2-iyul

FAQAT ISHQING

Neki oldim, baxtmi, taxtmi qarz bari,
Bari bir kun qo‘llarimdan ketgaydir.
Bu bog‘ning ham chappar urgan gullari
Rangi o‘ngib, yo‘llarimdan ketgaydir.

Garchand hali mushki-muattar, qara,
Kuz kirib kelmoqda urib bar, qara,
Ikki o‘rim sochim — daryo, qarqara,
Qayon ketsa bellarimdan ketgaydir.

Dunyolarim shamol qilar qahraton,
Ne qilsa bir amal qilar qahraton,
Sahrolarim qamal qilar qahraton,
Qarg‘a, qiyg‘ir cho‘llarimdan ketgaydir.

Tanazzulda, yarqiragan on ichra,
Qonga, shonga mening bilan bir uchrab,
Faqat ishqing, jonim ichra, jon ichra,
Ketsam, tuproq, gillarimda ketgaydir.

1996-yil 18-yanvar

QASAMKI...

Garchand taqdirim kaj, loyli, sirpanchiq,
Bo‘ronli yo‘llardan kelarkan yurib,
Tik so‘zimni yerga qasamday sanchdim,
Madori yetganlar olgay sug‘urib.

Qasamki, moziyning chiroqlarini,
Shu’lasi, hadigi, titroqlarini
Sezmasam, ko‘r ko‘rsam ko‘nglim qa’rini,
Tutab, tentib yurmay o‘chmoqqa qasam!

Qasamki, she’r yozsam marjonday tizib,
To‘rt turkim bir tomon ketmasa suzib,
Jannat davronlardan ko‘nglimni uzib,
Do‘zax olovida kechmoqqa qasam!

Qasamki qonimda Mashrab bor, mahzun,
Meni ko‘kka tortar u ilohiy un.
Zikr, ishq, junundan ayro tushgan kun,
Qalandar xirqasin yechmoqqa qasam!

Erk keldi,
Erk keldi, ko‘nglim naydadir,
Darig‘, har ulkan tog‘ bir kun maydadir.
Bir kuni ketsamam ruhim qaytadir.
Ruhim, erkni qo‘rib uchmoqqa qasam!

1997-yil 3-aprel

RUHIM KO‘TARADI BAYROQLARINI...

Dunyo kambag‘alni kamsitib, g‘ajib,
Tag‘in boyitarkan boyroqlarini.
Ruhim olib qo‘yar boshimdan tojni,
Ruhim ko‘taradi bayroqlarini!

Qaydaki yetimni yetib tishlaydi
Dunyo qantarmasa kaj itlarini,
Ruhim yuragimga qattiq mushtlaydi,
Ruhim kiyaboshlar sovutlarini.

Toptala boshlarkan sha’n, or-u shonlar
Kir oyoq ostiga tusharkan oyat.
Bo‘g‘zimga keladi ko‘ksimdan qonlar,
Ruhim qon ichidan ko‘taradi qad!

Niyat but. Albatta, yetib boraman,
Bir kun hush kun kelar tong rangi bilan.
Ro‘zi mahshargacha ketib boraman
Qalqon-sovutlarning jarangi bilan.

1997-yil 2-aprel

HAQQIM YO‘Q...

Bilaman, na siym-u na zar ketsa ham,
Yonimdan do‘stim-u digar ketsa ham,
G‘amlardan qon bo‘lib jigar ketsa ham,
Ko‘zga yosh olmoqqa mening haqqim yo‘q.

Tungi dashtlari-yu darasidan-da,
Kir-chir yomg‘irlarin orasidan-da,
Men ovoz beraman kutilmagan dam,
Ko‘zdan yo‘qolmoqqa mening haqqim yo‘q.

Vatan, kulsin doim boshingda omad,
Xush kuning bo‘lsam ham unutilgan xat.
Qo‘pmasin, boshingda qo‘psa qiyomat,
Chekkada qolmoqqa mening haqqim yo‘q.

Bosmasin, yov bossa erkning rohini,
Qon bilan yozgayman elning ohini.
Boshim ketganda ham jang kulohini
Boshimdan olmoqqa mening haqqim yo‘q.

1997-yil 16-mart

BILMASMIZ

Biz nechun osmonni ko‘ra bilmasmiz,
Chunki yer ostiga kira bilmasmiz.

Teskari buramiz, do‘stlar ketadi,
Daryoni teskari bura bilmasmiz.

To‘fon bitta-bitta sindirar bizni,
Hatto daraxtday zich tura bilmasmiz.

Balki, ilonlar ham qilolmasdi daf,
Suvga baliqday g‘uj kira bilmasmiz.

Shayton kirib olgan ich-ichimizga,
Uni ruh, tanadan qira bilmasmiz.

Qay vayronaniki tuzatdik, tuzdik,
Battar vayron bo‘ldi, qura bilmasmiz.

Ko‘z o‘tkir vaqtlarda ko‘rday yashadik,
Bugun ko‘zimiz ham xira, bilmasmiz.

Dunyoni bilgichday dimoqlar osmon,
Bilganimiz shulki — sira bilmasmiz.

1997-yil 16-mart

ERK YO‘LI

Bari yolg‘on,
Shu yo‘lgina chin,
Bu yo‘lda yurmaysan, uchasan,
Faqat unda ketmoqlik uchun
O‘zing bor-yo‘g‘ingdan kechasan.
Otlanarkan
Tong yoki kechda,
Ichga to‘ldir ozodlik kuyin.
Bor lash-lushing birma-bir yech-da,
Boshdan oyoq hurlikni kiyin.

Erkka to‘yin,
Kerak tamomi
Muhtojliqdan o‘zni qutqarmoq.
Xudoyimning toza yo‘lida
Qanday bayram kishansiz bormoq!
Qayirolmas
Hech kim shoxingni,
Qirqiladi g‘ilof-u qinlar.
Boshingdagi erk kulohingni
Boshing olmay ololmasinlar!
Ololmasinlar!

1998-yil 2-noyabr

INSON ASLAN BUYUK

Inson aslan buyuk, aslan bechora...
Ohim dilingizga yo‘l topsa zora.
Qo‘lingizdan kelsa qilmang ovora,
Shul yolg‘iz insonni tuhmatga bermang!

Bir-birini sel-u toshqin qo‘llaydi
Qayda bc‘lsa yetib, shoshqin qo‘llaydi.
Bir-birini bo‘ri, qashqir qo‘llaydi,
Siz uni sinovga, muhlatga bermang!

Ko‘pdir zamonlarning qimor o‘yini,
Qirqadir odamning eni-bo‘yini —
Qo‘lingizdan kelsa ko‘ring to‘yini,
Uni har qanday dor, xilqatga bermang!

O‘chmas deb ishoning bosgan iziga,
Panoh deb ishoning o‘g‘il, qiziga.
O‘ziga ishoning, faqat O‘ziga,
Tushuntirish xati, tilxatga bermang!

Nopok dunyosidan ketmasin to‘yib
Desangiz yuragin g‘ijimlab, o‘yib.
Yillar bo‘yi o‘tmas pichoqda so‘yib
Qadrsizlik degan kalxatga bermang!

Inson aslan buyuk, aslan bechora...

1999-yil 27-aprel

XAYF

Esiz, zilol daryolar,
Biz qonib ichmasak, hayf.
Esiz, moviy ma'volar,
Qush bo'lib uchmasak, hayf.

Irmoq pastlab, qiyalab,
Ketsa baland tog', esiz!
Ko'rmay o'tsa biyalar,
Uchqur arg'umoq esiz!

Ayol — olov, ayol — gul,
Sochlar — arsloniy yollar.
Ishqda yonmay bo'lsa kul,
Hayf-ey, olov ayollar.

Dunyosiga o't ketsin,
Dunyosiga ertak hayf.
Unda ko'ngli ayolsiz
Ketayotgan erkak hayf!

1998-yil 6-oktabr

QAYTIB OLINGAN YER BU

Quyuq o'rmon bo'ldi g'am,
O'rmonlarga xo'sh endi.
Ko'nglimiz kiygan kishan
Armonlarga xo'sh endi.

Qilvir tullaklar bergan,
Chilla chillaklab bergan,
Xalqni kullaklab bergan
Farmonlarga xo'sh endi.

O'q ko'tardik, sanchildik,
Yuk ko'tardik, yanchildik.
Tug' ko'tarar payt keldi,
Ruh, o'rtaga tush endi!

Bu tug' — tug'mas, o'tmish — dod,
Ko'tarmoq uchun ozod
Elim, bolalaringni
Bir-biriga qo'sh endi!

Qaytib olingan yer bu,
Mangu qolingan yer bu.
Shu yerda erk sharobin
Etajakmiz no'sh endi!

1991-yil 29-noyabr

ONAM XUSUSIDA QAYG‘ULARIM

(turkum)

Boshimdan falokat toshi to‘kildi,
Menga ko‘p narsani uqtirdi bu g‘am.
Meni-ku bilmayman, meni ne qildi,
Onamni tamoman cho‘ktirdi bu g‘am.

Bilmam, qay kuch bilan bu g‘amni chekdim,
Qandog‘am chidadim o‘tmas tig‘iga,
Sochim, tish, ko‘rklarim ketdi, ko‘nikdim,
Ko‘nmasman onamning ketmoqligiga.

Oh desam ohlarim, oqqay, eshilgay,
Allohim, sen qodir, men kamni qutqar!
Men deb g‘am o‘qidan ko‘ksi teshilgan
Cho‘kib borayotgan kemamni qutqar!

1997-yil 4-mart

UNI MENGA BER

Men unga qolganda bo‘ldim qizg‘anchiq,
Undan yiroq kunim ko‘ksimda sanchiq.
Men emas, u menga bo‘ldi suyanchiq
Onamni chetroqqa berma, Allohim!

Qayg‘u qir-o‘rini sezib hididan,
G‘am chiqar mo‘rini sezib dudidan,
Uni opqochdim, o‘p, ruh, vujudidan,
Onamni titroqqa berma, Allohim!

Kuniga bi-ir yaray, Uni menga ber.
Yo‘lida ko‘karay, Uni menga ber,
Go‘dakday ko‘taray, Uni menga ber,
Onamni tuproqqa berma, Allohim!

1998-yil 6-fevral

MULGIB-MULGIB UZUN KECHALAR

Dunyoning bor zahr-u zaqqumin
Bitta qo‘ymay totgonim — onam.
Ozg‘in yelka — yonboshlariga
Ko‘rpachalar botgonim onam.

Halimajonim — keladi deb
Ko‘zi yo‘lda ko‘kargan qushim,
Mushtdekkina jussasi bilan
G‘ussa tog‘in ko‘targan qushim.

Oq sochlarin yuvib-tarasam
Sochlariday uzayganim-a.
Turib, yurib ketmoq bo‘lasiz
Charx urgani, bezanganimi?

Bosmay qo‘ygan oyoqlarini
Qattiq yerni qayirib bostir.
Yozmay qo‘ygan qanotlarini,
Qodir Xudo, bir marta yozdir!

Usiz huvullaydi ko‘chalar...
Ko‘zlarimda mangu qolar, jim.
Mulgib-mulgib uzun kechalar
Oyoqlarin uqalashlarim...

1998-yil 2-noyabr

SIZGA ISHONARDIM

Sizga ishonardim bolalarimni,
Dilimdagi nihon nolalarimni,
Ko‘zimdan oqquvchi jolalarimni
Sizga ishonardim,
Endi qaytaman?[1]

Menam onaman-ku, oylarim cho‘ksa,
Bolalar goh kelib g‘amlarin to‘ksa,
Bu g‘amlar qilichday qaddimni buksa,
Kimga to‘kilaman,
Kimga aytaman?

Yo‘q ekan-ku Sizday sir saqlagich tog‘,
Siz o‘zi meni kim qilib ketdingiz?
Yolg‘iz-yolg‘iz qilib, dunyoyi dunda
Sirini to‘kmas xum qilib ketdingiz.
Onam-onam-a?!
Sizga ishonardim bolalarimni...

1999-yil 12-noyabr

[1] Nima qilaman ma’nosida.

ONANG KETMOQDA

Maysa qayta ko‘klar,
Yo‘llar qayta o‘rlar,
Daraxt qayta gullar
Ko‘klam, ko‘k payti.
Birgina odamlar,
Peshonasi sho‘rlar
Ketgancha ketadi,
Kelmaydi qaytib.
Atrofda osoyish,
Sokindir to‘rt yoning,
Sen shoshil, onangning
Oyoqlarin o‘p.
Sochlari oqarib
Jim o‘tirgan onang
Qaytmas yo‘lda ketib
Bormoqda ship-ship.
Seni o‘payotib,
Usting yopayotib
Shirin ta’mlar totib
Onang ketmoqda.
Tunda toshdan qattiq
Boshi yostig‘iga
Bolishiga botib
Onang ketmoqda.
Ogoh bo‘l! Qachonki
Biz undan tolamiz,
U qushday beozor
Uchib ketar jon.
Ucharki, uchganin
Sezmay qolamiz.
Quvib yetolmaymiz
Keyin hech qachon!

1996-yil 20-iyul

MAJBURIYAT

Ona, menga ne bersangiz
Barin o‘tkazdim.
Ajdodlarning bor shamoyil,
Shevalarini.

Menam Sizday tinmay
Sabr daraxti o‘tqazdim,
Toqat bilan terdim
Toqat mevalarini.

Barin berdim, nima berdim
Eslolmayapman...
Taajjubki, hech vaqom yo‘q,
Ship-shiydam, hurmen.
Sizdan meros baland bo‘yni,
Ozg‘in qomatni
Qizimga berishga majburmen.

1996-yil 12-iyul

KUNING KULSIN

Bayram qutlug‘, kuning kulsin, Turkim, Turonim,
Chin sindimu ko‘kragingdan bosgan cho‘yan tosh.
Jallod dunyo, ne ichirding, Sohibqironim,
Besh yuz yillar yerda yotdi ko‘tarolmay bosh.
Keyin turkning erkagini armon tig‘ladi,
Ayollari qayta Temur tug‘may yig‘ladi.

Ne ichirding, Turon taxti yarqiragan ganj,
Bo‘lindi-yu urvoqlarga, qumga aylandi.
Bo‘lindi-yu merosxo‘rlar taqdiri ayanch,
Shahzodalar maydalashdi, shumga aylandi.
Avval daho boshida toj, bobom, deb suydim.
Keyin moli talon-taroj bobom, deb kuydim.

Bir odamda bo‘lar emish rizq-u barakot,
Turkning tug‘i sizning bilan yerga ketdimi?
Ketdingiz-u, bu tuproqqa quyildimi dod,
Turkning shoni Sizning bilan birga ketdimi?
Hatto Sizday sarbaland tug‘ oyoq osti, xor
Men dunyoga nechun ko‘ngil qo‘yay, hukmdor?!

Ketdingiz-u yetim yerga qo‘pdi balolar,
Qavmingizni har o‘tkinchi, irkit it qopdi,
Sizdan so‘ng ham keldi oltin boshli bolalar,
Lek ularni qilich yedi, jodilar chopdi.
Minglab kesik boshlar ketdi yumalab, to‘zg‘in,
So‘ng yuz yillar qon hididan izg‘idi quzg‘un.

Biri Mashrab, Balxda qoldi dorda osilib,
Birin Sibir, qayinzorda bag‘rin teshdi tig‘.
Bu izlar-ku azal-abad ketmas bosilib,
Bugun shodmiz, ko‘tarildi poymol yotgan tug‘.

Tug‘ ostida tirik, o‘lik — qurbon ko‘raman
Har birining ko‘ksida bir Qur’on ko‘raman.

Inshoolloh, ishlarimiz endi kelgay o‘ng,
O‘g‘lonlari yuvar turkning ko‘ngil dog‘ini.
Kim o‘ylabdi, ulug‘ Temur besh yuz yildan so‘ng
Go‘rdan chiqib, bolalarin jamlamog‘ini.
Jahongirga elga qaytmoq — baxt qutlug‘ bo‘lsin,
Avlodlarga qaytgan toj-u taxt qutlug‘ bo‘lsin.

1993-yil 16-avgust

YOLG‘IZ QOLDIRMA...

Ko‘kda yolg‘iz oy yig‘lab ketar,
Yolg‘iz quyosh dil tig‘lab ketar.
Vahimalar urug‘lab ketar,
Bolam, meni yolg‘iz qoldirma.

Mushfiqqina qushim, ma’yusim,
Bor turishi to‘zg‘imas to‘zim.
Hamon Senga farmoyish so‘zim,
Onam, meni yolg‘iz qoldirma.

Jim-jim edim, jayron bo‘ldim men,
Sim-sim edim, sayron bo‘ldim men.
Sening bilan komron bo‘ldim men.
Yorim, meni yolg‘iz qoldirma.

Ravshan kecha, yolg‘iz qoldirma,
Gavjum ko‘cha, yolg‘iz qoldirma.
Odam toq keladi, ketar toq,
O‘shangacha yolg‘iz qoldirma.

1988-yil 8-noyabr

SUV UZATAR TOMIRIM...

(Amir Temur yubileyi kunlarida yozilgan)

Tog‘lar engashib kelar,
Bog‘lar ergashib kelar,
Qushlar kengashib kelar,
Rost bo‘ldimi, bobojon,
Yurtga qaytayotganing!
Bizni ko‘zga ilmaslar
Ilib qaytayotirlar,
Qadrimizni bilmaslar
Bilib qaytayotirlar,
Bizga qovoq uyganlar
Kulib qaytayotirlar,
Bo‘ylarini bizga teng
Qilib qaytayotirlar.
Insonni ham, elni ham
Tog‘lari bo‘lsin ekan.
Har qanday kunda umid
Bog‘lari bo‘lsin ekan.
Sen ketib tog‘siz qolib,
Izg‘irinda izg‘idik.
Yaproqlardek benajot
Poymol bo‘ldik, to‘zg‘idik.
Hay degani haji yo‘q
Bolalaring qirdilar.
Boshi birikmas, og‘zi
Olalaring qirdilar,
Terib-terib qirdilar,
Erib-erib qirdilar,
Seni ketkazib, turkni
Jon-joyiga urdilar.
Shunday urdilar hanuz
O‘ziga kelolmaydi.

Tortilib qolgan tili
So‘ziga kelolmaydi.
Ko‘z yoshi ko‘kragidan
Ko‘ziga kelolmaydi.
Turk tuyog‘i shu taxlit
Botqoqlarga botibdi.
Shunday kunda shoh Amir
Yurtga qaytayotibdi!..
Qaytar turk daraxtimga
Suv uzatar tomirim.
Endi ko‘karajakmiz,
Gullagaymiz, Amirim.

1991-yil 23-mart

TANGRIM, AYTGIN...

Dunyo sirli. Men o‘zimga ayonlarni ko‘raman,
Lol-u hayron turfa-turfa bayonlarni ko‘raman.
Tangrim, aytgin, yana qancha men do‘stman, deb egilib
Ko‘kragimga nishin sanchgan chayonlarni ko‘raman.
Yo‘llarimda kunpayakun bo‘lajakman necha bor,
Necha qayta o‘tib bo‘lmas dovonlarni ko‘raman!
Qur’onga yuztuban tushib, dod ayladim, yuz dod!
Yana qancha o‘qib bo‘lmas devonlarni ko‘raman.
Ko‘ra-ko‘ra ko‘zim kuydi sarg‘aygan chechaklarni,
Yo Rab, yana qancha ro‘yi-somonlarni ko‘raman.
Ongi behisht-jovidonlarga yasharmanmi yovuq,
Yana qancha ongi sahro, yobonlarni ko‘raman.
Obi yovg‘on tinkasini quritgan bu xalqimni
Kosasida tag‘in qancha yovg‘onlarni ko‘raman.
Men uzoqroq yasharmidim, gullab o‘smasa yolg‘on,
Har qadamda otar yoyday yolg‘onlarni ko‘raman.
O‘z yelkamni o‘zim silab, ovutaman bunday deb,
“O‘lmay yursam hali qancha davronlarni ko‘raman”.
Yuragimga razm solsam, zarb tegmagan yeri yo‘q
Hayhot, boz zarb urmoqqa shay gavronlarni ko‘raman.

1990-yil 13-noyabr

HURMAT JOIZ...

....ga

Hurmat joiz, ketayotgan quyosh bu,
Ortiq-kami bitayotgan quyosh bu.
Avji tushda bozillagan, chatnagan,
Endi tunga yitayotgan quyosh bu.

Qoq tepada, o‘, kuydirgan qanchasin,
Unga baxt deb yopishganning panjasin.
Ishg‘ol qilmoqchilarning iskanjasin—
Endi... sovub, tutayotgan quyosh bu.

Hech gap yo‘qday, silliq o‘tganday bari,
Qichqirmagan kabi bosgan gullari.
Ko‘zlariga sanchilmasday kullari...
Dardin ichga yutayotgan quyosh bu.

Balki, balki... kunbotarda kelar ishq,
Vido aytmay shirin-sirli kular ishq.
Go‘dak qilar, suyib tentak qilar ishq,
Intig‘ini kutayotgan quyosh bu.

...Ne bo‘lsa ham qancha qoldi, kim bilar,
Qachon to‘lar, paymonaday xum bilar.
Keyin u gaplarni tuproq, chim bilar,
Xuddi bizday... o‘tayotgan quyosh bu!

1995-yil

AYTMAY QANDOQ YASHAYMAN?!

Men o‘ylasam kesilgan zabonlar tilga kirgay,
Daryolari to‘silgan zamonlar tilga kirgay,
Ne-ne juvonmarg qoshi kamonlar tilga kirgay,
Dilim o‘t olib tursa aytmay qandoq yashayman?!

Ular ham o‘tgunicha topganlarini aytib,
Mendek dilgir-u nolon chopganlarini aytib,
Ne darz-u yoriqlarni yopganlarini aytib,
Tilimga solib tursa aytmay qandoq yashayman?!

Bir yonimda To‘maris desa: “Bolam, holing tang”
Nafaqat dala-tuzing, ko‘ngling ichi sovuq sang.
Biryon bugungilardan ko‘ngli to‘lmay Temurlang
Xayolga tolib tursa aytmay qandoq yashayman?!

Netay, kecha-yu bugun tilmochligini berib,
Ko‘nglingizdagi tugun tilmochligini berib,
To‘qmas, ahvoli nigun tilmochligini berib,
Tinchimni olib tursa aytmay qandoq yashayman?!

Aytganimdan boshimga toshlar kelmoqligiday,
Boshim garovga tikib, foshlar kelmoqligiday,
Boshim ketib, o‘rniga quyoshlar kelmoqligiday,
Bir ishonch g‘olib tursa, aytmay qandoq yashayman?!

1990-yil 8-yanvar

YASSAVIYNING "HIKMAT"INI YO'QOTGAN KUNDAGI HOLATIM

Men — benavo, chah-chahidan ayrilgan,
Yassaviyday hamrohidan ayrilgan,
Bor quvonchi, bor ohidan ayrilgan,
Taqir sahro, qurib qolgan dil bo'ldim.

Dardlarimni terib tortaman simga,
Arosatda jon kelmoqda halqumga,
Yassaviyni kimga oldirdim, kimga,
Avj pardada tildan qolgan til bo'ldim.

Irimchiman, yo'lim bog'laydi irim,
To topmasam, o'z ko'nglimga yo'q kirim.
Uning bilan ketgan fikrat, shuurim,
Dod, ming dodki, boz g'aflatga qul bo'ldim.

U, ko'nglim-a, xordir bugun, xor bo'lgan,
O'z g'aflatim doim sirtmoq, dor bo'lgan,
Yassaviyning bosmog'iga zor bo'lgan
Kunpayakun tuproq bo'ldim, gil bo'ldim.

Men — benavo, chah-chahidan ayrilgan...

1991-yil, 4-aprel

E'TIROF

Noshud farzand bo'ldim, unutgan,
Yo'q yerlardan topib yurgan g'am,
Axir ona, Siz bilan o'tgan
Har bir kunim emasmi bayram.

Noshud ona bo'ldim, men she'rga
Bandi bo'ldim, tanho, yovvoyi.
Axir, bolam Sen bilan birga
O'tgan har kun baxt-ku, g'aroyib.

Noshud ayol bo'ldim men Sizga
Bir munglug' chehraga o'xshadim.
Bosh panohim, panohingizda
Eng shoh kunlarimni yashadim.

1990-yil, 5-may

ULGI

To‘marisning taroqlari yo‘qolgan,
Uchqur oti, yaroqlari yo‘qolgan,
Yo‘l ko‘rsatar chiroqlari yo‘qolgan,
Qorong‘ida paypaslab yo‘l izlaymiz.

Bir ulgusin Nodirami olgandi,
Ul ham tushmish, jaholatga bir bandi.
Ho‘qandi latifning armon farzandi...
Qorong‘ida paypaslab yo‘l izlaymiz.

Bir ulgusin bosdi enam Kenagas,
Dashtlarda hur o‘sdi enam Kenagas,
Kun kelib... qon qusdi enam Kenagas,
Qorong‘ida paypaslab yo‘l izlaymiz.

Sobira[1]ga biri tekkani choqda
Bir qiz edi, el suyangulik — tog‘day.
Qamadilar. Aqldan ozdi qamoqda,
Qorong‘ida paypaslab yo‘l izlaymiz.

Qadim Turon dashtlari nimqorong‘i,
Qay burchida pinhon To‘maris dong‘i.
Ammo ulgusi tekkan bor, inongin!
Qorong‘ida paypaslab yo‘l izlaymiz.

U sen bo‘lsang, Tangrim, o‘tkir ko‘z bergin,
U men bo‘lsam, o‘zligim ber, o‘z bergin.
So‘z ber, oson o‘lmaslikka so‘z bergin,
Qorong‘ida paypaslab yo‘l izlaymiz.

1988-yil, 8-mart

[1] Qatag‘on yillarida qamalgan jurnalist, muharrir Sobira Xoldorova ko‘zda tutilyapti.

OTLAR BO‘LSA EGARLANGAN

Shunday, yana yo‘ldadirmiz,
Otlarimiz egarlangan.
Yurakmi, yurakdan aytma,
Yuragimiz chegalangan.
Otlarimiz egarlangan.

Shu darz ketgan yurak bilan
Hayot darzin chegalaymiz.
Inshoolloh, gurkiragan
Sog‘ dillarni egallaymiz.
Hayot darzin chegalaymiz.

Ajabo, bu to‘qlik qaydan,
Nega, garchand mahzun paymiz.
Nega Temur qaytgandayin
Turon yurtga egadaymiz.
Ajabo, bu to‘qlik qaydan?

Nega hamon achishar tiz,
Zirqiraydi yodlarimiz,
Muhimi shu, To‘marismiz,
Egarlangan otlarimiz.
Nega hamon achishar tiz?

Ayru tushmasmiz hech qachon,
Garchand yurak chegalangan.
Yurakdagi dod bo‘lsa erk.
Otlar bo‘lsa egarlangan
Egarlangan ot bo‘lsa erk.

Ayru tushmasmiz hech qachon!

1996-yil 4-iyul

BIBI FOTIMA DUOSI

Allohimdan tilaganim,
Mayli, baxt yo alam bersin,
Bir zirx fikr bersin menga,
Bitta soqchi qalam bersin.

Bu zirhni men jonim iyib
Vatanimga kiydirayin,
O‘q o‘tmas, tik andomini
Jahon aro suydirayin.

Kiydirayin omon chiqqin
Tegirmonning do‘lidan deb.
Bu zirh menmas, Ulug‘ Bibi
Fotimamning qo‘lidan deb.

Ko‘p ko‘rdik deb zavollarni,
Kuyinmang, ey joni qillar,
Ali qo‘llar halollarni,
Muhammadning o‘zi qo‘llar!

Bir zirh, tag‘in, bir qalam ber,
Soqchi qalamki, kuch kelgay.
Kelmas, yov kelsa avval she’r,
Avval qalamga duch kelgay!

Olmasa el g‘ovlarini
Shoir zoti oqmay tinsin.
Zarbi elning yovlarini
Sindirmasa, qalam sinsin.

Vatan,
Endi zavoling yo‘q.

Garchand o‘tda ko‘p kuyding Sen.
To‘zmassan, Bibi Fotmamning
Duosidan zirh kiyding Sen.

Vatan,
Otam, bolam, sha’nim —
Turkiy nasim, muborak!
Duo bilan zirhlanganim,
O‘q o‘tmasim, muborak!

1998-yil 9-avgust

YERING BU!

Yer aytarmish: “Ko‘zing yerga olma”, — deb,
“Tag‘in yerga bepisand ko‘z solma”, — deb.
“Turib tur”, — deb, Yurib tur, deb, o‘lma,
Tovoningni o‘padigan yering bu!

Maydon bu. Ko‘pkari tortar otingni,
Munkib ketsang Xudoga ayt dodingni.
Xavf-xatarga qo‘yib tinch hayotingni,
Ne uloqlar chopadigan yering bu!

Do‘sti aziz, shodumon bo‘l, bo‘lma xor,
Dorboz bo‘lgin, yer ham asli sim-u dor,
Xudo olsa yo‘qotgaysan zor-u zor,
Xudo bersa topadigan yering bu!

Aslida shu yerdan boshqa nima naqd,
Omonat-ku qolgan barcha toj-u taxt,
Tik chog‘laring berib darmon, berib shaxd,
Yiqilganda yopadigan yering bu!

1997-yil 9-avgust

“NAZOKATNING DOSTONI”DAN

Siz kelmadingiz, begim,
Yodim yoshni kuydirdi.
Ketdim qaddimni egib,
Dodim toshni kuydirdi.

Ketdim dalli-devona,
Do‘st tutinib gumona.
Ermaktalab tumonat
Yolg‘iz boshni kuydirdi.

Berganingiz jafoni
Jonga olganim oni
Hijronning do‘l, to‘foni
Bor quyoshni kuydirdi.

Ko‘klam selin so‘rog‘i,
Olcha gulin so‘rog‘i,
Irmoq tilin so‘rog‘i,
Menga xazon kiydirdi.

Xazon kiyib ketdim man,
To‘zon kiyib ketdim man,
Bu dunyoga shunchalar
Arzon kelib-ketdim man.

Siz kelmadingiz, begim...

1990-yil 5-may

QARAMLIK

Yulduzlar oyga qaram,
O‘q asli yoyga qaram.
Qarqarali humoy ham
Boshqa humoyga qaram.

Osmon qushlarnikidir,
Oqshom tushlarnikidir.
Tengsiz duch kelmasin, teng
Teng-u to‘shlarnikidir.

Qon tomsa-da yaramdan,
Sizga qalqon, karamman.
Sizni-ku bilolmadim,
Yor, men sizga qaramman.

1996-yil 20-avgust

KO‘NGLIMDAGI ARSLON

Yuragimga ona arslon qo‘ygan in,
Parvardigor, ruhim o‘zing ko‘targin.

Dargohingda topshirguncha men jonni,
O‘ldirmagil ko‘ksimdagi arslonni.

O‘rmalabmi kelayotir sokin xob,
Alloh, uni qaytarmoqning yo‘lin top.

O‘rmalabmi kelayotgan tulki, qush,
Balki, menga rahmi kelar “boyaqish”.

O‘rmalabmi kelayotgan olchoqlar,
Bir kun qaddin ko‘tarmoqqa dil bog‘lar.

O‘rmalabmi ig‘vo, hasad ko‘rinar,
Ko‘zlarimni ko‘zlagan dard ko‘rinar.

Inimga yo‘l izlashar-u, qilib qasd,
Xunimga yo‘l izlashganin payqashmas.

Bular shunday shaxdimga qil tekkizar,
Ko‘nglimdagi arslonga til tekkizar.

Yo‘-o‘q!
Men taslim bo‘lmay turib, so‘rmalab,
Qonimizni ichadigan mast yo‘qdir.

Ona arslon o‘lmay turib, o‘rmalab
Bu o‘rmonga kiradigan kas yo‘qdur.

Yuragimga ona arslon qo‘ygan in...

1994-yil 23-fevral

BU ULUG‘ KARVONNI KIMLAR TALADI?

Bu ulug‘ karvonni kimlar taladi,
Yo‘l ustinda o‘g‘ri, shumlar taladi.
Sahro aro chuldiragan buloqni
Chor tarafdan siqib qumlar taladi.

Tuya qilib, yuklarini ortqilab,
Qo‘ymadilar kulaguncha tortqilab,
Bir kaft yashil maysazorni turtkilab,
Taqir tepa, gung uyumlar taladi.

Shilib olib terisi-yu to‘nini,
Yulduzlarin yulib olib tunini,
Chertsang jarang berar toza chinnini
Sopol idish, loy buyumlar taladi.

Biz kuzatdik yaqinrog‘iga borib,
Bir yomg‘irlar, qaro balchiqqa qorib,
Bir xarsanglar tushdi boshlarin yorib,
Oyoqlarin chirmab chimlar taladi.

Yashayapmiz, shunday sipo, sur bo‘lib,
Dil sal notinch, ko‘zlar tinch-u ko‘r bo‘lib
Do‘stlar hayron, takrorlaymiz jo‘r bo‘lib:
“Bu ulug‘ karvonni kimlar taladi?”

1991-yil 13-sentabr

TIRIK QO‘NG‘IROQLAR

Havo istab tashga chiqmish bor jonzot,
Bor havo-yu bor navo Navro‘zdadur.

Hayron bo‘lma, jannat isi qaydan deb,
Jannat isi onang kiygan bo‘zdadir.

Tuzuk izlab to‘rt tarafga uloqma,
Asl tuzuk bobong tuzgan tuzdadir.

Ketgan otang, onang qaytib kelibdi,
Sinchkov qara, ular o‘g‘il-qizdadir.

Fasli navro‘z har dil qayta ko‘klasin,
Har dil aytsin: “Manim ko‘nglim SIZdadir”.

Umr nima — yonib bitar alanga,
Manim umrim — yonib borar SO‘Zdadir.

Komil do‘st, bahoying baland, adl bo‘l,
Ne istasang o‘zingdadir, o‘zdadir.

Bizni himoya etganlar — o‘tdilar,
Bugun himoya etmoqlik — BIZdadir.

Biz o‘lmasdan Dunyo o‘lmaydi, demak,
Tirik qo‘ng‘iroqlar o‘zimizdadir.

Havo istab tashga chiqmish bor jonzot...

1996-yil 12-mart

O‘Q TEGDI

O‘q tegdi, oh, ko‘nglima bir o‘q tegdi,
Chatnab turgan, bozillagan cho‘g‘ tegdi.
Bilmay qoldim, yer tegdimi, ko‘k tegdi,
Muhabbatmi, nafratmi yo kek tegdi,
O‘q tegdi, oh, ko‘nglima bir o‘q tegdi!

Garchand chekar damlar sorig‘ kiyindim,
Ular ildiz, ko‘kartirgan kuyimdir.
Bir azobim aytsam bo‘lding kuyindi,
Menga shunday mingta azob, tig‘ tegdi,
O‘q tegdi, oh,
ko‘nglima bir o‘q tegdi!

Azob poklab, boy etarkan ko‘ngilni,
Dog‘lar solib oy etarkan ko‘ngilni,
O‘qi o‘zg‘ir yoy etarkan ko‘ngilni,
Shunday tik, bexato urar o‘q tegdi.
Qonlarimda mangu yurar o‘q tegdi.

O‘q tegdi-yu, sayron sayrab boshladim,
Zabonimni toshga qayrab boshladim,
Ko‘nglim ichra yig‘lab bayram boshladim,
Bandadanmi,
Xudodanmi tug‘ tegdi,
O‘q tegdi, oh, ko‘nglima bir o‘q tegdi.

Maydonlarda yutgunimcha qo‘llovchi
Tojlar kiyib o‘tgunimcha qo‘llovchi,
Qaro yerga ketgunimcha qo‘llovchi,
O‘q tegdi, oh, ko‘nglima bir o‘q tegdi,
Yashagayman endi ko‘ngil to‘q, tegdi!

Tegdi... shukur, bular bari Xudodan,
Yuksaklardan yuksak, nari Xudodan,
Mening to‘zmas bol-u parim Xudodan,
Sado keldi “O‘ziga tiz cho‘k, tegdi!”
O‘q tegdi, oh, ko‘nglima bir o‘q tegdi.

1995-yil 18-noyabr

MOHLAROYIM, CHIN OYIM, AYTING...

Mohlaroyim, chin oyim, ayting,
Hamon dardimiz chekasizmi?
Bizlar g‘amdan to‘kilgan payti
Go‘ringizda siz cho‘kasizmi?

Nomard yursa qad kerib, suygun,
Mard tuproqqa bersa to‘shini,
Tun sizdanam qocharmi uyqu,
Yig‘laysizmi bizga qo‘shilib?

Qo‘zg‘olonni, fitna, to‘s-to‘sni
Quyib ichga yutasizmi Siz?
Qo‘zg‘olarmi qabringiz Sizni,
Turib, yurib ketasizmi Siz?!

Mendan so‘rmang, menam sizday xor,
Ko‘ksim ummon, ko‘zimda nam yo‘q.
Hamma tirik, hammada til bor,
Ammo holing so‘rar odam yo‘q.

1990-yil 27-noyabr

TUG‘LARIMNI OLOLMAYDI YOV

Seva-seva baland tug‘larni,
Har tun daftarimga kirarkan,
Yashirarkan, unga tig‘larni,
Xanjarlarni joylashtirarkan,

Seva-seva bayroqlarimni
Tunga tuyg‘umni zich ekaman.
Ekmaydurman unga zarimni,
Unga qahr-u qilich ekaman.

Erksizlik jon-jonimdan o‘tdi,
Endi she’rim, yerim, go‘rim — g‘ov.
Zich ekaman... borolmas o‘tib,
Tug‘larimni ololmaydi yov!

1998-yil 11-aprel

BIR KUN SENI KO‘TARADI

To‘g‘ri, bori dardlarini aytavermas nay,
Ko‘ksidagi dog‘larini qush, oh, yashirgay!
Yaradan qon to‘kilganday mening ko‘nglimdan
She’rlarim to‘kilib tursa, qandoq yashiray?!

Garchand gulmas, birovlarga tutqazib bo‘lmas,
Ular mixlanib to‘kilgan, o‘tkazib bo‘lmas,
Turaverar issiqligi, yangiligicha,
Yuvgan bilan bu qonlarni ketkazib bo‘lmas.

Ey xalq!
Bizning dardlarimiz yuqumli g‘oyat,
Yuksalasan bizning shavkat-shonlardan bir kun.
Bir kun Seni ko‘taradi bu g‘amli oyat,
Uyg‘onasan yangi, issiq qonlardan bir kun!

1996-yil 6-iyul

ALLOH KECHIKTIRSIN...

Bu — kunbotar, qizg‘ish, alvon ko‘ringan,
Botishi oldidan quyosh qizarar.
Keldik. Qaytajakmiz dunyoyi dundan —
Ketishi oldidan odam tozarar —
Alloh kalom bersin aytar vaqtingiz,
O‘zi kechiktirsin qaytar vaqtingiz.

Hali Sizga ne sir shivirlaydi shom,
Burgutday xezlanar shiddat, kuchingiz,
Jimirlab turibdi qo‘lingizda jom,
Iloho, so‘ngiga qadar ichingiz!
Alloh bulbul qilsin sayrar vaqtingiz,
O‘zi kechiktirsin qaytar vaqtingiz!

To‘lishib borasiz to‘lin oylarday,
Taqdir yoqangizga zar gul bitadi,
Yelib borayotgan suqsur toylarday,
Kunlaringiz gurros solib o‘tadi.
Iloho, cho‘zilsin oy, zar vaqtingiz,
O‘zi kechiktirsin qaytar vaqtingiz!

So‘ng oningiz qadar yashangiz gullab,
So‘ng... el aytib yursin aytganingizni.
Kun kelsa... bolangiz ko‘rsin-u, illo,
Otangiz ko‘rmasin qaytganingizni!
Mo‘ralab tursa-da talx, tar vaqtingiz,
Alloh kechiktirsin qaytar vaqtingiz!

1996-yil 6-iyul

MENAM O‘TDAN O‘TGANMAN

Tumanli tundan keldim. Endi tongga ketaman,
Uzlatda uzoq kechdim. Endi shonga ketaman.
Barorim bir joydadir. Borarim bir joydadir,
Turkistondan kelganman, Turkistonga ketaman.

Nima farq bor, dunyoda mangumanmi, oniyman,
Qalandarlik xirqasin kiydim, boshqasin kiymam!
Muhimi, kuyib bo‘ldim, endi qaytadan kuymam,
Menam o‘tdan o‘tganman. Menam Turkistoniyman.

Umr nima, bir lahza, o‘qday mehmon kamonga,
Bugun maysaday qosh-u kiprik bo‘lsam, ehtimol.
Erta kim bilar... balki, zamonlardan zamonga
Turk bolalar o‘tguchi ko‘prik bo‘lsam, ehtimol!

Tumanli tundan keldim. Endi tongga ketaman!

1997-yil 3-aprel

UYG‘ON SO‘ZIN AYTGACH...

Chirimoqda Sibirda ulug‘ turk shoirlari.
Mehmed Emin Yurdaqul,
1939-yil

Tarix dashtlarini goho quyuq qor yopgan,
Bo‘lsa hamki ayon bo‘lgan kimlar ne chekdi?
Besh qilichday teragini bir bolta chopgan,
Mening mahzun onaginam, holing nechukdir?

Sirlar sandig‘i ochilar, kimlar ne degan,
Kimni sotib o‘zi yayrab o‘sgan qaysi jon?
Beshta yovqur bolasini bir qashqir yegan,
Mening ma’yus onaginam, bormisan omon?

Balki, hamon tugamagan boshlangan doston,
Tanlariga tuproq emas, sog‘inchlar botar.
Hamon Sibir sovug‘iga ko‘nikolmasdan
Ular bir-birin quchoqlab, isinib yotar.

Ular Abdulla Qodiriy, Fayzullolarim,
Akmal Ikrom, Usmon Nosir, tik Cho‘lponim-ey.
Ko‘mir qazib, ko‘mir bo‘lgan chin tillolarim,
Ular beshmas, besh yuz, besh ming uvol jonim-ey.

Avaxtalar, shaxtalardan ular berar un,
O‘ylamangki, kukun bo‘lgan, kul bo‘lgan tinchib.
Yer ustida erk tug‘ini biz ko‘targan kun,
Ular go‘rda bir-biridan olgan suyunchi.

Cho‘lpon birdan Cho‘lponligin tuyib chopgandir —
Sochdan to tirnog‘i qadar kuyib chopgandir.
Qamoq, zax yerto‘lalarda yag‘iri chiqqan,
Kir, beqasam choponini kiyib chopgandir.

INONISH

Shoirlari hayqirmagan millat qondoshlari
tuproq bo'lgan o'ksik bola kabidir.
Mehmed Emin Yurdaqul

Endi hayqir,
Endi hayqir, un zo'ridan
Daryolaring toshib kelsin.
Mayyitlar chiqib go'ridan
Ozod, quchoqlashib kelsin.

Endi hayqir, azon olsin
Turkiy dunyo qamrovini.
Egik, bag'ri so'zon olsin
Yerdan uzib o'mrovini.

Hayqir, o'zbek o'zdek o'lsin,
Yotlik unut. Cho'kmaylik tiz.
G'olib, narrasherlik kelsin,
Motlik ketsin, qoldirmay iz.

Hayqir, hayqirig'ing o'zgay,
Bu na'ra shirin, bol, axir!
Payg'ambarni ham emizgan
Mushfiq, munis ayol, axir!

Hayqir, olding erkni, taxtni,
Kelar baxt-u baror yana.
Musulmonga Muhammadni
Bergan Alloh berar yana!

Endi hayqir, un zo'ridan
Daryolaring toshib kelsin...

1998-yil 6-iyul

DARAXT FARYODIDAN BEXABAR...

Daraxt bardoshidan qilsa bo'lar toj,
Qo'rg'oshin o'ylarga cho'mib kelgan payt.
Qishning eshigiga o'zi yalang'och,
Barglar, bolalarin ko'mib kelgan payt.

Bormi bu dunyoni ko'rolguvchi ko'z
Kuzatib qushlarning galalarini,
Sariq hasrat bo'lib yoyilarkan kuz,
Daraxt yo'qlaganda bolalarini!

Vo darig'!
Bu daraxt qandog' o'lmaydi,
Unsiz o'kirig'i yer-u ko'k buzar.
Daraxt ko'z yoshini ko'z-ko'z qilmaydi,
Daraxt o'z yoshini ichga oqizar...

Ayol!
Allohga ayt arz-u nolangni,
Mayli, beshon va yo besamar o'tgin.
Faqat
Kuz olmasin biror bolangni,
Daraxt faryodidan bexabar o'tgin!

1996-yil 2-iyul

PAHLAVONNING HAR AYTGANI

"Daryo it tegsa ham halol", —Mahmud yozadi,
Pahlavonning har aytgani ganjdir, tozadir.
Lek vodarig', gohi-gohi bu charxi dunda
Daryo — it tekkach, oqmaydi, o'zin osadi.
Tizimdan darmonim ketib, o'tiraman lol,
Itlar goho g'ingshir, goho qilib turar daf.
Men ne deyin, goh arslonni qilgan-u poymol,
Itlarin qantarolmagan dunyoga qarab.

1996-yil 2-iyul

O'STIR, XUDO DEGAN SHU MAMLAKATNI!

Silkingin,
O'zingda bir na'ra uyg'ot.
Silkinsin har tomir, har zarra, uyg'ot!
O'zingni har kuni besh karra uyg'ot,
Jism-u jonni uyg'ot,
Uyg'ot niyatni!

Birman deb chekinma, Alloh ming qilgay,
Tor najot yo'lidan qo'rqma, keng qilgay,
Yersan, u ko'targay, ko'kka teng qilgay,
Tik tizlarga o'zi bergay quvvatni!

Moziydan tilsim sharh, xomalar kelar,
To'fonda adashgan kemalar kelar,
Ezilgan, to'zg'igan nomalar kelar,
O'zing tiklagaysan bu sirli xatni.

Jazm et, sarbadorlik kulohini kiy,
Bilmaysan, qoningda qancha sir, vahiy,
Qoningda qichqirar qanchalab dohiy,
Uyg'otmoqlik uchun odamiyatni!

Sen ey, mizg'ib, mudrab borayotgan do'st,
U qonlar jismingni qilgaylar to's-to's,
Har lahzada uyg'on!
Har lahzada o's!
O'stir, Xudo degan shu mamlakatni!

1997-yil 2-aprel

FAQAT... BOBUR YIG‘LAGAN

Boshimga urayinmi o‘tar dunyo shonini,
O‘, kuygan o‘tlarimda qaytadan kuyayinmi?
Guldan baddoqlar taqqan jononlarning jonini
Bir siqim tuproq qilgan dunyoni suyayinmi?

Mening karvonim horg‘in, kunbotarga og‘moqda,
Elas-elas kelmoqda qo‘ng‘iroqlar jarangi.
Garchand boshim ustida oy nurlari yog‘moqda,
Holim shu qadar zabun, holim shu qadar tangki...

Yo‘q, ezg‘in ko‘nglimdayin yorishib borar osmon,
Yorug‘ osmon ostida, bolajonlar, ungaysiz!
Faqat... Bobur yig‘lagan... “Bu jahonga sig‘masmen”,
Shundan u yo‘q jahonga sig‘ish goho o‘ng‘aysiz.

Boshimga urayinmi o‘tar dunyo shonini...

1996-yil 13-sentabr

MOZORLARING BOR

Quvon-u, ko‘klarga ketmassan uchib,
Yerga tortib turar bir torlaring bor!
Fano zardoblarin so‘ng kunlar ichib,
To‘shak tortib yotgan bemorlaring bor.

Quvon-u, ko‘kkamas, yerga qarab oq,
Axir, yitsa ko‘kmas, yerga yitar tog‘.
Bir vaqt chechak sotgan, gul sotgan, biroq
Bir vaqt vijdon sotgan bozorlaring bor.

Qaytgaysan. O‘zingni ko‘kka otib ham,
Ezg‘in xayollarga boshing botib, xam,
Chunki... yerda, sim-sim yig‘lab yotib ham,
Seni qo‘llayotgan mozorlaring bor.

1997-yil 3-mart

UNUTMAYDI

Unutmas meni bog‘im.
Usmon Nosir

Hamma unutganida ham
Yerlar, ko‘klar unutmaydi.
Ochganimiz ko‘zlardagi
Qorachug‘lar unutmaydi.

Siylasa-da she’r, shon-u shaxd,
Goh keldi baxt,
Goh ketdi baxt.
Tik tashlandik. Mo‘ljalga naqd
Tekkan o‘qlar unutmaydi,

Ko‘pni ko‘rdik kuyunganni,
Sadaqadan suyunganni,
“Oh, Alloh!” deb to‘yinganni
Ko‘ngli to‘qlar unutmaydi.

Garchand edik joni qillar,
Janggohlarda bo‘ldik fillar,
Erk yo‘lida qolgan kullar,
Qolgan cho‘g‘lar unutmaydi!

To‘fonlarida isinib,
Bol deb ichdik qor, muzini,
O‘pdik. Labimiz izini
Turkiy tug‘lar unutmaydi!

1997-yil 17-mart

TURKISTON KELDI

Yuz-yuz yillar o‘taverdi, bosaverdi qor,
Erk degani shunday uzoq, benishon keldi.
Sirtmog‘ida tillaboshlar, salangladi dor,
Ajdodlarning ko‘kragidan laxta qon keldi.

Erkka ko‘zini tika-tika ko‘zi yer o‘ydi,
Qoni bilan yozdi, darig‘, so‘zi yer o‘ydi,
Gado bo‘ldi, ado bo‘ldi, o‘zi yer o‘ydi,
Oh, ne jonlar erk yo‘lida qurbon jon keldi.

Ular hanuz go‘rlarida turar ekan tik,
Bu qon bizga o‘tgan, axir, shundan biz qasdlik,
Bu qarz bilan, bu qon bilan o‘la olmasdik,
Shukur, ko‘rdik, biz ketmasdan Turkiston keldi!

1997-yil 19-mart

DIL HAM BOSH TORTAR EKAN

Telba xohish, majnun hol,
Bahor labga nay qo‘ydi,
Men yig‘layman, majnuntol —
Ko‘nglim gapirmay qo‘ydi.

Tushavergin ko‘kdan oy,
Bahor ko‘tardi tug‘in.
Men qanday bayroqlanay,
Ko‘nglimga tushdi tugun?!

Men derdim dil cho‘kmagay,
Dunyo xoh keng, tor ekan.
Dil ham yerdan chiqmagan —
Dil ham bosh tortar ekan...

1997-yil 19-mart

MEN BIRGINA SO‘Z O‘STIRDIM

Bilmam, qachon, qanday chuqur ko‘llarda cho‘kdim,
Qanday uzun, qanday hazin dardlarni chekdim,
Bilganim shu, umrim bo‘yi men ekdim, ekdim —
Turkistonning dashtlarini yorib chiqar so‘z!

Balki, u so‘z unayotir yerning qa’rida,
Balki... qasamday tik terak kurtaklarida,
Ulug‘ Temur bolalarin ko‘kraklarida
Ota Turkning yukini ko‘tarib chiqar so‘z!

Yov kelmasin, kelsa agar juft-u toq bo‘lib,
So‘zlar yerdan chiqib kelgay to‘sin tog‘ bo‘lib,
Elimning jon-jigariga ko‘zmunchoq bo‘lib,
Digariga chalg‘i bo‘lib, o‘rib chiqar so‘z!

Hurlik yo‘li — kurash yo‘li, tik rohlariga
Chiqar ekan gard tegmasin elning bariga.
Kurash kuyin quyib elning quloqlariga,
Tun bo‘yi oyoq uchida yurib chiqar so‘z!

Oqqan bo‘lsam hamki uning poyida tinmay,
Elga nafim kam mening, deb nechun o‘ksinmay,
Men birgina so‘z o‘stirdim,
Mangu ko‘z yummay
Turkiy elni balolardan qo‘rib chiqar so‘z!

1997-yil 28-mart

KECHIKKANLAR

Chinqirig‘i yer-u ko‘kni to‘ldirib,
Hovliqqan poyezdlar vaqtdan kechikkan.
Odamzod borini qo‘ygach oldirib,
Kechikib oyoqqa qalqqan, kuch yig‘gan.

Moziy eshiklari bir-bir yopildi,
Bir shu’la ko‘rinmas tim, g‘ovlaridan —
Cho‘lponday tik, ulkan daraxt chopildi,
Kechikkan do‘stlarin qurshovlarida.

Mohlaroyim yanglig‘ oy bormidi hech,
Dunyo shunday hur, g‘ilmonlarni ko‘rdi.
Ko‘rmadi boshiga tusharkan qilich,
Olomon kechikdi. Qonlarni ko‘rdi.

Ko‘rdi-yu ko‘rmagandek o‘zlarini
Tutib o‘tdi ular. Oh, to‘zmadilar!
O‘yib olmadilar o‘z ko‘zlarini
O‘z qonlarin shar-shar oqizmadilar!

Alloh!
Gumroh ruhimizga panja urgaysan —
O‘zing eshitgaysan bu asriy dodni.
Qonlarini o‘zing yurishtirgaysan —
Kechikkanlar sutin emgan avlodni!

1997-yil 7-aprel

YUKSALISHGA MAHKUMLIK

Mas’ulmiz yo,
Yo majburmiz depmas,
Mahkummiz deb bu holga yondosh.
Endi yerda sudralmoq epmas,
Endi yerdan ko‘tarildi bosh!

Boz egilsa,
Bosh uchar toshday.
Boz egilsa, biz o‘zi kimmiz?
Ayrilmaslik uchun ham boshdan
Endi yuksalmoqqa mahkummiz!

Ey chirmashgan!
Qudratlan, kuch top,
Yuksak daraxt — chaqir tikan, ho‘l.
Mahkumlik bu — muqarrar azob,
Ozodlikka olib chiqar yo‘l!

1998-yil 29-sentabr

YUBORMAYMAN...

Maysalandim, oyog‘ingni bos,
Lahzani yillayman, ushlayman.
Yoyilaman bo‘lib poyandoz
Seni sevib, seni xushlayman.

Yorishib boradir osmonim
Lahzalarni tishda tishlayman.
Oyog‘ingda poyandozman-u,
Nechun uchayotgan qushdayman.

Garchandki, yo‘l o‘lim, jar tomon
O‘zni qo‘ysam-da xatarlarga,
Hali seni
Ko‘-o‘-o‘p to‘xtataman,
Yubormayman
Seni jarlarga!

1998-yil 29-sentabr

KECHAGI SHAMOL

...ga

Bu — kechagi shamol,
Hali tinmadi
Bugungi shamollar atrofida lol,
O‘, uning dastidan
Kim o‘ksinmadi,
Kimni kuydirmadi
bu arsloniy yol.

Tirqirab kelarkan
Tegsa bariga
Yo‘lidan adashib qumlar qayrilar,
Tegib tegmay
O‘tsa yaproqlariga,
Jonona daraxtlar hushdan ayrilar.

U bir qaraganda ko‘ngil to‘yadi,
To‘ydirar
Dilning qir, qiyalarini.
U bir kishnab,
Jinni qilib qo‘yadi
Dunyoning jamiki biyalarini!

Aylanib
Bir kelib qolsami ko‘lga,
Borliq-da, baliq-da jonin beradi.
Bir aylansa...
O‘zin ololmay qo‘lga
Tik tog‘lar ergashib ketaveradi!

Bu — kechagi shamol...
Bugun ham bormi

Shunday bir shamollar, orzu qilarga.
Balki, bordir,
Balki, Biz sezmaganmiz,
Bu endi ayondir bugungilarga.

1998-yil 6-noyabr

MENGA DUCH KELIB QOLSA...

Menga duch kelib qolsa,
Yo‘lbars chiqar inidan.
Shaxd, suroni yo‘qolib
Sirlaridan aytadi.

Menga
Duch kelib qolsa,
Pichoq chiqar qinidan,
Pichoq hovridan tushar.
Pichoq dami qaytadi.

Duch keldi...
Kuydi oyim...
Oyday yuzin burmadi.
(Seni saqlash uchunmi)
Menga qodir Xudoyim
Seni yo‘liqtirmadi...

1998-yil 29-sentabr

O‘ZIN TOPMOQ ISTAGAN

Musulmonmiz —
Har inson
Inson tarafga yursin.
Biri biriga peshvoz
Imkon tarafga yursin.
Arosat sahrosida
Sarosar qolmasinlar
Yo tanazzul, yo esa
Shavq, shon tarafga yursin!

Dunyoning halol yoqqa
Bir qadam jilmog‘iga
Inonsang, yuz qurbon ber,
Yuz malham ber, dog‘iga
Inonsa, bir hamlada
Qayta tirilmog‘iga
Sira ikkilanmasdan
Qurbon tarafga yursin!

Taloto‘p dunyo ichra
To‘zim topmoq istagan,
Ming yolg‘onni oralab
Bir chin topmoq istagan,
Tomirlarida yurgan
So‘zin topmoq istagan,
O‘zin topmoq istagan
Qur’on tarafga yursin!

Musulmonmiz —
Har inson
Inson tarafga yursin.

1998-yil 7-noyabr

XULOSA

Bolam, Seni men emas,
Ona arslon emizdi,
Ona arslon ko‘tardi.
Seni emizayotib
Miyamning ich-ichidan
Shunday xayol o‘tardi.
Arslon ko‘targan bola,
Illo, tulki bo‘lmay sen,
Ayanch kulgi bo‘lmay sen,
Bir kun arslon bo‘lasan.
Qush-u qurtlarni eshit,
Burd-beburdlarni eshit.
Atrofingga yo‘lasa...
Qanot bergin, bergin par,
Hech kim tushmasin cho‘kka.
Hatto sudralgan qurtlar
Ko‘tarilsinlar ko‘kka!
So‘ng bir xulosa chiqar:
Qurtlar uchsa — uchsin-u,
Yo‘ton tortib qolmasin.
Qurtlar o‘zini Senga
Tenglab, yo‘rtib qolmasin.
Shunday xulosa qil Sen
Aylanib kelganda gap.
Qurt qurtligicha qolsin
Arslonga qilmasin daf.

Arslon ko‘targan bola...

1998-yil 2-noyabr

ESKI DO‘STLARIMGA

Eski yil ham o‘tdi, tikondir, guldir,
Yangi yil quchog‘in ishq bilan to‘ldir.
Garchand har yilning baxt, qayg‘usi mo‘ldir,
Alarga qayg‘usin uchratma, Xudo!

Yangi yil yangimi qadrdonlarsiz,
Eski do‘stlarim-ey cho‘kay Sizga tiz.
Yo‘llariga hazrat Ali solgan iz
Xirqalariga loy sachratma, Xudo!

Qodirsan, ro‘yoni rostga aylantir,
Mos kelmas dunyoni mosga aylantir.
Ashaddiy yovin ham do‘stga aylantir,
Alarning ko‘ngliga Sen botma, Xudo!

Shavq ber-u, g‘am berma, o‘kinmasinlar,
Qilichday qadlari bukilmasinlar.
Bog‘larday yetilgan, to‘kilmasinlar,
Alarning bog‘iga tosh otma, Xudo!

Madad ber, sal horg‘in uchmoqlarida,
Yoy turma, toydirma kechmoqlarida.
Yangi yilning yangi quchoqlarida
Eski do‘stlarimdan ajratma, Xudo!

To o‘lim kelguncha yursinlar gur-gur
Qadamidan shamol o‘tib tursin hur.
Yolg‘iz ketar kunni orqaroqqa sur,
Alarni tariqday tarqatma, Xudo!

1998-yil 19-dekabr

SULTON, QAHRINGNI BER!

Bu fojialardan ortiq ta’sirlangan sultonning onasi, ahli ayoli unga yukindi: “Allohni o‘rtaga qo‘yib iltijo qilamiz, Bizni o‘zing o‘ldirib asirlikdan qutqar!” U noiloj barchasini suvga cho‘ktirishni amr etdi.

Shahobildin Muhammad an-Nasaviy,
“Sulton Jalolildin Manguberdi hayoti” kitobidan

Sulton, qahringni ber,
Qahrlanaylik,
So‘kilsin osoyish ko‘ngilning choki.
Sulton, zahringni ber, zaharlanaylik,
Bemormiz, bu zahar sog‘aytsin toki.

Yoronlar!
Biz ham bi-ir sultonlanaylik
Uning yo‘lbars ruhin o‘zga o‘tkarib,
Bo‘laylik sultonga suyuklik qayliq,
Sultonning onasi bo‘laylik, g‘arib...

Hatto
Xayolidan boryapman o‘rlab
Bizda-da bi-ir yashab, ko‘karsin sulton.
Dunyoga larzalar solarak, gurlab
Turkiy qavmlarni ko‘tarsin sulton!

Qodir Alloh,
Bir bor kechsin shunday hol,
Keyin,
Keyin, mayly, ne g‘am chekdirsin.
Yog‘iy oyog‘ida qilmasdan poymol
Bizni onasiday...
Xotiniday bizni...
Daryo suvlarida o‘zi cho‘kdirsin.

1998-yil 29-sentabr

CHIMILDIQQA KIRMAGANLAR YOR-YORI

Istiqlol yo‘lida ozmuncha o‘n gulidan bir guli ochilmagan yosh yigitlar o‘qqa uchdimi... Qo‘qonda uylanmagan yigit o‘lsa, murdani yuvishayotganda uning tengqur o‘rtoqlari past ovozda yor-yor aytib turisharkan.

O‘z uyini qurmay yigit, o‘lmasin,
Qiz bilan o‘ltirmay yigit, o‘lmasin,
Chimildiqqa kirmay yigit, o‘lmasin,
O‘lsa, yor-yor aytilarkan Qo‘qonda.

Suvalmagan uyi qolsa bosh egib,
Qavilmagan ko‘rpasiga tosh tegib,
Oppoq, kuyov ko‘ylagiga yosh tegib,
O‘lsa, yor-yor aytilarkan Qo‘qonda.

Yor-yor aytar ekan to‘rt-besh o‘rtog‘i,
Bolaligi, yoshligi esh o‘rtog‘i.
Alpomishsaxt, Alpomishto‘sh o‘rtog‘i
O‘lsa, yor-yor aytilarkan Qo‘qonda.

Qadim Turon dashtlarida bir yor
Uvvos solar, dala yor-yor, qir yor-yor,
Oh, dunyoni buzar, bir o‘tkir yor
O‘lsa, yor-yor aytilarkan Qo‘qonda.

Uvlab, mahshargacha yetsa... ehtimol,
Uvlab, tiriklarni tutsa, ehtimol.
Bizlarni ham olib ketsa... ehtimol,
Chimildiqqa kirmaganlar yor-yori...

1990-yil 9-may

NAVRO‘Z XAYOLLARI

(turkum)

Goh o‘rmalasa ham oldinga tikka
Tutashib ketgancha qorong‘ilikka,
Goh qopqonlik qildi hurkak kiyikka
O‘zing yorishtir bu yo‘llarni, Navro‘z.

Bulbul o‘ldi. Gul-chi yondi, ochildi,
Yellarning bo‘ynidan quchdi, osildi,
Bugun u nenidir sezdi, bosildi,
Gunohidan o‘t, bu gullarni, Navro‘z.

Bu qo‘lga qon tekkan. Bu qo‘lni asti
Chopib tashlasak ham haqqi ketmasdi.
Ammo... Balki, zarur birovga dasti...
O‘zing yuv bu qonli qo‘llarni, Navro‘z!

Ko‘klam gullab ketsa tosh-u xarsang ham,
Ko‘klam gullab ketsa qari-qartang ham,
Balo-qazolardan eng xatarli dam
O‘zing asra qiz-u ullarni, Navro‘z!

Bu bemorlar tongni kutar mung‘ayib,
Ular ham boy, ketgan dard bilan boyib.
Suya, suya! Ular ketmasin toyib,
Uzma, uzma joni qillarni, Navro‘z!

BOSHINI KO‘P EGGAN BIR JON

Navro‘z, bag‘ri tilingan gul,
Oyoq osti qilingan gul,
Yaproqlari shilingan gul,
Bugun “omon” ayta kelding.

Singan bir senmas, gul yuzim,
Menam sindim. Sindi so‘zim,
Bugun yerdan uzib o‘zim
“Alyor, zamon” ayta keldim.

Nainki inson qatag‘on,
Chordarvesh, devon qatag‘on,
Aql qatag‘on, ong qatag‘on,
Sen ham ketib, qayta kelding.

Sumalakli qozonlaring
Ag‘darildi azonlari,
Chiqib changing, to‘zonlaring
Fikrimni ulg‘ayta kelding.

To‘zib, qayg‘u chekkan bir jon,
G‘urbatlarga cho‘kkan bir jon,
Boshini ko‘p eggan bir jon,
Bosh ko‘targan paytda kelding.

Ko‘karmoqda har to‘rt taraf,
Unmoq sharaf, o‘smoq sharaf!
Tosh ko‘ngilga el tik qarab
Tosh ko‘targan paytda kelding.

Endi shunday qasos-un-nard
Endi tingan, singan nomard,
Eldan ketib, fasod-u dard,
Osh ko‘targan paytda kelding.

1988-yil 18-mart

O‘SISH FASLI QACHON KELADI?

Bu nurash, bu cho‘kish faslidir,
Iztirob, g‘am chekish faslidir,
Bor dardingni to‘kish faslidir,
O‘sish fasli qachon keladi?

Til uzaygan. Gapirmoq fasli,
Qulog‘ingga gap kirmoq fasli,
Ro‘zg‘oringga naf kirmoq fasli —
O‘sish fasli qachon keladi?

Ko‘zlarimga yosh keldi tez-tez,
Ko‘zim ko‘zlab tosh keldi tez-tez,
Ruhim — egik bosh keldi tez-tez,
O‘sish fasli qachon keladi?

Nohaq kelib haqlarni quvdi,
Quvlashib pok suvlar keluvdi.
Nopok kirib oyog‘in yuvdi,
O‘sish fasli qachon keladi?

Bugunning bu yozug‘ini buz,
Sen kelding-u, o‘sdi dala-tuz,
Odamlarga o‘zing ayt, Navro‘z,
O‘sish fasli qachon keladi?

1987-yil 27-mart

BILMASLAR

Ko‘rdim qishloq, go‘zal shaharlar ko‘rdim,
Ohorlari ketib borar, bilmaslar.
Jamalaksoch pari-paykarlar ko‘rdim,
Bahorlari ketib borar, bilmaslar.

Tugmak bo‘lsa yetmas belbog‘ uchlari,
Dunyo molin mahkam tishlar tishlari —
Bog‘larining shirinzabon qushlari —
Olqorlari ketib borar, bilmaslar.

Otlari-ya, qorabayir otlari
Gijinglaydi, deb o‘ylasam, dodladi.
Yoli bo‘ron bo‘lganligin yodladi —
Shunqorlari ketib borar bilmaslar.

Kuzatib bu dunyoning o‘r-qirini,
Bilmay qoldim kelmak, ketmak sirini.
Yolg‘on yorlar yalashib bir-birini,
Chin yorlari ketib borar, bilmaslar.

Charsillagan bir o‘t yonar ichimda,
Men she’r aytsam, aytmadim til uchinda.
Bu taloto‘p, quv-quv, chop-chop ichinda,
Halima ham o‘tib borar, bilmaslar.

21 - 22-312

O‘ZIMNI O‘RGATDIM...

To‘ldimi, albatta, tosharkan u jom,
Mudom to‘lmaslikka o‘zni o‘rgatdim.
Qoraysa qorayib kelaversin shom,
Oson o‘lmaslikka o‘zni o‘rgatdim.

Yashasam-da bog‘ning giyohlariday,
Kuch, qudrat yashirin qayoqlarimda.
Toptalsam-da to‘fon tuyoqlarida,
Sinib, so‘lmaslikka o‘zni o‘rgatdim.

Bilmam, qayda o‘sdim. Qanday o‘sdim, bas!
Bu zer-zabar matoh mening po‘stimmas,
Ko‘kdan tusholmaslar mening do‘stimmas,
Men pastlik, xaslikka o‘zni o‘rgatdim.

Jumlaga, jumladan menga ham rivoj
Bersin qodir Xudo,
Ammo yupun, och
Baxtsizning oldida yarqiratib toj
Baxtli bo‘lmaslikka
O‘zni o‘rgatdim!
To‘ldimi, albatta, tosharkan u jom...

2007-yil 2-iyul

BILMAGAN DARAXT

O‘z kuchi, o‘z bardoshini bilmagan daraxtman men...
Qoqilganday
Bitta joydan jilmagan daraxtman men.
Sershox, serbarg novdalari chaq-chaqlatib qushlarni,
Umri bo‘yi o‘zi bir bor kulmagan daraxtman men.

Holbuki,
Sho‘x shamollar-la daydib ketsam bo‘lardi,
Ko‘p ishqiy qo‘shiq bilardim, aytib ketsam bo‘lardi,
Qaytib ketsam bo‘lardi-ya, qaytib ketsam bo‘lardi,
Ammo manglayiga qaytmoq
Bitilmagan daraxtman men.

Birov pichoq bilan kesdi, so‘rdi shiralarimni,
Boshqa biri kallakladi, ko‘rdi ichim, qa’rimni.
Bargim pilla qurti yedi, birov kiydi zarimni,
Men-chi,
Birovlardan bir barg yulmagan daraxtman men.

Ba’zan o‘ylanaman,
Oyoq bersa, yurib ketsam deb,
Daryolarning to‘lqiniday chappar urib ketsam deb,
Ketmasam...
Shu turishimda yerga kirib ketsam deb,
Dunyo ishlaridan ko‘ngli to‘lmagan daraxtman men!

O‘z kuchi, o‘z bardoshin bilmagan daraxtman men.

2007-yil 8-iyun

YO‘QLATADIGAN DARDIM...

Toshlarimni osmonga otib aytar dardim bor,
Tizzamgacha tuproqqa botib aytar dardim bor.
Ming yillab uxlaganni uyg‘otib aytar dardim bor,
Ming yil uxlamaganni uxlatadigan dardim.

Qirq joyidan darz ketgan, qirq yamoq ko‘nglim mening,
Abad toza kunji yo‘q, dog‘-u dog‘ ko‘nglim mening.
Shu birgina dard bilan sog‘-u sog‘ ko‘nglim mening,
Harki poymol yurakni o‘qlatadigan dardim.

Xudo bergan shu dardim, ishq-u jununimgacha,
Ishg‘ol etgan batamom intiqom, xunimgacha.
So‘ng soatim kelguncha, eng so‘nggi kunimgacha,
Borki to‘zg‘in kullarni cho‘g‘latadigan dardim.

Kuldirmoqchi emasman, yig‘lab ushladim o‘tni,
Ishqi kapalakmijoz gullar tutmasin yurtni.
Kim kimning ishqi bilan yig‘lab dunyodan o‘tti,
Qolganni ham to oxir yig‘latadigan dardim.

U shunday yig‘laydiki... surilar qabr toshi,
Chil-chil sinar tirikning toqat, sabr-bardoshi.
Va...
Go‘rdan chiqib kelar... mayyit ko‘tarib loshin.
Qabrdanam chiqartirib...
Yo‘qlatadigan dardim.

AGAR SHU DUNYONING DARAXTI BO‘LSANG...

Yaxshi. Bu dunyoda naq naqdli bo‘lsang,
Yovqur arslonday shiddat, shaxdli bo‘lsang.
Ammo shu dunyoning daraxti bo‘lsang,
Kim baxtli bo‘ptiki, Sen baxtli bo‘lsang.

Baxt qushi qo‘ndi,
Deb yayrarlar baxtyor.
Shunda uchmog‘iga ham ishora bor.
Kelib qo‘nsa qo‘nar, yuraging yorma,
Uchib ketsa ketar, ortidan borma.
Parvo qilma gado, yo taxtli bo‘lsang,
Kim baxtli bo‘ptiki, Sen baxtli bo‘lsang.

Buz va uz qafas-u zanjirchalarni,
Nima yetsin, o‘zni tiklab, shaylarga.
Ozodlik naylarin kimlar chaladi,
Hech kim bas kelolmas toq to‘rg‘aylarga.
Tomchi ko‘z yosh to‘kma, dengizday to‘lsang,
Kim baxtli bo‘ptiki, Sen baxtli bo‘lsang.

Sevganlar yolg‘izdir, yolg‘iz sevilgan,
Ozorda oshiqlar jonlari hali.
Bir sevgi mening ham dilimni yulgan
Chak-chak tomib turar qonlari hali.

Agar shu daryoning daraxti bo‘lsang,
Kim baxtli bo‘pti-ki, Sen baxtli bo‘lsang.

OYIM BOTMISH, KUNIM BOTMISH...

Oyim botmish, kunim botmish,
Yolg‘on qolib, chinim botmish.
Chalqancha yotib o‘ylayman,
Tuproqqa yag‘rinim botmish.

Yaqinlashdi tuproq tagi,
Qadrdonlik ortdi tag‘in...
Sanayman, barmog‘im yetmas,
Qanchalar yaqinim botmish.

Nash’ali do‘stlarim qani,
Mash’ala do‘stlarim qani.
Yer qa’rini yoritgani
Chaqmog‘-u chaqinim botmish.

To‘yxonaga do‘ngandir yer,
Mayxonaga do‘ngandir yer.
Do‘stlarim xushqiliq edi,
Qilig‘iga ko‘ngandir yer.

Mohlaroyim sochi qordir,
Oygayam bu dunyo tordir.
Jannat mashvaratlarida
Oyimni ko‘rganlar bordir.

Oyim botmish, kunim botmish,
Yolg‘on qolib, chinim botmish.
Chalqancha yotib o‘ylayman,
Tuproqqa yag‘rinim botmish...

NECHUN SHODMEN GOHO...

Mening karvonlarim charchadi chog‘i,
Tuyalar tizzalab yotayotganday.
Ko‘ksimdagi o‘qlar — nelarning dog‘i,
Haliyam yangiday, botayotganday.

Yo‘llar tunga qarab ketdi chamasi,
Imillab siljiydi umr kemasi.
Sinchkov tikilaman, horg‘in hammasi,
Ammo... nechun goh tong otayotganday.

Necha savol bo‘ldim, necha ming yechim,
Ming yolg‘on qulatdi, tikladi ming chin.
Umr tunga oqqan. Ammo men nechun,
Bu yo‘llardan endi o‘tayotganday?

Umr tunga oqqan —
Yarimmanmi, but.
Goh-goh tomchi tashlab o‘tadi bulut.
Ko‘nglimga qarasam bir chetida o‘t,
Ko‘nglimning bir cheti tutayotganday.

Ko‘rsatmoq bo‘libmi
Chitim, zarimni,
Shamol silkitadi pardalarimni.
Yutqazdim-ku, barcha qartalarimni,
Nechun shodmen, goho yutayotganday.
Nechun?!

2007-yil 24-may

OTASIDAN O‘ZGANINI BILDIRMAS

Dardin chetga chiqaradi qaysi sher,
Ona arslon ozganini bildirmas.
Nodon: — “Taqdirni o‘zim yaratdim”, — der,
Qodir Xudo yozganini bildirmas.

Sirtdan boqsang ko‘ngil ovlanaverar,
Shaxd oldinga tashlar dovlanaverar,
Tovus ziynatlanar, tovlanaverar,
Patlarining to‘zganini bildirmas.

Yesir nonni qanday yetkazadi-yu,
Go‘dagiga qanday tutqazadi-yu,
Yesir tunni qanday o‘tkazadi-yu,
Yetim qanday o‘sganini bildirmas.

Sharq bolasi, mayli yovqur yo daydi,
“Botir bo‘lsang avval meni yeng”, — deydi.
Avval oshiq bo‘lgan menman, men! — deydi,
Avval qiz ko‘z suzganini bildirmas.

Sharq bolasi,
Yassaviyning bolasi.
Dunyolarni titratsa ham nolasi,
Undan faqat kamsuqumlik olasiz,
Otasidan o‘zganini bildirmas.

2009-yil 17-dekabr

BEGIM, SIZNI TABIAT...

Begim, sizni tabiat raso qilib yaratgan,
Kimlarnidir o‘ychan-u, Sizni kulib yaratgan.
Nogahon berib qo‘yib bu aqlni, kamolni
O‘zi ham rashk, hasadda to‘lib-to‘lib yaratgan.

Qiya tushgan nigohni armonga yo‘ymagaysiz,
Qiz qalbiga sevmoqni osonga yo‘ymagaysiz,
Qiynamangiz, u o‘zi o‘rtanguchi bir bag‘ir,
Bu bag‘irni kenglikda, osmonga yo‘ymagaysiz.
Siz xuddiki Farhodsiz, Shirin qaydadir,
begim,
Orzularim dilda-yu, nolam naydadir, begim,
Siz desam bar tutqazmay, sochilgan
o‘ylarimday,
Bu tong qaro sochlarim mayda-maydadir,
begim.
Sizni men o‘zimga ham loyiq ko‘rmam,
rosti gap,
O‘zgaga bermoq esa tushimga kirmas uxlab.
O‘zga bilan ketsangiz, ravon yo‘llar qolmasin,
Begim, ikkilanmasdan Yer yuzin tashlang
mixlab,
Mixning, tig‘ning zahrini sezmay yonib
boraman,
Ishq zardobli sharobdir, qonib-qonib
boraman.
Hech kim bilan sirlashmay, hech kimsaga
tutmay may,
O‘z qonim bilan o‘zim alvonlanib boraman.
Hayratlarda qotgaysiz meni ko‘rganda
ul dam
Yoningizdagi sovuq suluvdan sovursiz ham,

Sizni obdan muzlatgach, o‘zim qaytarman,
chunki
Bungacha yo‘q sadoqat, bundan so‘ng ham
bo‘lar kam.
O‘zga tortmam cheksam ham shuncha jabr-u
jafoni
O‘zgaga ham bermasman, Sizdek bir bevafoni!
Begim, Sizni tabiat raso qilib yaratgan...

* * *

Sizga ishqim, Sizga qarg‘ishim,
O‘zga izlab mendan topmas iz,
Bu dunyoda mening bor ishim—
Sizga tushdi, bir Sizga yolg‘iz.

Adashdim-da yolg‘onga yo‘ydim—
Ishqingizni qo‘l silkdim, “bekor!”
Shoshib g‘urur gultojin kiydim,
Endi boshdan olib qo‘ymoq or.

Endi dunyo ishin qarangki,
Ishq ortidan qul bo‘larmish shoh.
“Unutdim”, deb sarg‘ayar rangim,
“Sevmayman”, deb jim chekaman oh.

Siz deganda men sinmas torman—
Kuta-kuta ko‘zim yo‘l o‘yib.
Umrim bo‘yi qarg‘ab o‘tarman—
Umrim bo‘yi jonimda suyib.

Garchand hijron talxdan talx maydir,
Men ichardim, bo‘lganda ham qon.
Qarg‘ishlarim Sizni urgaydir,
Sog‘inchlarim saqlaydir omon.

TISHSIZ ODAM FARYODI...

Siz ketdingiz.
Diydoringiz sog‘intirdi,
Ma’yus, g‘am sahrolarida kechib yurdim.
Ayriliq — o‘q, yuragimni teshib kirdi,
Suvmi, qonmi bilmadim ne ichib yurdim.
Ketdingizmi,
Endi sizam tushmi Ona,
Mahshargacha endi xayr-u xo‘shmi, Ona?!

Uzildingiz,
Uzilmadi tillo zanjir
Tillo zanjirchangiz o‘sha qutichada.
Har ko‘rganda yuragimga botar xanjar,
Har ko‘rganda jizg‘anakman, o‘t ichida.
Jon degani
Shunchayam mo‘rt, bo‘shmi Ona,
Mahshargacha endi xayr-u xo‘shmi, Ona?!

U borida ko‘nglim burgut, sor edi-ku,
Bugun og‘ir qordaymi, tumanday yuray?
Birodarlar, kecha onam bor edi-ku...
Bugun U yo‘q,
Bugun U yo‘q, qanday yuray?!
Ona ham bir uchar-ketar qushmi, Ona.
Mahshargacha endi xayr-u xo‘shmi, Ona?!

Xazon oldi o‘sar emish gullar bo‘yi,
Ketar oldi qoldingiz sal berman qarab.
Oyoqlaringiz uqalab tunlar bo‘yi
Oppoq paxta sochlaringiz yuvib-tarab,
O‘ray desam...

Ikki qo‘lim bo‘shmi Ona,
Mahshargacha endi xayr-u xo‘shmi Ona?!

Oh, do‘stlarim, bu dunyoda qushi borlar
Qushingizni asrang!
Ko‘ngil dodlari — bu!
Ey, dunyoda tishlamoqqa tishi borlar,
Tishsiz qolgan odamning
Faryodlari bu!
Ona, farzand og‘zidagi tishmi Ona,
Mahshargacha endi xayr-u xo‘shmi, Ona?!..
Siz ketdingiz. Diydoringiz sog‘intirdi...

SUV BILAN SIRLASHGAN KUNIM

Onam ma'yus majnuntol edi,
Shoxchalari yer tomon boqqan.
Turishlari sir-u fol edi,
To'lqinlarga qo'shilib oqqan.

Yaproqlari suvga yozdi xat,
Boshlab qaydan qaytdi bilmadim.
Shivirlashdi suv bilan faqat,
Ammo
nima aytdi bilmadim.

Ovoz solib demadi "Yohu",
Na yig'lab,
Na bag'rin tig'ladi.
Faqat suvga dard aytganda u,
"Sirqirashib suvlar yig'ladi".

Bilmaganman,
Chiqmagan uni.
Qay yuk bosgan bosiq toshimni.
Shu suv bilan
Sirlashgan kuni
Ko'tarolmam menam boshimni.

2007-yil 30-noyabr

MUNDARIJA

Tuyg'ular qasirg'asi *(Qozoqboy Yo'ldosh)* 3
Bizning tog'da 14
Dorilamon kunlar keldi 15
Shunchaki 16
"Taqdir ulaganda umrlar zanjirin" 18
"Senga barcha otilgan toshlar" 19
"O'chgan o'tni yondirma qayta" 20
"Sochlarimga nigoh solmay o't" 21
Bir sen emas 22
Qalbingga chorlaysan 23
Endi u 25
"Qiyofang hamisha bahor yaratar" 26
G'urur 27
Biz olmamiz 28
Oq olmalar pishganda 29
Qo'msash 31
Otam, mening mehribon otam 32
Peshona 34
Dehqon otamsan 35
Dag'al qo'llar 36
Oqarib bormoqda, onam, sochlaring 37
"Qizg'ish yonar ufqning kunguralari" 39
Tushimga kiribsan 40
"Kimdir o'rmak to'qir..." 41
Hovlilar 42

O‘zimizning bog‘lar ... 44
Yuragimda barglar shiviri ... 46
Qor uchqunlayapti ... 48
Muqaddas ayol ... 49
Ko‘zlarimga ... 51
Yigit qadam tashlarkan ... 52
“O‘n to‘rt yoshli qizcha...” ... 53
Oppoqqina chaqaloqni ... 55
Ayolga bosh urish ... 56
Hurlik o‘ti ... 57
Ketish haqida ... 58
“Eski o‘zbek tili”ga ... 59
Bor armonim ... 61
Dardim bilan o‘sadilar bir kuni ... 63
Omon bo‘ling ... 65
Bolalarim, qadni ko‘taring! ... 66
Karomat ... 67
Jilg‘acha ... 68
Har kun xabar ... 69
Unutganning kuysin ikki dunyosi ... 70
Bu o‘lim qanday o‘lim? ... 72
Shubha ... 73
Tishimdan qon sizib ... 74
Tumor — vasiyatimni ... 75
Biz o‘tarmiz. Eslar ul-qiz ... 77
Bizlar ojiz ... 78
Neniki ko‘rdim kecha ... 79
O‘sh — O‘zganning bolalari ... 80
Yomon bir o‘y ... 81
Yig‘i ... 82

Bul kun kimdir o‘ynasa ... 83
Yig‘lamaymiz ... 84
Shoir nomi ... 86
Bu shaxt ... 88
Zehn solsam, o‘, dunyo ... 89
Bitta mushtga aylanmay ... 90
Yarim kecha... ... 91
Eldoshlarim ichra yurib ... 92
Mening kabi... ... 93
Hindikushdan nola keldi ... 94
Sizning o‘rningiz ... 96
Dunyolarga sig‘magan g‘avg‘o ... 98
Olqishlashing kerak ... 99
Ular sen haqingda kuyladilar, ayol! ... 101
Juft sho‘xchan ko‘z ... 102
Kemalar tikkaga yo‘l olsin ... 103
Bu Vatan ... 105
Bu uylar ... 107
Holat ... 108
“Bilmam, adashdimmi...” ... 109
Ketaman ... 110
To‘g‘on ... 111
Ketma ... 112
Avtoportret ... 113
“Bir vaqtlar ketardik...” ... 115
“Bu ayolning sochlari uzun...” ... 116
“Yonayotgan bu o‘t bo‘lmas sira kul...” ... 117
Qirg‘oq ... 118
Xavotirning quchoqlari ... 119
Hijron yobonlarida ... 120

22 – 22-312

Ishq 121
“Kuzning yonoqlari...” 122
“Bu erkak ayolning osmoni edi...” 123
Marhumning aytganlari 124
Bir xato iztirobi 125
Xalqona ohanglarda 127
Tinch fontan qoshida 129
Xavotir 130
To‘marisning aytgani 131
“Onang qariyolmas...” 132
Moslashuvchan odamga 133
Men ham senday... 134
O‘rtalik 135
Tilak 136
“Onajon, o‘tir, bir hasratlashaylik...” 137
Onamning aytgani 138
Yozda... 139
Ko‘z 140
Ishonch darvozasida 141
Kirib bormoq 142
Menga ayt 143
Ko‘kragi dog‘lilarga 144
Uchinchi qiz 146
Bir qadam oldinga 148
Ilk xato 150
Muammo 151
Daraxt o‘z joyida 152
Bir zinaday qolurman 153
“Hayotning ko‘zidan o‘pib...” 154
Dugonam Saodatning so‘zi 155

Agar ko‘prik bo‘lsang... 156
Chinni kosa 157
Bir ayolning o‘tmishi 159
Qasos 161
Yigit iztirobi 162
Olov sari 163
Ko‘ngli yarim... 165
“Avval o‘qigandim ushbu kitobni...” 166
Kuzgi taskin 167
Yangi yil kechasidagi jomso‘z 168
Shoira singillarimga 170
Natalya Goncharovaga 172
Intiqom 174
Siz mixsiz... 176
Qari otning aytganlari 177
Yolg‘iz boshni... 178
Goh kunlar g‘aroyib 180
Sirdaryo bilan suhbat 182
Usmon Nosirga 184
Oqar daryo 186
Ustoz Oybekka 188
Surur qo‘ng‘irog‘i 190
Xalqimga 192
“Vatan! Sening...” 194
“Yigitlar o‘limga ketgan yo‘llar bu...” 195
Qirchillama qirq yigit 196
Qaytmayman... 198
Qamal kunlarida 199
Qamal qishida 200
Jasoratning so‘nggi tuni 202

Haykalning aytganlari 204
Vatan baxti 206
Chaqiriq 208
G‘alaba 210
Xato takrorlanmas 212
Eski sandiq 213
Samantaning portreti 214
Yolg‘iz o‘g‘il haqida ballada 216
“Bugun chaqir...” 218
Ilinj 219

BAXSHIYONALAR

Tug‘ilish 229
Ona sadoqati va yolg‘iz o‘g‘il armoni qissasi 231
Baxshining to‘ydagi kurashda aytganlari 236
Qasam 238
Ko‘zi borlar to‘g‘ri yo‘ldan yurmasa 240
Qush tiliga yovuq kelsa qush tili 242
Yo‘qlov 244
Vatan 246
Demakki, sen shoirsan 247
Endi ket 248
Oshiqlik sizdan o‘tardi 249
Aytolmadim 250
Faqat ishqing 251
Qasamki 252
Ruhim ko‘taradi bayroqlarini 253
Haqqim yo‘q 254
Bilmasmiz 255
Erk yo‘li 256

Inson aslan buyuk 257
Xayf 258
Qaytib olingan yer bu 259
Onam xususida qayg‘ularim 260
Uni menga ber 261
Mulgib-mulgib uzun kechalar 262
Sizga ishonardim 263
Onang ketmoqda 264
Majburiyat 265
Kuning kulsin 266
Yolg‘iz qoldirma... 268
Suv uzatar tomirim 269
Tangrim, aytgin... 271
Hurmat joiz... 272
Aytmay qandoq yashayman? 273
Yassaviyning “Hikmat”ini yo‘qotgan kundagi holatim 274
E’tirof 275
Ulgi 276
Otlar bo‘lsa egarlangan 277
Bibi Fotima duosi 278
Yering bu! 280
“Nazokatning dostoni”dan 281
Qaramlik 282
Ko‘nglimdagi arslon 283
Bu ulug‘ karvonni kimlar taladi? 284
Tirik qo‘ng‘iroqlar 285
O‘q tegdi 286
Mohlaroyim, chin oyim, ayting... 288
Tug‘larimni ololmaydi yov 289
Bir kun seni ko‘taradi 290

Alloh kechiktirsin ... 291
Menam o‘tdan o‘tganman ... 292
Uyg‘on so‘zin aytgach... ... 293
O‘lmaslik ... 295
Inonish ... 296
Daraxt faryodidan bexabar... ... 297
Pahlavonning har aytgani ... 298
O‘stir, Xudo degan shu mamlakatni! ... 299
Faqat... Bobur yig‘lagan ... 300
Mozorlaring bor ... 301
Unutmaydi ... 302
Turkiston keldi ... 303
Dil ham bosh tortar ekan ... 304
Men birgina so‘z o‘stirdim ... 305
Kechikkanlar ... 306
Yuksalishga mahkumlik ... 307
Yubormayman... ... 308
Kechagi shamol ... 309
Menga duch kelib qolsa... ... 311
O‘zin topmoq istagan ... 312
Xulosa ... 313
Eski do‘stlarimga ... 314
Sulton, qahringni ber! ... 315
Chimildiqqa kirmaganlar yor-yori ... 316
Navro‘z xayollari ... 317
Boshini ko‘p eggan bir jon ... 318
O‘sish fasli qachon keladi? ... 320
Bilmaslar ... 321
O‘zimni o‘rgatdim ... 322
Bilmagan daraxt ... 323
Yo‘qlatadigan dardim ... 324
Agar shu dunyoning daraxti bo‘lsang... ... 325
Oyim botmish, kunim botmish... ... 326
Nechun shodmen goho ... 327
Otasidan o‘zganini bildirmas ... 328
Begim, sizni tabiat... ... 329
“Sizga ishqim...” ... 331
Tishsiz odam faryodi ... 332
Suv bilan sirlashgan kunim ... 334

H 22 Halima Xudoyberdiyeva [Matn]: nazm / to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Farog‘at Xudoyqulova. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 344 b.
ISBN 978-9943-8569-6-7

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

HALIMA XUDOYBERDIYEVA

29-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Dildora Abduraimova*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Gulchexra Gulyamova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 21,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 15,20.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 97-1/22 Buyurtma raqami № 22-312

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

HALIMA XUDOYBERDIYEVA